

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI**

**TARIX TA'LIM YO'NALISHI  
«O'ZBEKISTON TARIXI» KAFEDRASI**

**ТУРКИСТОН ЖАДИДЛАРИ ТАФАККУРИДА ЖАМИЯТНИ  
МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ МАСАЛАСИ**

***MALAKAVIY BITIRUV ISHI***

Bajaruvchi: *Hasanova Nigora*  
Ilmiy rahbar: Доц. Д.Н.Ражабова

Malakaviy bitiruv ishi "O'zbekiston tarixi" kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2013 yil \_\_\_\_\_ majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma №\_\_\_\_\_).

Kafedra mudiri: dots.R.Sh. Xoliqulov

Malakaviy bitiruv ishi YADAKning 2013 yil \_\_\_\_\_ iyundagi majlisida himoya qilindi va \_\_\_\_\_ foizga baholandi (bayonnoma №\_\_\_\_\_)

**YADAK raisi:**

**A'zolari:**

---

---

---

---

---

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3-6</b>
<b>I-bob.Turkiston jadidlarining dasturiy xarakatlarida maorif va madaniyat masalalari.....</b>	<b>7-51</b>
I.1.Jadidchilik xarakatining vujudga kelishining tarixiy vaziyati va uning Turkiston o'lkasi xalqlarining ijtimoiy siyosiy hayotiga ta'siri.....	7-14
I.2.Turkiston o'lkasi xalqlarining ongi va dunyoqarashini rivojlantirishda maorifni isloh etish masalalari.....	15-36
I.3.Turkiston jadidchiligi va madaniyat. Turkiston taraqqiyparvarlarining madaniyatga oid qarashlari.....	37-51
<b>II-bob. Turkiston jadidlari tafakkurida jamiyatni modernizasiyalash masalasi.....</b>	<b>52</b>
II.1.Jadidlar tafakkurida obod turmush g'oyalari.....	52-69
II.2.Turkiston jadidlari qarashlarining siyosiy lashuvi va o'lka hayotiga ta'siri.....	70-85
<b>Xulosa.....</b>	<b>86-87</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>89-94</b>

## Kirish.

Mustaqillik sharofati bilan milliy tariximizga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, istiqlol tufayli qaror topgan, hurfiylik sharoitida haqqoniy tariximizni tiklash va uni xolisona tahlil etish davr talabiga aylangan, bugungi kunda oshkoralik yuzini ko'rishga va tuxmat tamg'alaridan xalos bo'lishga musharraf bo'lgan yaqin o'tmish - XIX asr oxiri va XX – asrdagi milliy taraqqiyparvarlik harakati bo'lgan.

Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek – “Fidoiyi jadidlarimiz hayoti biz uchun o'rnak, yoshlarni istiqlol, vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega, ularning bosib o'tgan kurash yo'lini o'rganish zarur”<sup>1</sup>.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida Turkiston jadidchilik harakati tarixi o'ta dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi. Binobarin, muhtaram Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganlaridek, “modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur.”<sup>2</sup> Shuning bilan birga “Vatanimiz mustaqillining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yurtdoshlarimizni islom dini va falsafasi, aziz-avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug' qadamjolariga nisbatan hurmat ehtiromi”<sup>3</sup> tuyg'ularini shakllantirishda ahamiyati katta.

Yangilik va islohatchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan taraqqiyparvar, ilg'or ruxdagi ziyolilar tarixda “Jadid” deb nomlandilar. Jadidchilik harakatining paydo bo'lishi bevosita o'sha davrdagi ichki hamda tashqi xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy muhit va vaziyat bilan bog'liq bo'ldi. Ijtimoiy xayot tarzining muayyan davrdagi xolati jamiyat a'zolarining aksariyatini qoniqtirmay qoldi. Natijada ular ijtimoiy tuzumni o'zgartirish yoki uni

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. “Sharq” 1998 y.24-bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

<sup>3</sup> «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори 2006 йил 25 август. Қаранг: “Халқ сўзи” 2006 йил 26 август.

turg'un, qotib qolgan xolatdan chiqarish uchun yoki inqilob qilish yoki isloh etish harakatiga tushadilar. Jadidlarning yuzaga kelishi xam muayyan ijtimoiy voqeylikdan qoniqmaslik oqibatida sodir bo'lgandi. Fan va texnika iqtisodiy va harbiy saviya jihatidan rivojlanib ketgan G'arb davlatlari XVIII-XIX asrlarda taraqqiyotning o'rta asr feodalizm darajasida qolgan Sharqni mustamlakasiga aylantirdi. Shu jumladan, Turkiston ham XIX asrning yarmiga kelib Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilib, milliy zulm iskanjasiga tushib qoldi. O'z erki mustaqilligini qaytarib olishni istagan mazlum xalqlar vakillari istedod zanjirlaridan qutilishning bir qancha yo'lidan bormoqchi bo'ldilar. Birlari jahongir G'arb davlatlari iskanjasidan xalqlarning diniy mansublik tuyg'usini jo'sh urdirgan holda kurash maydoniga kirib, ozodlikka erishish mumkin, deb bildilar. Natijada tarixga "panislomizm" nomi bilan kirgan G'arb jahongirliligiga qarshi kurash harakati yuzaga keldi. Boshqalari mazlum xalqlarni etnik jihatdan jiplashtirib milliy-ozodlik yo'lga kirmoqchi bo'ldilar. G'arbda "panturkizm" deb ataluvchi turkchilik g'oyasi, ma'lum darajada shu tarzda paydo bo'ldi. Yana birlari esa, maqsad faqat G'arb jahongirlarining istedod zanjirlarini parchalab tashlashgina emas, balki o'rta asrchilik jaholatidan qutilish, har jihatdan taraqqiy topgan davlatlar darajasiga chiqib olish ham dildagi orzu bo'lishi lozimligini yaxshi angladilar. Bular ijtimoiy hayotning barcha sohasidagi yangi davr talabiga javob berolmay qolgan tuzumlarni isloh etish kerak deb hisobladilar. Bunday kishilar jamiyatning qaysi tabaqasiga mansubligidan qattiy nazar, yangilik, taraqqiyot marifat va madaniyat tarafdorlari bo'lib chiqdilar. Arab tilidagi "yangi" manosini anglatuvchi "jadid" so'zi ularning ijtimoiy atamasiga aylandi. Shu tariqa Misr, Turkiya, Kavkaz, Turkiston va boshqa o'lkalarda jadidlar siyosiy oqim sifatida yuzaga keldi.

Turkistonlik jadidlar ona Vatanlarini mustaqil ozod holda qurishni o'zlarining bosh maqsadlari deb bildilar. Milliy-ozodlik kurashida qurol kuchi bilangina muvafaqqiyat qozonib bo'lmasdi. Bunga misol: XIX asr oxirida yuz bergan isyon va qo'zg'olonlar shaklidagi milliy-ozodlik xarakatlari – Po'latxon qo'zg'aloni, Toshkentdagi "vabo isyoni", Farg'ona vodiysi hamda Zarafshon

vodiysidagi milliy ozodlik xarakatlari mag'lubiyatga uchradi, isyon va qo'zg'alon ishtirokchilari qattiq jazoga giriftor bo'ldilar. Turkiston jadidlari bunday sharoitda ozodlikni qo'lga kiritma olmasliklarini, ibtidoiy qurollar bilan Rossiyadek zo'ravon va makkor saltanat jangchilaridan qutilishlari mumkin emasligini yaxshi tushunganlar. Shu bois ular milliy istibdodga tushib qolishlarining sabablarini tahlil etib, ularning tub ildizini yo'q qilib tashlash lozimligini anglab yetdilar. Natijada jadidlarning xalqqa hamma narsadan burun marifat berish lozim degan g'oya yuzaga keldi. Shundagina xalq o'z ahvoliga razm solishi qulligini anglashi milliy ongi uyg'onishi mumkin edi ana shundan keyingina izchillik bilan milliy-ozodlik sari kurash olib borsa bo'lar edi.

Jadidchilik islomdagi taraqqiyparvarlik ilm fanga rahbar va dunyoviylikning yangi davrdagi ko'rinishi sifatida paydo bo'ldi. Jadidchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishiga Sharq va G'arb mamlakatlarida rivojlangan quyidagi demokratik, milliy-ozodlik islohotchilik harakatlarining tasiri ham kuchli bo'ldi:

- XIX asrning 90-yillaridan boshlab 1905-1907 va 1917-yillarda katta g'alabalarga erishgan rus sotsial demokratik va inqilobiy harakatlari hamda ularning Turkistonga tasiri.

- Jaloliddin Afg'oniy (1839-1897) va Muhammad Abdolar(1848-1903) asos solgan musulmon dunyosidagi islohotchilik va "nahda" (uyg'onish) harakatlari.

- Turkiyadagi aksilmonarxislik konstitutsion demokratik ijtimoiy milliy uyg'onish harakatlari: Tanzimat, Yosh usmonlilar, Yosh turklar (1889-1918) va (1908-1909) yillardagi demokratik inqilobiy harakatlar

- Jadidchilik harakatining paydo bo'lib rivojlanishida Qrimlik Ismoilbek Gaspirinskiy (1851-1914) hissasi behad katta bo'ldi. U Qrimda XIX asrning 80-yillaridayoq Rossiya bosib olgan musulmon xalqlari orasida birinchi bo'lib jadidchilikga asos soldi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari: Turkistonni o'rta asrchilik feodal qoloqlik, xurofatlardan ozod qilish, "Usuli qadim"ni inkor etgan holda

o'lkani, xalqni, millatni, zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitusion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish turkiy tillarga davlat tili maqomini berish milliy qo'shin tuzish va boshqalardan iborat edi.

Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o'zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo'lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, marifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g'oyalar yetakchilik qilgan. O'lkani zulmdan ozod qilishni hamma narsadan ustun qo'ydilar. Jadid ziyolilari erk, istiqloлга erishish uchun milliy ongni o'stirish zarurligini payqadilar. Shu orqali milliy uyg'onish yasamoqchi bo'lganlar. Buni esa ta'lim va tarbiyada-marifatda deb bildilar. Shuning uchun ham jadidlar yangicha ta'lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo'lida xormay tolmay ishladilar.

## **I-bob. Turkiston jadidlarining dasturiy harakatlarida maorif va madaniyat masalalari.**

### **I.1. Jadidchilik xarakatining vujudga kelishining tarixiy vaziyati va uning Turkiston o'lkasi xalqlarining ijtimoiy siyosiy hayotiga tasiri.**

Turkistondagi jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rossiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. «Jadidchilik»ning asosida «jadid» so'zi yotadi. «Jadid»ning ma'nosi «yangi» demakdir. Yani «Yangi tafakkur», «yangi inson», «yangi avlod» singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Xarakatning kirib kelishi Ismoilbek Gasprali (Gasprinskiy) ochgan yangi maktab nomi bilan bog'liq. U yozadi: «...1884 sanasi Bog'chasaroyda bir maktabni «usuli jadid»ga qo'yimish edim»<sup>4</sup>. Bu boshlanishi edi. Xarakatning mazmuni maktab doirasida qolmadi, albatta. Bunda yuqorida nomini zikr etganimiz Ismoilbek Gaspralining «Tarjimon» gazetasi (1883) va u asos solgan «Usuli jadid» (ikkinchi nomi «usuli savtiya») maktabi (1884) xal qiluvchi rol o'ynadi. Shuningdek, Turkistondagi XIX asrning boshlaridagi eski maktab-madrasa tizimidan noroziliklar, taraqqiyotga to'siq bo'la boshlagan

Abdulla Avloniyning «Tarjimai xol»idan: «Shul zamonda (1894—1904 yillar ko'zda tutiladi ) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik qadim-jadid janjali boshlandi. Yangi fikrli o'qituvchilarni mullalar «jadidchi» nomi bilan atar edilar»<sup>5</sup>. Jadidlar Usmonli Turkiyadagi «Ganch (yosh) turk», «Ganch usmonli» ta'siri bilan «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar», «Yosh turkistonliklar» deb ham nomlandilar. Birinchi ikki nom rasmiy tashkilot darajasiga ko'tarildi.

Demak, jadidchilik xurlik, ozodlik uchun kurash jamiyatning bosh maqsadlaridan qilib belgilangani ma'lum bo'ldi.

«Jadid» atamasi Turkiyada XX asr boshidagi adabiyotga, uning ham birgina yo'nalishiga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, «Rossiya jadidchiligi» o'zimizda esa, «Buxoro jadidchiligi», «Turkiston jadidchiligi» degan atamalarni

---

<sup>4</sup> И. Гаспрали. Рахбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош.. 1998 й. 4-бет.

<sup>5</sup> Абдулла Авлоний. Танланган асарлар, 2-жилд. Т., "Маънавият". 1998 й, 288-бет.

uchratamiz. Bu turli joyda turlicha shaklda namoyon bo'ldi. Masalan, Turkiyada 1839 yildagi mashhur Mustafo Rashit Posho tomonidan yozilib, Gulxona maydonida e'lon etilgan va tarixga «Gulxonai xatti Xumoyun» nomi bilan kirib, «Tanzimot»ni boshlab bergan davr ham, yangilanishdir — jadidchilikdir.

To'g'ri, u asosan, g'arblashishni tamal qilib olgan edi. Shuning uchun ham ko'p o'tmay, bunga qarama-qarshi ravishda «turkchilik», «usmonchilik», «islomchilik», «turonchilik» kabi milliy g'oyalar o'rtaga tashlandi. Yevropalashish tariximizning shu davrida jadidchilikning muhim xususiyatlaridan bo'lgan. Chor xukumati bundan mahalliy xalqni ruslashtirish yo'lida foydalandi ham. Lekin mezon mahalliy xalqning o'z dini va e'tiqodini dahlsiz qoldirish, Yevropa ilm-fanini shularning muhofazasiga xizmat qildirish uchun bu yerda ham kurash ketdi. Turkchilik, islomchilik, maxalliy o'zbekchilik kabilarning bu yerda ham maydonga kelishi bejiz emas. Aslida, bizning jadidlarda fikr va g'oya juda kuchli. Mana, masalan, Dukchi Eshonni oling. U kuch, zo'rlik bilan mustaqillikka erishish tarafdori. U ham jadid din islohotchisi. siyosiy kurashchi. Bir qator jadidlarimiz ongli suratda sovetlar bilai hamkorlik qildilar, kommunist bo'ldilar. Bu bilan ham hisoblashmoq kerak. Bu hol, ayniqsa, mustaqillik uchun olib borilgan kurashda yaqqol ko'rindi. Bu borada 3 yo'lni kuzatish mumkin:

1. Rossiyaga tobelikdan zo'rlik bilan qutulish, kuch bilan istiqloлга erishish (Dukchi Eshon ko'zg'oloni, 1916 yil mardikorlik harakati, istiqloлchilik harakatlari).

2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalasida haq-xuquq olish, milliy xususiyatlarni tiklash (I. Gaspirali, M. Behbudiy).

3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'murlari, so'ng esa Sho'ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlik ko'rib borish (Munavvar Qori. Hamza, Avloniy).<sup>6</sup>

---

<sup>6</sup> Бегали Қосимов «Миллий уйғониш» Т, «Шарк» 2000 й, 22 бет.

Jadidchilik Kavkaz, Volgabuyi, Turkiyadagi jadidchilikka nisbatan an'analarga ko'proq bog'lanib qolgan, umumevropa ijtimoiy-madaniy jarayoniga tortilish darajasi qiyinroq kechgan. Vatanimiz tarixida har bir yangilikning kirib kelish jarayoni g'oyat og'ir kechgan. Mana shu xil asliy xususiyatlarimizni anglash va anglatishda ziyolilar zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklatilgan edi. Tarix shunchaki xabardor bo'lish uchun o'rganib qo'yilmaydi. U oyna, ibrat, tarbiya vositasi bo'lmog'i kerak edi.

Ikkinchidan, birgina tarix bilan cheklanib bo'lmasdi, undan kelib chiqqan holda zamon extiyojiga javob bermoq lozim edi. Milliy mafkura konsepsiyasi millatning asliy xususiyatlaridan kelib chiqmog'i va uning tabiati, aqlu tafakkuri, ehtiyoj-zarurati, imkoniyati kabilarga mutanosib g'oyalar asosiga qurilmog'i lozim edi. Milliy ideallarimizni belgilash lozim edi. Unutilgan milliy qaxramonlarimizni, fan dohiylari, din dohiylari, harb dohiylarini, mashhuri jahon shoirlarimiz, ijodkorlarimizni tanish va tanitish kerak edi. Ular millatga xos aqlu zakovatini, sabru toqatni, g'ayrat-shijoatni, zavq-shavqini o'zlarida namoyon etgan edilar. Qadriyatlar (din-diyonat, urf-udum, marosimlar), tarix va tarixiy shaxslar. Ular ko'targan adolat bayrog'i millatni bir va bor qiladigan asosiy omillar edi<sup>7</sup>.

Jadidchilik, shunchaki bir ma'rifiy, madaniy harakatigina emas edi. Buni sovet siyosatchilari yaxshi bilar edilar. Shunchaki harakat bo'lganida ular qatag'on qilinmas edilar. Ularga «xalq dushmani», «Vatan xoini» degan tavqi la'natlar yopishtirilmas edi. Darvoqe, «haqqoniylik»ni da'vo qilib kelgan tarixchilarda ham buni payqash qiyin emas. A. V. Pyaskovskiy yozadi: «Shu vaqtdan (1905—1917-yillar ko'zda tutilmoqda ) e'tiboran Turkistonda «jadidchilik» deb tanilgan burjua-liberal, millatchilik harakati keng yoyila boshladi va usuli jadid maktablari ochish va targ'ib etish, madaniyatparvarlik singari dastlabki tor doirasidan chiqib, aniq ko'zga tashlanib turuvchi siyosiy ahamiyat kasb etdi»<sup>8</sup>. Darhaqiqat, jadidchilik siyosiy harakatlar bilan bog'lanmasligi mumkin emas edi. Masalani yaxshiroq tushunib olish uchun uning tarixiga yana

---

<sup>7</sup> Бегали Қосимов «Миллий уйғониш» Т, «Шарк» 2000 й, 25 бет.

<sup>8</sup> O'sha joyda.

bir bor ko'z tashlash ehtiyoji tug'iladi. Umuman, Rossiya istilosidan so'ng o'lkada ko'plab xalq g'alayonlari yuz berdi. Ularning aksariyati mustaqillik yo'lidagi urinishlar edi. Biroq tashkiliy jihati nochor bo'lib, ko'pincha diniy motivda kechdi. Umuman. o'z ko'lami va oqibatlari bilan butun Turkistonni larzaga solgan bu harakat va uning adabiyotdagi talqini tarixchilarimiz hamda adabiyotshunoslarimiz hamkorligida o'rganilishi zarur bo'lgan masalalardan. Asr boshidagi voqeyalar, rus-yapon urushidagi mag'lubiyat Rossiyani bo'xronga olib keldi. Ichki milliy nizolar, noroziliklar kuchaya boshladi. Lekin tobe millatlar o'z haq-xuquqlari uchun endi ilgariqday kurashish to'g'ri emasligini anglab yeta boshladilar. Turkistonda ham sekin-asta uyg'onish boshlandi. Rossiyada, xususan Kavkaz, Volgabo'yida yashovchi turkiy millatlar bilan yaqinlashishga, hamkorlikka intilish kuchaydi. Yangi g'oyalar kirib kela boshladi.

Turkchilik Turkiyada muayyan tashkiliy qurilishga ham ega edi. Jumladan, 1889 yil 21 mayda «Ittihad va taraqqiy» jamiyati tuzildi. Jamiyatning Turkiston siyosiy-madaniy hayotiga ham sezilarli ta'siri bo'lgan. Jamiyat yashirin, inqilobiy karakterda bo'lib, Sulton Abdulhamidning feodal mustabid siyosatiga qarshi turgan, G'arbda «Yosh turklar» deb nom olgan taraqqiyparvar yoshlarni o'z atrofiga uyushtirgan edi. Uning tartib-nizomida, ish usulida Yevropaning ta'siri sezilib turardi.

Abdulla Avloniyning tarjimai holiga etibor qilinsa, uning 1904 yillardan qandaydir uyushmalarda ishtirok etganligi ma'lum bo'ladi. «1904 yildan jadidchilar to'dasida ishlay boshladim, — deb yozadi u — ... o'z oramizdan mullalarga qarshi uyushmamiz ham vujudga chiqdi... rus-yapon urushi chiqib, bizning ham ko'zimiz ochildi...»<sup>9</sup>

Jadidlar sotsializm g'oyalaridan bexabar edilar yoxud uni ko'r-ko'rona rad etadilar deyish mumkin emas. Ismoilbekning 1885 yilda Turkiyada chop etilgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozanat (betarafona nazar)»<sup>2</sup> nomli risolasi, ayniqsa, «Tarjimon» gazetasining 1906 yilda iyun-iyul oylarida

bosilib chiqqan «Mazhabi ishtirokiyun» («Sotsializm ta'limoti») turkum maqolalari bunga dalil.

Jadidlar fan-texnikasi bilan dunyoni hayratga solgan kapitalistik Yevropani ham, jannat va'da etuvchi sotsialistik Yevropani ham rad etadi. Har ikkisida ham axloqsizlik ko'radi. Buni atroflicha asoslaydi. Muallifning fikrlash mantig'i quyidagicha: XIX asr Yevropa madaniyati qadim Rim madaniyati ustiga qurilgan, uning bevosita davomidir. Rim madaniyati esa g'ayri ahloqiyliigi sababli qulagan edi. Ularning o'rniga kelgan «kapitalist»-chi? Bu xaqda M. Behbudiy fikrlari quyidagicha, Masalan, «Turkiston obod bo'ldi. Ilgari boy kam edi, millioner yo'q edi...» deydilar. 6 mln Turkistonli orasida 3 millioner bor. Ularni ,ham millioner deb bo'larmikin?! Katta imoratlar hammasi yaxudiyarlarniki, ovruopolilarniki. Turkistonlilar sinmoqda... vaqflar ketgan, madrasalar harob... Kelajagi yo'q.<sup>10</sup>

Behbudiy, millat orasida chuqur tomir otgan «g'araz, nafsoniy hasad, baxs va munozarai shaxsiyatlarni tark etmoq»qa, «shu maslak va shu jamiyatga tobe' va xodim bo'lmoq»<sup>11</sup>qa chaqiradi. Din va davlatga, Vatan va Millatga xizmat etmoqni sharaf hisoblaydi. 1917 yilda esa, biz Abdurauf Fitratnng Oktyabr voqyeasi munosabati bilan, «Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi. Bolshevik balosi!...» degan keskin fikrini bilamiz. So'ng 1919 yilda «kommunist» Abdulla Avloniy butun Turkistonni «fano va ayanch xol»ga solgan, «har yerda ish boshinda o'lturg'on», «o'zlari oshalab, biz musulmonlarga yalatu»v» bilangina kifoyalangan «rus tovarishlarimiz»<sup>12</sup> haqida yozdi... ularni keskin qoralaydi. Xullas, jadidlarning ma'rifatparvar ziyolilari, fidoiylari millatni ilmi, siyosiy sergak bo'lishga, milliy jihatdan uyg'onishga chorlaydi.

Turkistonda bu harakatning ko'zga ko'ringan vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla, Asadullaxo'jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Toshpo'latbek Norbutayev, Xoji Muin, Abduqodir Shakuriy, Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayev, Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy,

---

<sup>10</sup> Алимova Д. Жадиdчилик Хараkатининг ижтимоий-сиёсий моxияти ва жадиdлар тафаkкури. // Жадиdчилик: ислохот, янгиланиш, мустакиллик ва тараkкиёт учун кураш. - Т., 1999. Б. 36.

<sup>11</sup> Ўша жойда.

<sup>12</sup> Абдулла Авлоний. Танланган асарлар, 2-жнлд. Т., "Маънавият". 1998 й,

Eshonxo'ja Xonxo'jayev, Is'hoqxon to'ra Ibrat; Buxoroda - Sadridin Ayniy, Fayzullo Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Muso Saidjonov, Abdulvohid Burxonov, Usmon Xo'jayev, Mirkomil Burxonov, Muhitdin Mansurov, Muxtor Saidjonov, Abduqodir Muhitdinov va boshqalar; Xivada - Boboqun Salimov, Polvonniyoz Xoji Yusupov, Avaz O'tar, Husayn Matmurodov, Nazir Sholiqorov, Otajon Abdalov, Xudoybergan Devonov, Muhammad Rasul Mirzo, Otajon Sadayev, Bekjon Raximov, Muhammad Devonzoda va boshqalar nomlarini alohida tilga olish zarur. Bular nafaqat halq ommasining ma'rifatli qilishga balki, mustaqillik g'oyalarini shakllantirishda ham katta hissa qo'shdilar.

Jadidchilik asta-sekin rivojlanib borgan. Ma'rifatparvarlik g'oyasidan boshlangan bu harakat, keng quloq yozib borgan. Ma'rifatparvarlik bilan birgalikda, jadidlar eski ijtimoiy va siyosiy tizim taraqqiyotning ilg'or shakliga o'zgartirishga intilganlar. Lekin bu harakatning ikkinchi bosqichi edi, biz bu haqda keyinroq fikr yuritamiz. Ma'rifatparvarlik bosqichida, jadidlar o'zlarining asosiy vazifasi sifatida yangi tizimdagi ta'limni yaratishni ko'rdilar va bor kuchlarini shu islohotni amalga oshirishga sarfladilar. Ma'orif sohasidagi olib borilgan o'zgarishlar to'g'risida keyinroq batafsil so'z yuritamiz.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda «Jadidlar rahbari» deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo'ldi. Jadidlar tarkibini yosh jihatdan tahlil qilish natijasida, jadidlar Turkistonning bo'lg'usi davlat qurilishi dasturlarida, haqiqatan ham, yoshlar dunyoqarashi o'z aksini topganligiga ishonch hosil qilamiz. 1910 yilda jadidlar safini asosan 19 yoshdan 36 yoshda bo'gan bo'lsa, keyinchalik yoshlarning sevimli shoiriga aylangan Cho'lpon, endigina 13 yoshda edi. Ularning xech birlari, siyosiy ta'qiblar tufayli keksalik yoshigacha etib yashamaganlar.

Jadidchilik Markaziy Osiyoda va Yevropadagi ilg'or islohatlar oqimi ta'siri ostida, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga keldi va ijtimoiy taraqqiyotda burilish bosqichini belgilab berdi. Milliy ziyolilar, ilg'or taraqqiyparvar kuchlar mustamlaka Turkiston, Rossiyaga yarim qarash bo'lgan Buxoro va Xiva xonliklaridagi inqirozli ahvol, bu o'lkalarning umumjahon

tarqqaqiyotdan tobora ortda qolayotgani, mahalliy aholining erk uchun intilishlarining bostirilish sabablarini, nafaqat iqtisodiy sohada, balki diniy, ma'naviy sohada ham yuzaga kelgan turg'unlikni chuqur anglab etdilar va bu ular ongida jamiyatni isloh etish g'oyalarini uyg'otdiki, busiz taraqqiyotni tasavvur etib ham bo'lmasdi.

Vatanimizdagi bu islohatchilik harakati murakkab, tarixiy jihatdan serqirra yo'lni bosib o'tdi. Jadidchilik turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohatlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasini tanlab olib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi, ayni paytda, ijtimoiy taraqqiyot haqidagi turli qarashlarning to'qnashuv maydoni ham bo'ldi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi, ana shu murakkab yo'lda shakllanib yetildiki, bu g'oyani biz bugungi kunda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning g'oyaviy nishonasi, keng miqyosdagi islohatlarning nasliy asosi sifatida baholashimiz mumkin.

Markaziy Osiyoda jadidchilik serqirra bo'lib, uning Turkiston, Buxoro, Xiva jadidchiligiga bo'lish lozim. Xususan Buxoro va Xiva jadidchilik o'ziga xos rivojlanib bu shu hudud aholisining (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy xolati bilan bog'liq edi). Jadidchilikning asosiy yo'nalishi bo'lib oqimlaridan biri - Buxoro jadidchiligi bo'lgan. Buxoro jadidchiligi o'z xususiyatlari va jamiyatning ahloqiy ahvoli bilan bog'liq edi. O'ziga xos tarzda ajralib turadigan va murakkab shaxs bo'lgan Fayzulla Xo'jayev, uning maslakdoshlari Buxoro jadidchiligida markaziy o'rin tutdilar.

F.Xo'jayevning Buxoroda jadidchilikning yuzaga kelishiga xonlikning iqtisodiy negizi, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'lib turgan «g'ayri tabiiy va dahshatli tartibsizliklar» sabab bo'lgan, degan fikrni inkor yetish qiyin. Ayni paytda, muallif Buxoro O'rta Osiyoning qoq o'rtasi, qadimiy savdo yo'llarining markazida joylashganligini, aholining asosiy qismi savodsiz bo'lsa-da yuksak arab-fors madaniyatining izlari har qadamda uchrab turganini yaxshi tushunib yetgan. Ana shu sharoit va qadimdan zulm asosida hukm surib kelgan, siyosiy maqsadlarni ko'zlab rus nayzalari bilan qo'riqlangan Buxoro amirligi - jadidchilik Vatani bo'ldi. F.Xo'jayevning fikricha «O'rta Osiyoni banklar, dehqonlardan xom

ashyo sotib oluvchi savdo idoralari bilan qoplab olgan va O'rta Osiyoga o'z manufakturasi, boshqa fabrikantlarni keltirayotgan rus kapitalizmi «tobora kuchayib, jamiyatning ilg'or qismini o'ylantirib qo'ydi, jadidchilikka sabab bo'ldi». Buxorodagi mavjud boshqaruv tizimi va iqtisodda yuz bergan o'zgarishlar jamiyatning tadbirkor savdogar qismini og'ir ahvolga solib qo'ydi. Shu tufayli, «jadidchilik savdogarlar sinfining ilg'or qismi manfaatini ifoda etgan».

F.Xo'jayevning fikricha, jadidchilik Turkistonga qaraganda, Buxoroda kechroq yuzaga kelgan bo'lsa-da, jamoat hayotidagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi va bu harakat 1915 yildan boshlab madaniyatdan siyosatga qarab yo'l tutdi. Shunday qilib, «jadidlarning eng ilg'or qismining programma maksimumida asosiy o'rin tutgan g'oya, Buxoroda g'arb namunasidagi kapitalizm va demokratiyani rivojlantirish edi».

Buxoro amirligida jadidlar ikki oqimga - eskicha fikrlaydiganlar va Fitrat boshchiligidagi yoshlarga ajraldi. Natijada, o'zaro kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan birlik yuzaga keldi. Bu holat esa kelishib olinmagan harakatlarga sabab bo'ldi.

Xiva xonligida ham jadidchilik XX asr boshlarida bir muncha tarixiy sharoitlarda yuzaga keldi. Xonlikda jadidchilik harakati ikki yo'nalishda mavjud edi. Uning o'ng oqimi o'ziga savdo - sanoat korxonalarini egalari va yirik mulkdorlarni birlashtirdi. Bu oqimni Asfandiyorxonning bosh vaziri bo'lgan - Islom Xo'ja boshqargan. Ularning maqsadi, xonlik hokimiyatini saqlagan holda, ijtimoiy - iqtisodiy islohatlar o'tkazgan holda bozor munosabatlarini rivojlantirish edi. Xiva jadidchiligining chap oqimiga mayda burjuaziya vakillari, hunarmandlar, ulamolar va aholining o'rta qatlami kirgan. Bu oqimning rahbari Xiva xonligi shayxul - islomi, qozi kalon Boboxun Salimov edi. Lekin Birinchi jahon urushiga qadar Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo'lmagan.

Buxorodagi jadidchilik harakati natijasida «yosh buxoroliklar» partiyasi tuzilgan bo'lsa, o'z navbatida Xivada jadidchilikning chap oqimidan «yosh xivaliklar» partiyasi tuzilib, uni Polvonniyoz Xoji Yusupov boshqaradi. Partiya o'z

dasturiga ega bo'lib, unga ko'ra Xivada konstitutsion monarxiyani o'rnatib, va unda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish lozim yedi.

Tarixning ko'rsatishicha, jadidchilik harakatida orqaga yo'l yo'q edi: u ma'rifatchilik va tor doiradagi madaniylashtirishdan ish boshlab, siyosiy harakatga aylandi, o'z oldiga jamiyat va uni boshqarishni qayta qurishdek vazifalarni qo'ydi. Shunday qilib, jadidchilik fenomeni shundaki, keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo'lib, milliy davlatchilik qurishga urundi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va u milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi, uyqudagi Sharqni uyg'onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g'urur, o'z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va umuman, mustamlaka tuzumning tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarni xotirlashga undadi. Jadidlar ta'limoti - o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o'z ketidan yergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo'ldi. Jadidlar tomonidan pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni evolyutsion - islohatchilik tomoyillari asosida hal etishning ishlab chiqilganligi, ularning formatsion - institutsional o'zgartirishlari, mustamlaka tuzumni tubdan yo'qotishning maksimal darajada samarali yo'llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir. Jadidlarning konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohatlar kursining genetik asosi bo'lib xizmat qiladi.

## **I.2.Turkiston o'lkasi xalqlarining ongi va dunyoqarashini rivojlantirishda maorifni isloh etish masalalari.**

Jadidchilik harakatining eng muhim tomonlaridan biri ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, bu g'oyalar o'qish va o'qitish usullariga isloh kiritish – yangi usul maktablarini tashkil etish, o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G'arb tillarini o'rgatish, darsliklar yaratishda, ayniqsa, yorqin ko'rinadi. Ular yangi tashkil etilgan maorif tizimi orqali shakllanib kelayotgan yoshlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishga intilganlar. Yangi usul maktablari

Turkistonda jadid ma’rifatchiligining dastlabki qadami bo’lishi bilan birga to bu harakat siyosiy tus olguncha, ahamiyatini yo’qotmadi.

XIX asr o’rtalarida O’rta Osiyo xalqlari ta’lim tizimi o’zining o’rta asrlardagi shakli va faoliyat xususiyatini saqlab qolgan maktab, madrasa, qorixona, daloilxona va otin-bibilar uylarida faoliyat yurituvchi qizlar maktablaridan iborat edi.

Maktablarda o’quvchilar avval alifboni va o’qishni o’rganib, so’ng fors tilida Qur’onning yettidan bir qismi ma’nosini anglatuvchi “Haftiyak”ni o’qishga kirishishgan. Undan keyin, Qur’on suralari “Allamnashroh” ni – yodlashlari bilan o’quvchilar savodli hisoblangan. O’qish va yozishni o’rgangan o’quvchilar “Dahrul najot”, “Nasoyihul - atfol”, shariat asoslari bayon etilgan “Chor Kitob” kabi o’quv qo’llanmalar hamda Navoiy, Fuzuliy, She’roziy, Attor, Bedil, Mashrab va boshqalarning asarlarini o’rganishgan<sup>13</sup>.

XIX asr 80-yillarida Turkistonni Sirdaryo, Farg’ona va Samarqand viloyatlarida 5 mingdan kam bo’lmagan musulmon maktablari faoliyat yuritib, ularda 46 ming atrofida o’quvchilar tahsil olgan<sup>14</sup>. 1907 yilda ular soni 7000, o’quvchilar soni 70000 deb keltiriladi.<sup>15</sup> 1916 yilda ular soni 7650 ta bo’lib, o’quvchilar soni 110000 nafarga teng edi.

Akademik A.Middendorf musulmon aholisi ommaviy savodxonligini yuqori baholagan. Biroq boshqa mustamlaka davr rus mualliflari, A.Middendorf fikrlariga zid ma’lumot yozib qoldirishgan. Tadqiqotchi P.G.Kim bu borada dalillarni asossiz ekanligini ko’rsatib, aholi savodxonligini haqli ravishda 19-24 % deb belgilaydi<sup>16</sup>.

Qizlar uchun maktablar odatda otinbibilar uyida joylashgan. Unda o’quvchilar soni o’g’il bolalar maktablaridagiga nisbatan kam edi. Otinbibi maktabida din peshvolari, yirik va o’rtahol savdogarlar qizlari ko’pchilik bo’lib,

---

<sup>13</sup> Салижанова Г.Ф. Учебно-просветительские очаги в Туркестане, их общественное значение (конец XIX – начало XX вв.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1998. С. 22.

<sup>14</sup> Махкамова Н. К вопросу об уровне просвещенности и культурного развития среднеазиатских государств XIX – начале XX века // *Ўзбекистон тарихи*, 2000. – №1-2. – С. 17.

<sup>15</sup> Остроумов Н.П. Народное образование. Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае. Т., 1889 // *Туркестанский сборник*. Т. 418. – С. 63.

<sup>16</sup> Қаранг: Ким П.Г. Уйдирма ва ҳақиқат // *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*. – 1989 йил 29 октябрь.

ushbu maktablarda asosan fors-tojik va turkiy tillaridagi asarlar asosida “Ta’limi banot”, “Muosharat odobi”, “Tarbiyali xotun” va boshqa sharq axloqiy madaniyatini o’z ichiga oluvchi fanlar o’qitilgan<sup>17</sup>.

O’rta Osiyodagi madrasalar ta’minoti vaqf mulklari hisobidan amalga oshirilib, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi bilan madrasalar imperiya ma’muriyati nazorati va boshqaruviga o’tgan. O’quv fanlar asosini islom huquqshunosligi, arab tili grammatikasi tashkil qilgan<sup>18</sup>. Shu bilan birga, falsafa, geometriya, matematika, geografiya, tibbiyot, kimyo kabi fanlar ham o’qitilgan<sup>19</sup>.

Madrasada o’qitilayotgan fanlar uch bosqichga: adno (quyi), avsat (o’rta), a’lo (yuqori) ga ajratilgan. O’quv adabiyotlari islom olamining ko’p asrlik madaniyatini o’zida aks ettirgan<sup>20</sup>.

XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda 400 ga yaqin madrasa mavjud edi<sup>21</sup>. Jumladan, 1902 yilda Kaspiyorti viloyatida 13 ta madrasa bo’lgan. 1911 yilda esa Sirdaryo, Farg’ona va Samarqand viloyatlarida ularning soni 328 tani tashkil etga.

Qorixonaga maktabni tugatgan 10 yoshdan katta o’g’il bolalar o’qishga qabul qilingan. U yerda Qur’on suralari yodlatilgan<sup>22</sup>. 1892 yilda Farg’ona viloyatida qorixonalar soni 252 ta, 1897 yilda 341 ta, 1899 yilda Samarqand, Farg’ona va Sirdaryo viloyatlarida 333 ta bo’lgan<sup>23</sup>.

Daloilxonada yoshi katta o’quvchilar domla boshchiligida, arab tilida yozilgan “Daloilil-hayrot” – Muxammad payg’ambar haqidagi rivoyatlar va diniy qasidalarni yod olganlar. “Daloilil-hayrot” XV asrda tuzilgan. Uning matnlari hafta kunlariga moslashtirilgan holda yod olishga mo’ljallangan. XX asr

---

<sup>17</sup> Назимов А. Қизлар тарбияси. – Тошкент: Камалак, 1994. – Б. 64; Олимат ул-банот. Муошарат одоби. – Тошкент: Мехнат, 1997. – Б. 32.

<sup>18</sup> Махкамова Н.Р. Социально-нравственные и духовные процессы в Узбекистанском обществе конца XIX – начала XX вв. // Общественное мнение. Права человека. – Тошкент, 2001, №2(14). – С. 85-91.

<sup>19</sup> Шамсутдинов Р., Расулов Б. Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи. – Андижон: Мерос, 1994. – Б. 60.

<sup>20</sup> Бендриков К.Е. “Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924гг.)” асариди “Шамсия” (формал мантик китоби) ва унга шархлар XIII асрда, “Ақоид” – мусулмон дин ақидаларини баён этувчи китоб XII асрда, “Мантик Таҳзиб” – мазмунида юнон фалсафасининг арабча талқинини ўзида мужассам этувчи диалектика китоби - XVI асрда, Шариат – Қуръон ва муқаддас ривоятлар асосида баён қилинган диний, фуқаролик, жиноий ва бошқа давлат, жамият қонун қоидалари ҳамда хусусий ахлоқ нормалари тўплами VIII – IX асрларда тuzилганлиги келтириб ўтади.

<sup>21</sup> Муминов И.М. Избранные произведения в 4-х томах. – Ташкент, 1976, Т.2. – С. 37.

<sup>22</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11-жилд. – Тошкент: Давлат миллий нашриёти, 2005. – Б. 110.

<sup>23</sup> Айтмамбетов Д.А. Дореволюционные школы в Киргизии. – Фрунзе: Илим, 1961. – С. 35.

boshlarida o'lkada jami 10 ga yaqin daloilxona bo'lib, ularda 100 ga yaqin o'quvchilar tahsil olgan.

Eski usul talim tizimi bilan birga Turkiston ziyolilari yani jadidlar tomonidan yangi usul jadid maktablarini xam ochdilar va keng miqyosda talim sohasida faoliyat olib borar edi. Bunga dastlabki qadamni Ismoil Gaspirali qo'ydi. Ismoil Gasprali 1893 yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo'ldi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga «Muzaffariya» nomi beriladi. 1898 yilda To'qmoqda (Qirg'iziston) xam shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo'qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik xarakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari aloxida e'tiborga molikdir.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.
3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod

chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forsha, turkiy tilda bemalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906 yilgi Rossiyadagi inqilobiy xarakatlar Turkistonga xam o'z ta'sirini ko'rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma'rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro'znomalarning ko'plab vujudga kelishida xam ko'rindi.

Jadid taraqqiyparvarlari tomonidan o'lkada tashkil etilgan yangi usul maktablari eski maktablardan keskin farq qilib, ularning darsxonalarida parta, doska, stol va stullar mavjud bo'lgan. Mazkur maktablar o'qitish uslublari bilan farqlanib, ularda "usuli savtiya" usulidan, ya'ni tovush usulidan foydalanilar, ularda o'qish va yozish qo'shib o'rgatilar edi. Shuningdek, yangi maktablarda arifmetika, tabiatshunoslik, geografiya, grammatika kabi fanlar arab va fors tili yangicha darsliklar qo'llanib, diniy ta'lim bilan bir qatorda o'qitila boshlagan.

1903 yilda Samarqand uyezdi Jomboy qishlog'ida Abdushukurov va Jo'raboyev yangi usuldagi maktab ochadilar. Abdushukurov maktabida 117, Jo'raboyev maktabida 48 nafar o'quvchi ta'lim olar edi. Ushbu maktablarda muallimlar mullalardan iborat bo'lib, ular diniy ilmlar, arab va fors tilidan, rus-tuzem maktablarini bitirgan muallimlar arifmetika, geografiya va rus tilidan dars berardilar. Yangi usul maktablarida o'quvchilar ma'lum bir mablag' hisobiga o'qir edilar. Masalan, Farg'ona viloyatidagi maktablarda o'quvchilar oyiga 50 tiyindan 1r. 50 t. to'lardilar, kambag'al oiladan bo'lganlar esa ko'pincha to'lovdan ozod qilinardi.

Jadid matbuoti sahifalaridagi "usuli jadid" maktablari haqidagi ma'lumotlar XX asr Turkiston jamiyati uchun yangilik bo'lgan ushbu maktablarning jamiyat tomonidan qabul qilinishi murakkab bir vaziyatda kechganligini ko'rsatadi. Chunki, asrlar bo'yi an'anaviy maktab va madrasalarda tahsil olgan kishilar zamon ruhini jadid taraqqiyparvarlari kabi anglab yetmagan

edilar. Shuning uchun ham gazeta sahifalaridan turib, Rahmatullo Rahim “Buzuq maktab bolasi usuli jadida” maqolasida “usuli jadida” maktabi buzuq maktab, deb haqorat qiladi. Bu maktabning asoschilari Behbudiy va Shakuriylarni nodonlikda, bilimsizlikda ayblaydi.

1908 yil 30 yanvarda “Turkiston viloyatining gazetisi”da yozilishicha, “Usuli jadid degan qayerdan chiqdi. Bu nechuk. Masalan, ota-bobolarimiz usuli qadim ila o’qub mullo bo’lg’onlar. Va biz ham usuli qadim o’qub bir nima bilib edik. Usuli jadid degan bir tariqa bid’atdirki, yaqin fursatda chiqmishdir”. Jadid taraqqiyparvarlari jadid maktablarini himoya qilib, o’z navbatida xalqqa bu maktabning ahamiyatini anglatishga harakat qilgan edi. Xususan, Behbudiy “Turkiston viloyatining gazetisi” sahifalarida chop etilgan bunday fikrlarga o’z vaqtida javob qaytardi. U usuli jadid maktablari “durust bo’lsa, rivoj bersunlar, nodurust bo’lsa, dalil ila isbot qilsinlar. Ko’r- ko’rona tosh oturlar... Hovlimizga maktab ochsak, biz ma’lum avlodi musulmonga imon, islom, qiroat, tajvid, amaliyot, hisob, jug’rofiya, tarix va boshqa kerakli narsalarni ta’lim bersak, bid’at, zalolat bo’lurmish ”, deb yozar ekan, ularni maktablar ishini ertadan-kechgacha kuzatishni va undan keyin bu haqda bahs etishni taklif etgan holda bu faqat foydadan xoli bo’lmasligini ta’kidlagan edi.

Ushbu gazetaning 1908 yil 20 may sonida Imomali Bo’ronov redaksiyaga xat yozib, ba’zi kishilar usuli jadid maktablarining qanday maktab ekanligini tushunmagani sababli ularni yopish to’g’risida fikr bildirayotganini bayon qilib, shuning uchun “Usuli jadid nadur?” degan savolga javob berishga harakat qilgan edi. Mazkur muallifning fikricha, usuli jadida-yangi usul demakdur, yangi usul deganda e’tiqod va ibodatda yangilik emas, balki murakkab ahvolga tushib qolgan maktab va madrasalarni isloh qilishdir, shuningdek mudarrislarining umri zoye ketmasin, deb oz vaqtda ko’p bilim berishga harakat qilish demakdir. Muallif “usuli savtiya” to’g’risida ham ma’lumot berar ekan, dunyoning barcha millatlari bu usuldan foydalanishi mumkinligi va bu o’qitishning qulay usuli ekanligini tushuntirib beradi. Maqolada bu masala yuzasidan mahalliy aholi

yakdil fikrda bo'lmagan, ikki tarafda tursa, qanday uyg'onishi mumkin, degan savol qo'yiladi.

Ammo, yangi usul maktab tarafdorlari "jadidlar" bilan eskilik tarafdorlari bo'lgan "qadimchilar" o'rtasidagi kurash davom etaverdi. Bunga misol qilib, Is'hoqxon Ibrat va Mulla Husanxo'ja o'rtasida kechgan munozarani olish mumkin. 1907 yilda Ibrat Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li taklifiga binoan Toshkentga kelgan hamda shahardagi usuli jadid va usuli qadim maktablari, shu jumladan Mulla Husanxo'ja domla maktabi faoliyati bilan yaqindan tanishgan. Bu domla 1907 yilda o'z maktabini yuzaki ravishda isloh qilib, jadid maktabi deb e'lon qilib, aslida esa maktabda eskicha usulda o'qitilar va kitoblar ham zamon talablariga javob bermaydigan kitoblardan iborat edi.

"Qadimchilar" yangi usul maktablarida forsiy va turkiy tillarda kitoblar o'qitilishiga qarshi chiqib, bunday kitoblarni jadidlar o'quv dasturiga kiritganini tanqid qilgan edi. Mazkur fikrlarga javoban, Behbudiy ta'kidlashicha, bu tillarda kitob o'qishni jadidlar kiritmadi, aksincha qadimdan bu o'lkada yashovchi xalqlar forsiy va turkiy tillarda kitoblarni mutolaa qilishgan. Xususan, Fuzuliy, Navoiy, Sa'diy, Hofiz, Bedil kabi shoirlar forsiy yoki turkiy tilda ijod qilishgan.

Bu davrda matbuot sahifalarida yangi maktablarning faoliyatidagi kamchiliklar ham ro'y - rost aytilgan. 1909 yilning 10 sentyabrida jadid matbuoti sahifalarida chop etilgan "Samarqanddan maktub" maqolasida muallif ta'kidlashicha, bir shaharda uchta yangi maktab bo'lsa, ularning barchasi alohida usul bilan, bir maromnomaga asoslanmagan holda ish olib borayotgan edi. Muallifning fikricha, agar Turkistondagi taxminan 50ta yangi maktab alohida dasturlar bo'yicha dars olib borsalar, ularning zarari eski maktablarnikidan ham kuchli bo'ladi.

Behbudiy jadid maktablarining shu davrdagi ahvoli, ayniqsa ularning o'quv dasturi qoniqish talabga javob bermasligidan qattiq iztirob chekkan edi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1907 yilda Andijon, Marg'ilon, Qo'qon, Xo'jandga borib, usuli jadid maktablarining ahvoli bilan tanishgani, ularning hych biriga geografiya va tarix fanlari kiritilmaganligini afsus bilan ta'kidlagan. Qo'qondagi

maktabda esa uning muallimi Mulla Salohiddin geografiya, hisob, handasa va rus tilidan xabardor bo'lsada, lekin maktabda faqat tajviddan boshqa fan o'qitilmayotganini yozgan. Shunga qaramay, Behbudiy yozganlaridan ko'rinadiki, jadid maktablari "ilm diniy va olami zamoniy" ni o'zida mujassamlashtirishga harakat qilgan. Farg'ona viloyatidagi yangi usul maktablarida 1913 yildan boshlab tabiatshunoslik va geografiya fanlari kiritilgan edi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, jadid tarqqiyparvarlari yangi usul maktablarini tashkil etishda nafaqat mahalliy mutasiib kuchlar tomonidan, balki hukumat tomonidan ham qattiq qarshilikka uchragan edilar. Rossiya imperiyasi hukumati o'lkada yangi usul maktablarining xalq orasida obro'si oshib ketayotganidan qattiq xavotirga tushgan edi. 1909 yilda Farg'ona viloyati o'quv yurtlari inspektori O.Yegorov Turkistondagi rus-tuzem maktablarining ahvoliga bag'ishlangan maxsus kengashda bu haqda shunday degan edi: "Yaqin kelajakda yangi usuldagi maktablarning keng yoyilishi va ularga nisbatan mahalliy aholi e'tiborining keskin ortib borishi bilan rus-tuzem maktablari batamom xarob bo'ladi".<sup>24</sup> Usuli savtiya maktablarining ochilishini Rossiya imperiyasi hukumati qattiq nazorat ostiga oladi. 1909 yilda Turkiston o'quv okrugi qoshida maxsus komissiya ishlab chiqqan "Farmoyish"ga ko'ra, bunday maktablar ochish uchun maxsus ruxsatnoma olinishi kerak edi, uni ochish va unda o'qitish ishlari faqat siyosiy jihatdan ishonchli bo'lgan kishilargagina berilgan hamda qaysi millat bolalari uchun ochilgan bo'lsa, uning muallimlari faqat o'sha millatga mansub bo'lishlari lozim edi. Bundan tashqari, mazkur maktablarda faqat Rossiyada senzura ruxsati bilan chop etilgan kitoblar asosida o'qitish mumkin edi. Bu bilan maktablarda foydalanilayotgan Turkiyada chiqqan darsliklardan foydalanish ma'n qilingandi. Shuningdek, bu maktablar ro'yxatga olib borilgan va ro'yxatdan o'tmagan maktablarning faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmagan.<sup>25</sup> Farmoyishda o'quvchilar qaysi millatga mansub bo'lsa, muallim ham shu millatdan bo'lishi kerak, deb ta'kidlanishidan maqsad tatarlar tomonidan ochilgan maktablarni yopib

---

<sup>24</sup> Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). – Ташкент: Фан, 1997. – С. 167.

<sup>25</sup> Ўша жойда

tashlash edi va shunday qilinishi tufayli yangi maktablar soni anchaga qisqarib ketgan.

1915 yil 5 va 8 noyabrda Chor xukumatining bosh gazetasi “Turkiston viloyati” gazetasida rus - tuzem maktablari va yangi usul maktablarining o’quv dasturlari taqqoslab ko’rsatib berilgan.<sup>26</sup> Bu bilan gazeta “ushbu ikki xil maktablarning ta’limi xususida musulmon bolalarning otalari to’g’ri va ravshanroq bilmaydur va ham o’zlarining bolalarni qaysi tariqada maktabga ta’lim chun bermoq kerak deb yaxshi bilmaydurlar”,<sup>27</sup> deb ota -onalarga “to’g’ri” ko’rsatma berishni maqsad qilgan va rus-tuzem maktablarining ustunligini ko’rsatmoqchi bo’lgan. Bu ikki maktabda ham o’qish muddati 6 yil bo’lib, shundan 4 yili ibtidoiy sinflarda va ikki yili rashidiya sinflarida o’qishni tashkil etishiga alohida urg’u berilgan. Gazeta o’z tarafidan “sartiya xalqining bolalariga rus-tuzem maktabi o’ng’ayroq bo’lsa kerak, zeroki rus-tuzem maktablarida ta’lim beriladurgan til toza sartiya tilidir va ham har xil ilmdin ul darajada Rusiya zabonining o’qishi va bilishidir” deb, mahalliy aholiga bolalarini rus-tuzem maktablariga berishni “maslahat” beradi. Unda aytilishicha, rus-tuzem maktablarida o’qigan o’quvchilarga yetarli darajada diniy bilimlar ham beriladi. Agar diniy bilimlarni ko’proq bilishni xohlasa, unda o’zi mustaqil ravishda kitoblardan o’qib olishi mumkin, aksincha rus tilini bilmasa, dunyoviy ilmlarni ko’paytirishga qodir bo’lmaydi<sup>28</sup>, ya’ni go’yoki o’zlarini xalq g’amxo’ri va jonkuyari qilib ko’rsatishadi.

Shu bilan birga Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida o’lkada musulmon ta’lim muassasalarini isloh etish va yangi turdagi rus ta’lim tizimini yaratish bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich (1867-1883 yy.) da imperiya ma’muriyati o’lkadagi rusiyzabon va mahalliy aholi bolalari uchun maktablar tashkil etgan. Ikkinchi bosqich (1884 yildan – XX asr boshi) da qisman mahalliy aholi e’tiborini qozona olgan rus-tuzem maktablari tashkil etilib, ta’lim

---

<sup>26</sup> Сравнение программ русско-туземных школ и новометодных мактабов. // Туркистон вилоятининг газети. 1915, №84,85.

<sup>27</sup> Ўша жойда.

<sup>28</sup> Сравнение программ русско-туземных школ и новометодных мактабов. // Туркистон вилоятининг газети. 1915, №85.

usullari tub yerli aholi ta'lim an'alariga yaqinlashtirildi. Shu bilan birga, o'rta ta'lim va kasb-hunar ta'limi muassasalari tashkil etildi. Uchinchi bosqich (XX asr boshidan – 1917 yilgacha) da esa rus-tuzem va o'rta ta'lim muassasalari soni oshdi, milliy ziyolilar tashkil etgan “yangi usul” maktablar mustamlakachilik siyosatiga zid deb topilib, imperiya hukumati tomonidan siquvga olindi hamda mahalliy va rus ma'rifatparvarlari tomonidan o'lkada ta'limni keng miqyosdagi isloh etish, o'qitish usullarini zamonaviylashtirishga qaratilgan loyiha va takliflar e'tiborsiz qoldirildi.

O'lka ma'muriyati tashkil etiluvchi rus maktablari oldida ikkita vazifa quygan: 1) mahalliy aholi diniy qadriyatlarini kamsitmagan holda ta'limni Rossiya imperiyasi manfaatiga mos ravishda rivojlantirish, 2) mahalliy aholini rus monarxiyasi davlatchiligi asoslariga moslashtirish.

1875 yilda tashkil etilgan o'quv ishlari bosh boshqarmasiga rus va mahalliy aholi ta'lim muassasalari ham bo'ysundirildi. Biroq K.P.Kaufman davrida mahalliy maktablar nafaqat e'tiborsiz qoldirildi, balki hukumat moliyaviy madadisiz barbod bo'lishi rejalashtirilgan edi.

XIX asr 80-yillar boshida rus maktablarida o'qiyotgan mahalliy aholi bolalari soni kam edi. 1887 yil N.O.Rozenbax Maorif vazirligiga murojaat qilib, o'lka mustamlaka ma'muriyatining mahalliy ta'lim maskanlariga nisbatan “mensimaslik” siyosati samarasizligi, ta'lim siyosatidan ko'zlangan strategik maqsadlar ro'yobga chiqmayotganligi tufayli Turkistonda Rossiya imperiyasi ta'lim siyosati yangi yo'nalish olishi kerakligini ta'kidlaydi. Natijada 1884 yildan rus-tuzem maktablari tashkil etildi va 1890 yili musulmon maktablarini nazorat qiluvchi maxsus uchinchi inspektor lavozimi joriy etildi. 1890-93 o'quv yillari davomida bu lavozimda ishlagan V.P.Nalivkin musulmon ta'lim maskanlarini isloh qilish, ularni o'qitish usul va dasturlariga rus tili va madaniyatini kiritish orqali ta'limdan ko'zlangan maqsadlarga erishish takliflarini kiritgan. Biroq bu takliflar musulmonchilik nuqtai nazaridan, “odobdan tashqari, qaltis va hatto noqonuniy”<sup>29</sup> deb baholangan.

---

<sup>29</sup> Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917). – Ташкент: Фан, 1997. – С. 167.

XIX asr oxirlarida imperiya hukumati o'lkalari ijtimoiy-ma'naviy hayotida dinning katta ahamiyatga egaligini to'g'ri baholagan holda mintaqada o'zining hukmronlik mavqeyini mustahkamlashning yangi yo'llarini qidiradi. Bu borada imperiya yuqori mahkamalariga taqdim etilgan ma'lumotlar muhokama etilib islomni tartibga solish bo'yicha XIX asrning 60-80-yillarida shakllangan uslubni o'zgarishsiz qoldirish to'xtamiga kelindi<sup>30</sup>. Chunki Rossiya imperiyasini ta'lim siyosati mohiyatan hukmron elita pozitsiyasi, musulmon Sharqida islomga toqatsiz va dushmanlik ruhida davlat sifatida gavdalanishi Rossiyaga g'oyat foydasiz holat<sup>31</sup>, degan fikrni aks ettiradi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistondagi an'anaviy ta'lim tizimida turg'unlik holati hukmron bo'lib, an'anaviy ta'limning zamonaviylikdan xoli jihatlari imperiya ma'muriyatining "mensimaslik" siyosatini, imperiya ma'muriyatining mavjud mahalliy ta'limni obro'sizlantirishga qaratilgan rus ta'lim muassasalari tizimini joriy etish harakatlarini amalga oshirishga zamin yaratdi.

XIX asr 60-70-yillarida Imperiya hukumati ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirayotgan edi. Turli xil madaniyat va turmush tarziga ega xalqlar ta'limi uchun hududlar tabiiy, geografik va etnomadaniy xususiyatlaridan kelib chiqib alohida-alohida qonun-qoidalar ishlab chiqqan edi. Turkiston uchun alohida tartib-qoidalar tizimi shakllantirilmadi, balki umumiy qonun-qoidalar asosida boshqarildi. 1869 yil 26 may va 1874 yil 25 may qonunlariga ko'ra o'lkada o'quv muassasalarini boshqarish uchun direktorlar va xalq ta'limi muassasalari inspektorlari institutlari tashkil etildi.

O'quv muassasalarini yaqindan nazorat qilish uchun general-gubernator huzurida bilim yurtlari bosh inspektori lavozimi joriy etilib, bosh inspektor huzurida ikkita yordamchi, maxsus kotib-hisobchi bo'lgan. Turkiston o'lkasi hududi o'quv boshqarmasi tomonidan viloyat hududlari bilan kesishmaydigan 3 ta o'quv ishlari inspeksiya rayonlariga ajratildi.

---

<sup>30</sup> Арапов Д.Ю. Система государственного регулирования ислама в Российской империи (последняя треть XVIII – начало XX вв.). – Москва, 2004. – С. 173.

<sup>31</sup> Бахтурина А.Ю. Окраины Российской империи: государственное управление и национальная политика в годы первой мировой войны (1914-1917 гг.). Москва: РОССПЭН, 2004. – С. 312.

Turkiston o'lkasidagi har bir bilim yurtini bosh inspektor ikki yilda bir marta taftish qilishi kerak edi. Ammo Bosh inspektor zimmasida tegishli shaklda Xalq maorifi vazirligiga general-gubernator nomidan taqdim etiladigan yillik hisobot, barcha shoshilinch ma'lumotlar va axborotnomalarni tuzish, general-gubernator bilan kelishilgan holda Xalq maorifi vazirligi buyruqlarining bilim yurtlari direktorlari va inspektorlari orqali ijrosini ta'minlash, o'lka rahbari bilan oldindan kelishgan holda yuzaga kelgan anglashilmovchilik holatlarini hal etish yuklatilgan bo'lib, bu ishlarni amalga oshirish uning asosiy mehnat vaqtini jalb etgan va yuqoridagi vazifalarni to'la bajara olmasligiga sabab bo'lgan. Mazkur shtat tanqisligi, mavjud kadrlar jamoasining yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida, yetarlicha ijro eta olmasliklari holati o'lkadagi rus ta'lim tizimi faoliyatidagi jiddiy va asosiy to'siqlardan biri bo'lgan. Lekin, ushbu muammo 1917 yilga qadar o'z yechimini topmagan.

Arxiv va o'sha davr vaqtli matbuot ma'lumotlari tahlili davomida uyezdlarda o'quv ishlari boshqaruvi faqatgina o'quv boshqarmasi organlari qo'lida bo'lganligi, qishloq va ko'p hollarda shahar bilim yurtlarining xo'jalik ishlari bo'yicha masalalar: bilim yurtlarini tashkil etish, mavjudlarini yaxshilash, ularni yetarli darajada mablag', xonalar va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash, ta'minotlarni vaqtida yetkazish bo'yicha barcha tashabbuslar o'quv boshqarmasi tomonidan amalga oshirilganligi ma'ulum bo'ldi. Ba'zi hollarda uyezd va viloyatlarda mahalliy mahkamalar hamda harbiy-byurokratik apparat ta'lim muassasalar faoliyatini yaxshilash borasida tusqinlik ham qilganlar. Xususan, bu borada "Tashkentskiy kuryer" gazetasi sahifalarida "Turli ma'murlar o'qituvchi shaxsiga ishonch va hurmat ko'rsatmaydi. Ma'muriyatning polisiya-byurokratik qarashlari sabab o'qituvchilar tez-tez boshqa joylarga ko'chirilgan. Farg'ona viloyatida bunday holatlar ko'p o'chrab turadi", - kabi ma'lumotlarni uchratamiz.

O'lkadagi rus bilim yurtlarini o'quv ishlari bo'yicha boshqaruvi Xalq maorifi vazirligi mansabdorlari tomonidan, xo'jalik bo'yicha boshqaruv esa ta'sischilar va ta'minotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Davlat xazinasi, jamiyat va shaxsiy manbalardan moliyalashtiriluvchi barcha mahkamalar hamda

shahar va qishloq maktablari boshqaruvida asosiy ijro funksiyasi uyezd bilim yurtlari kengashlariga yuklangan edi.

Turkistondagi ilk rus maktablari muayyan rejalarsiz, asosan o'lkadagi rus aholisining ta'limga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan. General-gubernatorlik tashkil etilgandan so'ng maktablar rus aholisini imtiyozga ega bo'lgan va qaram tabaqalarga ajratgan holda aniq tamoyillarga asoslanib tashkil etilgan<sup>32</sup>.

1873 yilgi "Turkiston o'lkasi ta'lim muassasalarini tashkil etish" loyihada dastlab o'troq aholi uchun oliy – uyezd maktablari, qirg'izlar (ko'chmanchilar) uchun quyi savodxonlik maktablari tashkil etish; o'troq aholi yashovchi ovloq yerlarda rus ta'limini joriy etish rejalashtirildi. Hayot tajribasi mazkur taxminlarning ba'zilar noto'g'ri ekanligini isbotladi.

Mahalliy aholiga ta'lim berishda rus maktablari faoliyati samarasiz bo'lgan. Turkiston xalqlarining rus maktabiga salbiy munosabatiga "keng va jiddiy" dasturlar emas, balki podsho mustamlakachilik zulmi, mahalliy maktablarning noqulay vaziyatga solinishi, o'quv boshqarmasi vakillarini ko'p hollarda mahalliy aholi bilan hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishi va O'rta Osiyo xalqlari milliy madaniyatining kamsitilishi kabilar sabab bo'lgan.

XIX asr 80-yillarida rus ta'lim tizimi quyidagi ko'rsatgichlarda edi: 1880-1881 o'quv yilida Sirdaryo viloyatida jami 17 ta; Farg'ona viloyatida 5 ta shahar, 5 diniy; Zarafshon okrugida 3 ta; Yettisuv viloyatida jami 67 ta boshlang'ich va o'rta maktab bo'lib, ularning 3355 o'quvchisi bo'lgan.

Xuddi shu paytda Turkiston o'lkasi butun imperiyada jadallashib borayotgan kapitalistik jarayonlarga tobora qo'shilib borishi bilan mahalliy ziyolilar va ilg'or tadbirkorlar orasida rus tili va imperiya qonunlarini bilishdan manfaatdor kishilar soni ortdi.

Ana shunday sharoitda rus-tuzem maktablari vujudga keldi. Bu maktablar mahalliy aholi uchun dunyoviy ta'lim olish mumkin bo'lgan yevropa tipidagi birinchi maktab edi.

---

<sup>32</sup> Очерки истории и педагогической мысли народов СССР (конец XIX – начало XX в.). / Отв. ред. Э.Д.Днепров. – Москва: Педагогика, 1991. – С. 103.

Mazkur maktablarda rus tili birinchi yildan boshlab o'rgatila boshlangan. O'qish to'rt yillik bo'lgan. O'quv yili 130 kundan oshmagan. Qishloq joylarda o'quvchilarni dala ishlari bilan bandligi tufayli o'quv yili kuzda kechroq boshlanib, bahorda ertaroq tugatilgan. Maktabda yoshi 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'spirinlar o'qitilgan<sup>33</sup>.

Turkiston o'lkasida 1901 yilda 45 ta, 1905 yilda 82 ta va 1911 yilda 89 ta rus-tuzem maktablari mavjud bo'lgan. Dastlabki rus-tuzem maktablari juda og'ir sharoitlarda rivojlanib, maktablar tashkil etish sekin borgan.

XIX asr oxiriga kelib o'lkada rus-tuzem maktablari soni oshishi kuzatiladi. Bunga mintaqa iqtisodiyotida kapitalistik sektorning o'sishi, Turkistonni Rossiyaning markaziy rayonlari bilan bog'lovchi temir yo'l tarmoqlarining ishga tushirilishi, rus shaharlari bilan tovar ayirboshlashning o'sishi, o'lka qishloq xo'jaligining tijoriylashuvi va mahsuldorligi oshishi katta sabab bo'ldi. Bularning barchasi dunyoviy bilimlar egallagan, rus va mahalliy tillarni biluvchi malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib keldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida rus ta'lim tizimining joriy etilishi bilan birga o'quv ishlarini boshqarish uchun, bugungi kun tushunchasi bilan aytganda, maxsus boshqaruv organlari tashkil etildi. O'lka ta'lim tizimini boshqaruvchi markaziy apparat Turkiston o'lkasi o'quv ishlari bosh boshqarmasi va uning joylardagi mahalliy vakolatli organlari – rayon inspeksiyalari tuzildi. Bu borada o'lka boshqaruvida keng imkoniyatlarga ega bo'lgan general-gubernator, viloyat harbiy gubernatorlari, uyezd boshliqlarining vakolatlari o'quv ishlari boshqaruvida ham o'z aksini topdi.

Turkiston o'lkasida tashkil etilgan ilk rus ta'lim muassasalari asosan o'lkaga ko'chib kelgan rus aholining ta'limga bo'lgan talabini qondirishga mo'ljallangan edi. General-gubernatorlik tashkil etilib, mahalliy aholiga nisbatan imperiya hukumati tomonidan "ruslashtirish" siyosati qo'llanilishi belgilangandan so'ng, ta'lim siyosati va islohoti dolzarb ahamiyat kasb etdi. Rus ta'limini singdirilishi mahalliy aholini imperiyaga g'oyaviy jihatdan qaram bo'lishiga

---

<sup>33</sup> Думенко М.Ф. Русско-туземные школы Туркестана. – Т., 1957. – С. 12

xizmat qilishi kerak edi. Lekin rus ta'lim maskanlari o'z faoliyati natijasida ijobiy holatlarni ham keltirib chiqardi. Xususan, tub aholi o'quvchilari dunyoqarashi rus va mahalliy matbuot orqali dunyo va mintaqada sodir bo'layotgan voqyealardan xabardor bo'lishi orqali yanada o'sdi. Milliy ziyolilar o'lkadagi imperiya ma'muriyatini "ruslashtirish", milliy kamsitish, tub aholi huquqlarini poymol etish siyosati mohiyatini anglab, unga qarshi kurashdi hamda jadidlar faoliyatining keng miqyos kasb etishiga sabab bo'ldi.

O'rta ta'lim muassasalari bo'lgan gimnaziyalar o'lkada XIX asr 70-yillaridan tashkil etila boshlandi. Ular zodagon va mansabdorlar farzandlarini davlat xizmati va universitet ta'limiga tayyorlovchi muassasa bo'lib, unda boshqa aholi tabaqalari vakillarining o'qishlariga cheklovlar qo'yilmagan edi. Gimnaziyalarda ta'lim kurslari, tayyorlov sinfini qo'shgan holda, 9 yilni tashkil etib, o'quv rejasi xilma-hil va kengligi bilan ajralib turgan.

Ko'rgazmali ta'limni rivojlantirish maqsadida gimnaziyalarni xaritalar, globuslar, atlaslar, mashinalar modellari bilan ta'minlash tavsiya etilgan. Gimnaziyalar o'quv kursida asosiy o'rinni qadimgi (lotin, yunon, rus va cherkov slavyan) tillar va matematika darslari tashkil etgan.

Gimnaziyaning pedagogik kengashi katta ahamiyat ega edi. Kengashda o'quvchilarni gimnaziya qabul qilish, o'qituvchilar orasida darslarni taqsimlash, dars jadvallarini tuzish, o'quv qo'llanmalar va kitoblarni tanlash, o'quvchilarni o'qish uchun to'lovlardan ozod etish, kambag'al o'quvchilarga moddiy yordam va stipendiyalarni belgilash, har chorakda o'quvchilar o'zlashtirishi va xulqini baholash, tartibbuzarlik holatlari bo'yicha choralarni ko'rish, sinfdan sinflarga o'tkazish va ilg'or o'quvchilarga sovrinlarni taqdim etish, imtihonlarni o'tkazish bilan shug'ullangan<sup>34</sup>.

XIX asr oxirlariga kelib hali barcha viloyatlar markaziy shaharlarida gimnaziyalar tashkil etilmagan edi. Ashxobodda birinchi progimnaziya 1896 yilda,

---

<sup>34</sup> Хрестоматия по истории школы и педагогики в России (до Великой Октябрьской социалистической революции). Составитель и автор ввдных очерков С.Ф.Егоров. Изд. второе переработанное. – Москва, "Просвещение", 1986. – С. 302-310.

Samarqandda o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalari 1899 yilda<sup>35</sup> tashkil etilgan. Verniy o'g'il bolalar gimnaziyasi 1876 yilda tashkil etilgan edi<sup>36</sup>.

Gimnaziyalar faoliyatining dastlabki yillarida o'quvchilar soni kam bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular soni ko'paydi. 1886 yilda Toshkent o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalarida o'quvchilar soni 585 ta, 1893 yilga kelib esa 716 nafarga oshgan. 1900 yilda Samarqand o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalarida o'quvchilar soni 274 ta<sup>37</sup>, 1910 yilda 820 ta bo'lgan<sup>38</sup>. 1902 yilda Ashxobod o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalarida esa ular 724 ta, 1910 yilda 1226 bo'lgan.

XX asr boshlarida mavjud gimnaziyalar, o'qituvchilar seminariyalari va kam sonli professional bilim yurtlari soni o'lkada o'rta ta'limga bo'lgan talabga nisbatan kamligi tufayli, jamoat mablag'lari hisobidan tashkil etilgan xususiy o'rta ta'lim maskanlarining soni ortib bordi. 1909 yilda Qo'qon va Toshkentda bittadan tijorat bilim yurtlari mavjud bo'lgan.

Imperiya hukumatining so'nggi yillarida o'lkaning uyezd shaharlarida bo'lgan Andijon va Qo'qonda ikkitadan o'g'il bolalar va qizlar gimnaziyalari, Pishpek va Prjevalskda, Kattaqo'rg'onda, Chorjuyda, Krasnovodskda o'g'il bolalar uchun, Namanganda qizlar uchun gimnaziyalar, Marvda esa 1914 yilda real bilim yurtlari tashkil etilib faoliyat yuritdi.

1917 yilga qadar Turkiston o'lkasida kadetlar korpusidan tashqari o'rta ta'lim maktablari umumiy soni 29 ta bo'lib, ularda 9577 ta o'quvchi ta'lim olgan. O'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning aksariyati aholining mulkdorlar qatlami farzandlari tashkil etgan.

Toshkentda o'quv-uslubiy jihatdan yaxshi jihozlangan real bilim yurti mavjud edi. Real bilim yurtlari gimnaziyalarga nisbatan quyi pog'onadagi o'quv muassasasi sanalgan. Ular aholining o'rta qatlami vakillarini ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Mazkur o'rta ta'lim asosini matematika,

---

<sup>35</sup> WWW.Google.ru.Обзор Самаркандской области за 1899 г. - Ташкент, 1900. – С. 144-145.

<sup>36</sup> Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865-1917 гг.). – Ташкент: Гос. Изд-во Уз ССР, 1966. – С. 39.

<sup>37</sup> WWW.Google.ru.Обзор Самаркандской области за 1900 г. – Самарканд, 1901, Приложение № 19.

<sup>38</sup> WWW.Google.ru.Обзор Самаркандской области за 1910 г. – Ташкент, 1911, Приложение № 25.

tabiatshunoslik va yangi tillar tashkil etib, mazkur muassasa o'quvchilarni texnik va sanoatga yo'naltirilgan maxsus oliy o'quv muassasalariga tayyorlagan<sup>39</sup>.

1900 yili Orenburg kadetlar korpusining Toshkentda ochilgan tayyorlov maktabi negizida 1904 yili Toshkent kadetlar korpusi tashkil etildi.

1878 yilgi kasbga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qonunga binoan Xalq maorifi vazirligi butun Rossiya, shu jumladan, Turkiston o'lkasi bo'ylab davlat va xususiy sarmoyalar hisobidan sanoat bilim yurtlari, shahar maktablari huzurida hunarmandchilik sinflari va qo'l mehnati sinflari tashkil etilgan.

1896 yili Toshkentda hunarmandchilik bilim yurti ochilib, unda paxta tozalash va boshqa korxonalarini ta'mirlash uchun malakali duradgor, chilangar, tokarlar va temirchilar tarbiyalanardi.

XX asr boshiga kelib Toshkent va Verniy shaharlarida yer o'lchovchilar kurslari tashkil etildi<sup>40</sup>. 1897 yili Toshkentda ariq-oqsoqollar (irrigasiya nazoratchilari) ni tayyorlovchi "Quyi geodeziya kurslari" ochildi. Bundan tashqari, 1887 yildan Verniy shahrida bog'bonlar o'quv yurti hamda shu yildan Kopalada, 1890 yilda Pishpakda, 1896 yildan Jarkentda, 1897 yildan Ashxobodda va 1898 yildan Prjevalskda boshlang'ich qishloq xo'jalik maktablari faoliyat yurita boshlagan.

Podsho ma'muriyati o'lkada rus ta'lim tizimini shakllantirar ekan mazkur muassasalarda dars beruvchi mutaxassis-pedagoglarni tayyorlash uchun 1879 yilda Turkiston o'qituvchilar seminariyasini tashkil etdi. Unda din qonunchiligi, pedagogika, rus tili, arifmetika, geometriya, algebra, fizika, tabiatshunoslik, Vatan (Rossiya) tarixi, geografiya, mahalliy tillar (o'zbek va fors)<sup>41</sup>, husnixat, rasm darsi, ashula, musiqa, qo'l mehnati, gimnastika darslari hamda darsdan bo'sh vaqtlarda bog'dorchilik va tomorqachilik o'rgatilgan. 1879-1904 yillarda seminariyaga qabul qilingan 415 ta o'quvchidan 348 tasi rus, 54 tasi qirg'iz, 9 tasi o'zbek, 3 tasi tatar va 1 tasi turkman millatiga mansub edi. General-

<sup>39</sup> Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865-1917 гг.). – Ташкент: Гос. Изд-во Уз ССР, 1966. – С. 41-42.

<sup>40</sup> Туркестанский курьер, 1912, №226; ТВ, 1912, №227.

<sup>41</sup> Семинарияда ўзбек ва форс тилларини ўқитиш 1885 йилдан бошланган.

gubernator Samsonov tashabbusi bilan 1913 yili Verniyda ham o'qituvchilik seminariyasi tashkil etildi.

Farg'ona viloyatida kichik kreditlar sherikchilik shirkatlarining tashkil etilishi bilan bog'liq holda mahalliy aholi uchun 1914 yildan soddalashtirilgan hisobchilik qisqa vaqtli kurslari tashkil etila boshlandi. Mahalliy rahbariyat bu tashabbuslarni qo'llab-quvvatladi. Chunki I jahon urushi yillarida paxta yetishtirishni kuchaytirish va uni Rossiyaga olib chiqishga talab oshib bormoqda edi.

Turkistonda texnik ta'lim paxta tozalash va yog' ishlab chiqarish zavodlari va temir yo'llarga (Toshkent quyi texnik temir yo'l bilim yurti) xizmat ko'rsatishni tashkil etish maqsadida vujudga keldi.

Texnik temir yo'l bilim yurtlarining o'quv dasturlari Yo'l aloqalari vazirligi tomonidan belgilanib, o'quv-tarbiyaviy jarayonlar ham ushbu vazirlik tomonidan amalga oshirilgan.

Tibbiy ta'lim elementlari Turkistonda XIX asr oxirlarida rus harbiy hospitallari va "mahalliy ayollar va bolalar uchun davolash maskanlari" qoshida tub yerli aholi vakillaridan emlovchilar va doyalarni individual o'qitish shaklida vujudga keldi. 1905 yilda Farg'ona vodiysida 75 ta tub yerli emlovchilar bo'lgan.

O'lkada 1917 yilga qadar oliy ta'lim muassasasi mavjud emasdi. 1912 yili Toshkentda paxtachilik bo'yicha Turkiston syezdi bo'lib, unda o'rta qishloq xo'jaligi va oliy politexnikum ochilishi haqida qaror qabul qilidi. Lekin podsho Rossiyasining so'nggi yillarigacha ham mazkur muassasa tashkil etilishi borasida jiddiy tadbirlar amalga oshirilmadi.

Bu davrda Turkistondagi an'anaviy ta'lim tizimida ma'lum ma'noda turg'unlik holati hukmron bo'lgan. Chunonchi, iqtisodiy, siyosiy jihatdan ko'plab o'zgarishlar va ziddiyatlar vaqtida mazkur davr uchun an'anaviy ta'lim dasturlari, o'qitish uslubi hamda mavjud ta'lim bosqichlari o'z vazifasini "yashab bo'lgan" va endilikda o'zgacha, zamonga mos jiddiy islohotga muhtoj edi. Musulmon ta'limining zamonaviylikdan xoli jihatlari imperiya ma'muriyatining

“mensimaslik” siyosatini keng ko’lamda amalga oshirishiga hamda mustamlaka hukumatning tezlik bilan yangi o’qitish tizimini o’rnatishga qulay zamin yaratdi.

Mahalliy ta’lim o’z mazmun-mohiyatiga ko’ra yuksak ma’naviy ahamiyatga ega bo’lishiga qaramay, undagi dunyoviylik va zamonaviylik masalalarining yetarlicha emasligi, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy talablariga mos kela olmasligi davrning dolzarb muammosiga aylangan edi.

Ushbu vaziyatda imperiya hukumati rus ta’lim muassasalari tizimini joriy etish harakatlari mavjud mahalliy ta’limni obro’sizlantirishga qaratildi. Biroq milliy ma’rifatparvarlarning islohotchilik harakati bo’lsa bunga ma’lum ma’noda to’sqinlik qilgan. Mahalliy ziyolilar o’z e’tiborlarini xalq ma’naviyatini yuksaltirish, o’zligini anglatishga qaratgan. Bu borada jadidlar katta yutuqlarga erishib, aholi ishonchini qozonib, rivojlanib borsa-da, ular mutaassib din vakillari va imperiya ma’muriyati tomonidan ta’qiblarga uchragan. Bu esa o’z navbatida jadidchilikni keng miqyosda rivojlanishiga to’sqinlik qilgan.

O’lkada imperiya hokimiyati o’rnatilishi bilan an’anaviy ta’lim muassasalarining mahalliy aholi hayotidagi ahamiyatini pasaytirish, musulmon ta’lim tizimini 1875, 1893 yillardagi Qonunlar, 1879, 1906, 1907 va 1912 yillardagi Qo’llanmalar asosida kuchsizlantirishga qaratilgan siyosat olib borilsa-da, imperiya ma’muriyati mavjud mahalliy ta’lim muassasalarini yo’q qilish va ular o’rniga yangi turdagi ta’lim maskanlarini tashkil etishni rejalashtirmagan edi.

Turkistonda mustamlaka hokimiyat o’rnatilishi va an’anaviy ta’lim tizimini isloh qilishga doir imperiya hukumatining harakatlari XX asrning ikkinchi choragida o’rnatilgan sovet hukumati tomonidan davom ettirilib, an’anaviy ta’lim tizimi yo’q qilinishiga zamin yaratdi.

1875 yilda o’lkada rus va mahalliy ta’lim muassasalarini boshqaruvini amalga oshiruvchi Turkiston o’quv ishlari bosh boshqarmasi tashkil etildi. O’quv muassasalari faoliyatini nazorat qiluvchi tizim yaratilsa-da uning faoliyatida bir qator jiddiy kamchiliklar mavjud edi:

- o'lkadagi bilim yurtlari faoliyatini nazorat qiluvchi inspektorlar sonining kamligi va ularni ko'p vaqt talab etuvchi kanselyariya ishlariga jalb etilishi;

- o'lkada ta'lim nazoratiga jalb etilgan barcha mansabdorlar mahalliy aholi urf-odatlarini hisobga olmagan, rus ta'limini mahalliy aholi orasida ommalashtirishning ahamiyatini yaxshi anglaman holda ta'limni targ'ib etishi va singdirishga intilishi;

- mazkur boshqarma O'rta Osiyo xalqlari tarixida ta'lim tizimini boshqarishning yangi ko'rinishi bo'lib, ta'lim muassasalarini ta'minotini davlat tomonidan amalga oshirishning ijobiy jihatlari namoyon etdi.

Turkiston o'lkasida boshlang'ich rus va rus-tuzem maktablarini tashkil etilishi va faoliyati tahlili asosida quyidagilar aniqlandi:

- rus ta'lim muassasalarining faoliyati imperiya manfaatlariga xizmat qilishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, ular mahalliy xalq ta'limi tizimi sohasida bir qator ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi;

- yevropa pedagogikasi ta'siri ostida mahalliy aholi bolalarini jalb etish maqsadida rus – tuzem maktablari tashkil etilib, ularda diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o'qitila boshlandi, o'quv jarayonida noan'anaviy yangi usullardan foydalanildi, asosiy mashg'ulotlar bilan bir qatorda sinfdan tashqari o'qitish tizimi ham joriy etildi;

- imperiya ma'muriyati rus-tuzem maktablarda O'rta Osiyo mahalliy aholisining keng ommasini ma'lumotli qilishni rejalashtirmadi. Balki, o'lka ma'muriyatining quyi mansablarida xizmat qiluvchi ma'lum miqdordagi savodli kishilarni tayyorlashni maqsad qilgan edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida rus ta'lim tizimlari bilan birga, o'quv ishlarini boshqarish uchun, bugungi kun tushunchasi bilan aytganda maxsus boshqaruv organlari tashkil etildi.

Turkiston o'lkasi to'laligicha Rossiya imperiyasi mudofaa vazirligi boshqaruvida bo'lishi va o'lkadagi barcha ishlarda general-gubernator, viloyat harbiy gubernatorlari, uyezd boshliqlarining keng vakolatlari o'quv ishlari

boshqaruvida ham o'z aksini topdi. Mazkur harbiy boshqaruv mahkamalari qonun bo'yicha o'quv ishlarini boshqaruvida ko'maklashuvchi vazifasini ado etishlari kerak bo'lsa-da, ko'p holarda to'sqinlik qilishgan.

O'qitish jarayoni va usuli bilan an'anaviy ta'lim tizimidan ancha farq qilgan rus maktablari imperiya manfaati uchun mahalliy kadrlarni tayyorlab berishi kerak edi. Biroq hudud aholisining milliy xususiyatlaridan yiroq bo'lgan o'qitish tizimi hamda uning bitiruvchilariga taklif etilayotgan quyi pog'ona mansablar ularni mahalliy aholi orasida ommalashmaganligiga sabab bo'lgan. Shuningdek, mazkur maktablar mavqeini yil sayin pasayib borishiga mahalliy ziyolilar – jadidlar tomonidan “yangi usul” maktablari tashkil etilishi ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Turkistonda XIX asr oxirgi choragidan boshlab gimnaziya, keyin kasbiy ta'lim muassasalari: qishloq ho'jaligi, transport, savdo va boshqa turli ixtisosliklar bo'yicha o'rta ta'lim muassasalari tashkil etila boshlandi. Ular faoliyati kadrlarni tayyorlashda ijobiy ahamiyatga ega edi. O'rta Osiyo xalqlari uchun gimnaziya ta'lim dasturlari yangilik bo'lsa-da, o'quvchilar orasida mahalliy aholi vakillari ozchilikni tashkil etgan.

Rossiya imperiyasi ma'muriyati o'z manfaatlariga mos ravishda ta'limni rivojlantirgan, lekin mahalliy va ilg'or rus ma'rifatparvarlarining o'lkada ta'lim dasturlari va shakllarini takomillashtirish bo'yicha tashabbuslariga qarshilik ko'rsatgan.

XX asr boshlariga kelib Turkistonni yirik shaharlarida tijorat, texnika, savdo, transport, harbiy sohalarda turli mutaxassislarini tayyorlovchi o'rta ta'lim muassasalari tashkil etildi. Gimnaziya bitiruvchilari kelajakda universitet, institutlarga kirish huquqini qo'lga kiritgan. Real, tijorat bilim yurtlari bitiruvchilarni oliy texnika, sanoat ta'lim muassasalariga tayyorlangan.

Mazkur bilim yurtlar birinchi galda o'lkada istiqomat qiluvchi rus fuqarolarini o'rta ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ikkinchi o'rinda rus ta'lim muassasalarini tamomlagan mahalliy aholi vakillarini o'rta ta'lim bilan ta'minlashga xizmat qilgan.

XIX asr 90-yillarida rus aholisining o'rta ta'limga bo'lgan ehtiyojini oshib borishi natijasida turli shaharlarda ixtisosliklar bo'yicha bilim yurtlari va hatto maxsus mutaxassislarni tayyorlovchi o'quv kurslari tashkil etildi, maktablarda hunar ta'limi joriy etildi.

Turkiston o'lkasida tashkil etilgan o'rta va kasbiy yo'naltirilgan ta'lim muasssalarining tarmog'i kam sonli bo'lib, ular Turkistonda qishloq xo'jaligi, temir yo'llari transporti va sanoat sohasida mutaxassislarga bo'lgan talabni qondira olmas edi.

Xulosa sifatida quyidagilarni aytib o'tish kerakki Turkiston o'lkasi ma'muriyati mahalliy aholi bolalari uchun rus tilida dars beriladigan o'rta ta'lim muassasalarini tashkil etishga qarshi edi. Ularning fikricha, mahalliy aholi bolalari o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtira olmasliklari tufayli mazkur ta'lim maskanlarini tashkil etish mumkin emas edi. O'qitish jarayoni va usuli bilan an'anaviy ta'lim tizimidan ancha farq qilgan rus maktablari impyeriya manfaati uchun mahalliy kadrlarni tayyorlab byerishi kyarak edi. Biroq hudud aholisining milliy xususiyatlaridan yiroq bo'lgan o'qitish tizimi hamda uning bitiruvchilariga taklif etilayotgan quyi pog'ona mansablar ularni mahalliy aholi orasida ommalashmaganligiga sabab bo'lgan. SHuningdyek, mazkur maktablar mavqyeini yil sayin pasayib borishiga mahalliy ziyolilar – jadidlar tomonidan “yangi usul” maktablari tashkil etilishi ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Turkistonda XIX asr oxirgi choragidan boshlab gimnaziya, kyeyin kasbiy ta'lim muassasalari: qishloq ho'jaligi, transport, savdo va boshqa turli ixtisosliklar bo'yicha o'rta ta'lim muassasalari tashkil etila boshlandi. Ular faoliyati kadrlarni tayyorlashda ijobiy ahamiyatga ega edi. O'rta Osiyo xalqlari uchun gimnaziya ta'lim dasturlari yangilik bo'lsa-da, o'quvchilar orasida mahalliy aholi vakillari ozchilikni tashkil etgan.

### **I.3. Turkiston jadidchiligi va madaniyat. Turkiston taraqqiyparvarlarining madaniyatga oid qarashlari**

Ma'lumki, XX asr boshlari Turkiston taraqqiyparvarlari bo'lgan jadidlar madaniyat va ma'rifatni ijtimoiy taraqqiyotning bosh omili deb hisobladilar. Chunki o'lka XX asrga mustamlaka, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongdagi turg'unlik kabi illatlar bilan qadam bosib kirgan edi. Mustamlaka sharoitida, hukmron siyosiy mafkura doirasida qoloqlikdan qutulishning yagona yo'li – madaniy yo'nalish orqali taraqqiy etish mumkinligini tushungan ziyolilar eng avvalo, madaniy va maishiy xayotdagi qoloqlikni tugatish, milliy ongni isloh etishda til, tarix, matbuot, an'anaviy madaniyatni dunyo madaniyati tizimida qayta ko'rib chiqish zaruriyatini olib chiqdilar. Millatning madaniy taraqqiyotini ziyolilar boshqa xalqlar taraqqiyoti bilan qiyoslashga harakat qilib, ularning yutuqlari sabablarini aniqlashga, namuna olishga da'vat etganlar.

Ularning aksariyati o'z asarlarida Turkiston xalqi madaniyatini rivojlantirish, ma'rifatga chaqirish, Vatan taqdiri va uning istiqboli uchun qayg'urish kabi muammolarni ko'tarib chiqqan edilar. Ularning orzusi turkistonliklarni tanazzuldan chiqarib ilg'or xalqlar qatorida jahon madaniyati tizimida joy olishi, o'z madaniyatini dunyo ommasiga tanitishdan iborat bo'ldi. Ular xalqning milliyligini saqlab qolgan holda turmush tarzini zamonaviylashtirish madaniyatlikning bir belgisi deb hisoblar edilar.

Jadidlarning asar va maqolalarida “madaniyat” iborasini ko'proq “taraqqiyot” ma'nosida ishlatganlarini kuzatish mumkin. Zero, ularning madaniy taraqqiyot va tanazzul haqidagi fikrlari bevosita ilm-fan, maktab, maorif, ta'lim-tarbiya masalalari bilan chambarchas ravishda tahlil etilgan. Ular bu sohada milliy xususiyatlarni saqlab qolgan holda Sharq va G'arb madaniyatini taraqqiy ettirishga intilganlar va o'z faoliyatlari davomida mamlakatda taraqqiyot, yuksalish, rivojlanish uchun ilm-fan, maorifni eng birinchi zaruriyat deb biladilar. Chunki jadidlar xorij mamlakatlariga qilgan sayohatlari davomida G'arb va Sharq mamlakatlari o'rtasida tafovutni angladilar va taraqqiyot yo'lining eng birinchi

yo'nalishi ilm-fan va texnika zaruriyati ekanligini xalqqa tushuntirishga harakat qildilar.

Turkiston milliy taraqqiyparvarlari yo'lboshchisi sanalgan Mahmudxo'ja Behbudiy 1906 yilda nashr etilgan "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy"<sup>42</sup> asarida o'z davrining ilg'or ziyolisi sifatida madaniyat masalasiga alohida e'tibor beradi. Asarda geografik va tarixiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, juda sodda tarzda osmon jismlarining joylashuvi va harakati tushuntiriladi, astronomik jadvallarni ilova tarzida beriladi. Shu bilan birga, muallif insoniyat va jamiyat hayotini tahlil qilib, vahshiylik, badaviylik, va madaniylik bosqichlarini sanab o'tadi, hamda mutamaddun, ya'ni madaniyatli jamiyat yaratish uchun ilm, hunar, din zarurligini uqtiradi. "Vahshoniyat jamiyatida, – deydi u, shakllari inson va barcha harakatdagi it-ko'ppakdan bادتardurki, insonlarni bidoyat holi yoinki ilmu adabsizlik martabasidir"<sup>43</sup>. Ikkinchi xil guruh "badaviylardurki, vahshoniyatdan taraqqiy yoinki madaniyatdan tanazzul"dir. "Bu toifani umrlari mol boqmoq, yemoq, yotmoq ila sarf bo'lub, jamiyati bashariyag'a keragicha yordamlari yetmaydur. Chunki ilmlari kamdur"<sup>44</sup>. Behbudiy uchinchi toifa kishilarni "madaniyat" tushunchasi ostiga olib, "madaniy" yoki "shahariy" deb ataydi va quyidagi ta'rifni beradi: "Bularni aksar ishlari tartib va tajriba, ilm va fan va qoida bo'yicha bo'ladur. Maktab, madrasa, masjid, mahkama, ruhoniy-ulamo, ibodatxona, amir, hukmron, podshohlari bordur"<sup>45</sup>.

Taraqqiyparvarlar Turkiston madaniy taraqqiyoti jarayonida bevosita va bilvosita ishtirok etar ekanlar, ham nazariy, ham amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Ular xalqning ongida tub burilish yasashni istardilar. Professor D.A.Alimova ta'kidlaganidek, "Jadidlar mafkurasida – dinning inson ma'naviy kamolotidagi o'rnini to'g'ri tushunish, o'lkada o'ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish kabi tarixiy vazifalar jamlangan edi. Bu vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlari bo'lib, islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan

---

<sup>42</sup> Асарнинг тўлиқ номи "Китоби мунтахаби жуғрофияи умумий ва намунаи жуғрофия" деб номланади. У 1905 йил 24 августда Санкт-Петербург цензурасидан рухсат олинди, 1906 йилда Г.И.Демуров матбаасида чоп этилган. Бу ҳақда тўлиқ қаранг: Бехбудий М. Танланган асарлар.Т. Маънавият, 1999. –Б. 20-27

<sup>43</sup> Бехбудий М. Танланган асарлар.Т. Маънавият, 1999. –Б. 23

<sup>44</sup> Ўша ерда.

<sup>45</sup> Ўша ерда.

yutuqlari va ilg'or texnologiyani egallash muammolarini hal etish lozim edi"<sup>46</sup>. Darhaqiqat, ular islomning taraqqiyparvar ahamiyatini tushuntirish bilan ta'lim, iqtisod, madaniyat va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etish zaruratini to'g'ri anglaganlar.

Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiyning qarashlari diqqatga sazovor. U o'zining mashhur "Padarkush" dramasida ziyoli obrazi orqali xalqqa millatning yuzi bu – ilm va hunaridir degan g'oyani yetkazishga harakat qildi: "Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundun-kunga qo'ldan ketganidek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo'lur. Buning uchun biz musulmonlarni o'qutmoqg'a sa'y qilmog'imiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o'qumoqni beshikdan mo'zorigacha bizlarga farz qilgandur. Bu hukm – hukmi shariatdir."<sup>47</sup> Behbudiyning fikricha, bu zamonda ikki sinf ulamo kerak, ya'ni olimi diniy va olimi zamoniyy. Birinchi sinf: imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo'lib, xaloyiqni diniy va axloqiy ishlarini boshqaradi. Olimi zamoniyy esa, dini va millat tilini chuqur bilgan holda, dorilfununlarda o'qib, mutaxassislar sifatida yuqori mansablarda Vatan manfaatini himoya qiluvchilardir. Turkistonda birinchi marta o'zbyek havaskorlari dramatik truppasi Samarqandda Mahmudxo'ja Byehbudiy tomonidan tuzilganligi ma'lum. Truppa uning «Padarkush» p'yesasini sahnalashtirdi. Mahmudxo'ja Byehbudiy bu p'yesani 1911 yilda yozadi va uni Buxoroda chiqib turgan jadidlarning «Turon» gazyetasida e'lon qiladi<sup>48</sup>.

Bu asar uch pardali, to'rt ko'rinishli fojyea bo'lib, Mahmudxo'ja Byehbudiy unda Turkistondagi qoloq urf-odatlar, eski madrasa ta'limi, xurofot va jaholatni, mahalliy boylarning savodsizligini va yoshlarning o'qimaganligini tanqid qiladi. «Padarkush» p'yesasi 1914 yil 25 yanvarda Samarqandda havaskorlar tomonidan sahnaga qo'yiladi. Uning tomoshasiga ko'plab odamlar kiyelgan. 1913 yilda kitob holida chop etilgan bu p'yesa butun Turkiston bo'ylab

---

<sup>46</sup> Алимova Д.А. Жадидчилик харакатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури //Жадидчилик:ислохот, янгилашиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т., Университет, 1999. Б.37.

<sup>47</sup> Бехбудий М. Падаркуш ёхуд ўқимаган боланинг холи// Танланган асарлар. Б.43.

<sup>48</sup> Қаранг: Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи Б. Қосимов. - Т.: Маънавият. 1997. 232 б.; Ризаев Ш. Жадид драмаси. - Т.: Шарқ, 1997. 320 б.

tarqalgan edi. Bu asar ta'sirida tyeatrchilikka asos solindi. Arxiv hujjatlarida ma'lumot byerilishicha, «Padarkush» p'yesasi Toshkyentda birinchi marta 1914 yil 27 fyevralda Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev boshchiligida tuzilgan havaskorlar gruppasi tomonidan sahnaga qo'yildi. Natijada bu asar Turkiston o'lkasi shaharlarida ham tyeatr gruppalari tashkil topishiga, milliy o'zbyek tyeatri shakllanib va rivoj topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Toshkyentda 1913 yili Abdulla Avloniy boshchiligida «Turon» nomi bilan truppa o'z faoliyatini boshlagan. Uning asosiy vazifasi p'yesalarni sahnalashtirish, xalqqa tomoshalar ko'rsatish bilan xalqda milliy ongni shakllantirib, ma'rifatni kuchaytirishdan iborat edi. Bu guruh faoliyati natijasida tushgan mablag'larning bir qismini Toshkyentdagi yangi usul maktablari uchun ajratar edi. Bu guruh tarkibida Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Muhammad Poshshoxo'jayev, To'lagan Xo'jamiyev (Tavallo) va boshqa ko'pgina yangi usul maktablari o'qituvchilari ishtirok etganlar.

Jadidlar rivojlangan davlat qurish borasidagi o'z g'oyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurashga alohida ahamiyat byerganlar. Ular vazifalarni amalga oshirishda taraqqiyparvar, bilimli yoshlarga tayanganlar<sup>49</sup>. Dyemak, o'sib kyelayotgan yoshlar asosiy kuch hisoblangan. Ularning oiladagi tarbiyasi esa alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Jadidlar bolalarning odobsiz bo'lishlari asosan, ota-onaning bola tarbiyasiga e'tiborsizlik bilan qarashlari, ayrim xollarda, ota-onalarning o'zlari ham sababchi bo'lishlarini ko'rsatib o'tganlar. Mahmudxo'ja Byehbudiyning «Padarkush» dramasiidagi voqyealar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Turkiston yoshlarini o'qitish va ularning oiladagi tarbiyasini yanada mustahkamlash, ota-onalarning farzandlariga bo'lgan e'tiborlarini yanada kuchaytirish jadidchilik namoyandalarining diqqat markazida turgan. Jadid namoyandalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. SHu o'rinda

---

<sup>49</sup> Алимова Д. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури. // Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. - Т.: 1999. Б. 51-52.

jadidlarning yoshlarga murojaatiga e'tibor qilaylik: «Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, millat yo'lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas... Muhtaram yoshlar! Zamon siznikidur. Siz kiromda bobasirat bo'lub, o'n daf'a o'lchab, bir daf'a kyesingiz. Otashinlik va tyezlik ila ish bo'lmas. Balki butun shahringiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz. Bizning harakatsizligimiz bizdan hurriyatni kyetkurib, yana boshqalarga bizni asirlik darajasiga tushurur va yuz yillar ila kyeyin kyetarmiz».

Odocsiz va o'qimagan bolalar nafaqat ota-ona, balkim jamiyat uchun ham zararli ekanligini ular alohida ta'kidlaganlar. Shu o'rinda «Padarkush» p'yesasidagi ziyolining so'zlarini kyeltirish o'rinlidir: «Ilm va tarbiyasiz bolalarni(ng) oqibati shuldir. Bizlarni xonavayron, bachagiryon va byevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur: byevatanlik, darbadarlik, asorat, faqru zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va byetarbiyalikning myevasi va natijasidur. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlari byeilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o'qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxliklar oramizda doimo farmo bo'lsa kyerak. Bu ishlarning yo'q bo'lmog'iga o'qumoq va o'qutmoqdan boshqa iloj yo'qdur»<sup>50</sup>.

«Padarkush» p'yesasining sahnalashtirilishi va qo'yilishi munosabati bilan quyidagilar yozilgan: «Rusiya hukumatiga tobye bo'lganiga 300 yildan ko'proq bo'lgan tatarlardin nyecha daraja ortiq dyeganda mubolag'a bo'lmas. Bul tariqa taraqqiyg'a qadam qo'yib maqlid o'yunining nihoyatda o'xshatganliklari taraqqiyparvar Munavvarqori va Solijon Qori va shularga o'xshash yoshlarni sa'i-taraddud va harakatlari birlan vujudga kyelganligi ko'rindi. Ul maqlid o'yunida sartiylalar va tatarlar shul darajada ko'p bo'ldiki, kyeyin kyelgan odamlarga bilyet yetmay qolib, tyeatr ichida va tyeptalarida odamlar murmoqdyek (chumoli) qaynab turdilar. Sartiylalar ham bul tariqa ko'p bo'lganliklari va tyeatrga ishlari va

---

<sup>50</sup> Бехбудий.М. Падаркуш ёхуд оқумаган боланинг холи. // Танланган асарлар. / Нашрга тайёрловчи: Б. Қосимов. - Т.: Маънавият. 1999. Б. 49-50.

taraqqiylarin alomatini bo'lib, bul tyeatr soat birga qadar davom etdi. Bu tyeatrdin tushgan aqcha Toshkyent shahridagi jamiyati imdodiya (xayriya ) foydasiga byerilar ekan»<sup>51</sup>.

Mahmudxo'ja Byehbudiyning «Padarkush» p'yesasi jamoatchilikka, adabiyotga kirib kyelayotgan yoshlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, ularni kyelajakka ilhomlantirdi. Bu asar ta'sirida adabiyotda Hoji Muyinning «Mazluma xotin», «Juvonbozlik qurboni», «Qo'knori», Abdulla Badriyning «Juvonmarg», «Boyvachcha», «Ahmoq», Abdulla Avloniyning «Pinak», «Advokatlik osonmi», Abdulla Qodiriyning «Baxtsiz kuyov» asarlari paydo bo'lgan. Bu asarning ta'siri shunchalik bo'ldiki, «1913 yillarda chiqqan «Padarkush» p'yesasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» dyegan tyeatr kitobini yozib yuborg'onimni o'zim ham payqamay qoldim», – dyeb qayd etadi Abdulla Qodiriy o'z tarjimai holida<sup>52</sup>. Jadid adabiyoti ravnaqi natijasida 1910-1917 yillarda yaratilgan o'zbyek dramalarining soni 40 dan oshadi.

1914-1915 yillarda Farg'ona shaharlari bo'ylab gastrolga chiqqan «Turon» truppasining maqsadi, birinchi navbatda, mablag' topib, moddiy qiyinchilik tufayli yopilib qolishi mumkin bo'lgan «Sadoi Turkiston» gazyetasini saqlab qolish bo'lsa, ikkinchidan, vodiy yoshlariga ma'rifiy-madaniy xizmat ko'rsatib, ularni ham tyeatr ishlariga, madaniy ravnaq etishga da'vat qilish edi. Tyeatr truppasining gastrollari haqida muntazam xabarlar bosib turgan «Sadoi Turkiston» va «Sadoi Farg'ona» gazyetalarining ma'lumot byerishicha, bu spyektakllarga yerli ziyolilarning yaqindan yordam byerayotganlari, Andijon, Qo'qon, Xo'jand kabi shaharlarda ayrim yoshlar kichikroq rollarga ham jalb etilganligi bayon qilinadi. O'zbyek ma'rifatparvarlari ovro'pocha tyeatr san'atidan bahramand bo'ldilar va uni mahalliy xalq hamda kyelajak avlod uchun g'oyat kyarakli tarbiya o'chog'i dyeb qaradilar. Dyemak, M. Byehbudiy, A. Avloniy, A. Qodiriy, H. Muyin, A. Badriy, Hamza, A. Cho'lpon, A. Fitrat, S. Ajziy, Tavallo kabi tyeatr, madaniyat va ma'naviyat arboblari yetilgan va ijod

---

<sup>51</sup>WWW.Google.ru. Туркистон вилюятининг газетаси. 1914. 6 март.

<sup>52</sup> Қодирий А. Таржимаи ҳол. / «Кичик асарлар». - Т.: Бадиий адабиёт. 1969. Б. 206.

qilganligini bilishimiz mumkin. Xalq fidoiylari mustaqillik, istiqbol, millatning ravnaqi, rivojlanishini, yoshlarning birlashib, ilm olib, kyalajakka intilishlarini o'z asarlari, maqolalari, shye'rlari va tyeatrlari orqali xalqqa yetkazdilar va mahalliy yoshlarning ongida yangi zamonaviy fikrlarning paydo bo'lishida katta rol o'ynadilar.

Tyeatrdan birlamchi maqsad yangi, g'oyat ta'sirchan san'at turi bilan millatning ma'rifiy-madaniy saviyasini ko'tarish, ilm va o'qimoqqa da'vat etish bo'lsa, ikkinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, tyeatr tomoshalari vositasida muayyan mablag' topib, yangi usul maktablari, boshqa xil o'quv yurtlari, xayriya jamiyatlari, matbuot va boshqa madaniy ishlarga moddiy yordam ko'rsatish edi. O'sha davr gazyeta va jurnali sahifalarida jadid ziyolilar tashkil etgan qaysi bir tyeatr yoki kyechalar haqida bosilgan xabarlarining barchasida bu tadbirlar ma'rifiy-madaniy muassasalar ochish yoki bo'lmasa, ularning moddiy ta'limotini yaxshilashga qaratilganini anglash mumkin.

Kattaqo'rg'onda mahalliy yoshlar «Padarkush»ni bir necha marta sahnaga qo'yidilar. Ular to'plangan mablag'ni qiroatxona tashkil qilishda ishlatish niyatida edilar. Buxoro shahrida esa qo'yilgan spyektakldan tushadigan foydani faqir «ustudyentlar»ga tarqatish nazarda tutilgan edi.

Tyeatr tomoshasi yosh ziyolilar nazdida faqat mablag' topish vositasi bo'lmay, birinchi navbatda, millat madaniyati va san'atining taraqqiyoti uchun, xalqning umumma'rifiy saviyasi yuksalmog'i, ijtimoiy ongi rivoj topmog'i uchun buyuk ahamiyatga loyiq edi. A. Avloniy o'z «Tarjimai holi»da «bizning maqsadimiz zohirda tyeatru bo'lsa ham botinda Turkiston yoshlarin siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi», dyeb byejiz aytmagan<sup>53</sup>.

Mahmudxo'ja Byehbudiy tyeatrni millat istiqboli yo'lida eng ta'sirli, ommaviy qurollardan biri dyeb tushundi, «Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislardan biri tyeatrlardur», dyeb davom ettiradi u. Uning ma'naviy ahamiyatidan tashqari, moddiy manfaatini ta'kidlab, bu manfaat millat, xalq manfaatlariga xizmat qilmog'i kyeraqligini uqtirdi. Fransiya yoki Italiyadyek

---

<sup>53</sup> Авлоний А. Таржимаи ҳолим. // Танланган асарлар. Т.2. - Т.: Маънавият. 1998. Б. 289.

davlatlarda 65-66 ming aholiga bittadan tyeatr to'g'ri kyelib, jami 596 va 544 sahna jamoalari bo'lgani holda, Turkistonda millionlab aholiga ikki-uch milliy tyeatrning mavjudligi va ular ham yangi-yangi milliy asarlar bilan to'laqonli izga tushib kyeta olmayotganligi haqida» yozadi.

Jadidlarning Oktyabr' to'ntarishiga qadar yaratgan asarlari hayotning muhim, asosiy muammolarini o'z ichiga qamrab olgan edi. Jadid dramalari mazmun jihatidan chuqur, badiiy jihatdan g'oyat mustahkam yaratilar edi. Jadid adabiyoti hayot haqiqatlarini ochiq-oydin ko'rsatib, hayotiy hodisalarni chuqur ochar, jamiyat hodisalari mohiyatini ko'rsatar edi. Jadidlar o'z asarlarida «zamonaviy, maishiy-ma'rifiy muammolardan to ijtimoiy-siyosiy masalalarigacha qamrab oldilar. Shu ma'noda milliy dramaturgiyamizning 10-yillar so'ngidagi ulkan voqyealarga qadar kyechnan shakllanish jarayonlarini kuzatish, tadqiq etish davr ijtimoiy-madaniy va adabiy hayoti manzaralarini to'laroq tasavvur etish uchun imkon byeradi»<sup>54</sup>.

Turkiston o'lkasi 1913 yildan boshlab, 3-4 yil oralig'ida ovro'pocha tyeatr madaniyati shakllanib taraqqiy topa boshlagan ilg'or Sharq mamlakatlaridan biriga aylanib bormoqda edi. Bu jarayon milliy jadid ziyolilarining sa'y-harakatlari natijasi bo'lib, xalqimizning ma'rifiy saviyasi yuksalib borganidan dalolatdir.

Abdulla Avloniy haqiqiy madaniyatlilik belgisini uch qismga bo'ladi: ilm, maishiy turmush va axloq<sup>55</sup>. Shuning uchun bo'lsa kerak, u o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida: «Insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdu»<sup>56</sup>, – deydi. U ilmni diniy va fanniy qismlarga bo'ladi. «Diniy kishi bo'lmak uchun ulumi diniya o'qumak ila barobar hisob, handasa, tarix, hikmat, kimyo, tib, ziroat ilmlari kabi fanniy ilmlarni ham bilmak, chin olim bo'lmak lozimdur. Chunki bu ilmlarning ikkisi ham dunyo oxiratimiz, hayot va saodatimiz uchun eng kerakli narsalardur»<sup>57</sup>. Avloniy axloqning asosini tashkil etuvchi xulqni yaxshi va yomon kategoriyasiga bo'ladi va «tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar,

<sup>54</sup> Ризаев Ш. Жадид драмаси. - Т.: Шарк, 1997. Б. 99-100.

<sup>55</sup> Индамас. Маданият тўлкинлари//Садои Туркистон, 1914. №9. 11 май.

<sup>56</sup> Авлоний А. Танланган асарлар. 2-жилд. Тошкент, Маънавият, 1998. Б.34.

<sup>57</sup> Ўша ерда. Б.49.

shunday o'sarlar, tabiat o'zgarmas"<sup>58</sup>, degan fikrlarni inkor etadi, tarbiyaning axloqqa ta'sirini ochib berar ekan "tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasi"<sup>59</sup> qatoriga kiritadi. Milliy taraqqiyot muammosini inson tarbiyasi bilan uzviy bog'liklikda talqin qilgan Xolid Sayyid o'zining "Tarbiyat ilmu a'zamdur" maqolasida millat ravnaqi, yurt taqdiri komil insonlar qo'lidadir, taraqqiy odamlarni tarbiyalamoq, ilm hunarga o'rgatmoq orqaligina paydo bo'ladi degan mazmunga urg'u beradi.

Milliy madaniyat masalasini nazariy jihatdan asoslashga harakat qilgan mualliflardan biri bu – Rauf Muzaffarzodadir. U o'z davrining yetuk jurnalisti sifatida "Sadoi Turkiston" sahifalarida madaniyat muammolarini hal etishning turli-tuman yo'llarini izlashga harakat qilgan. Chunonchi uning, "Millat krabi (kemasi) nima kutar", "Milliy hayot va Turkiston musulmonlari", "Madaniyat va biz", "Madaniy jarayon va milliy tariximiz", uch qismdan iborat "Madaniyat nardboni", "Din, millat milliyat ila qoyimdir", "Til va imlo masalasi" va boshqa qator maqolalarida Turkiston musulmon madaniyatining taraqqiyoti yo'llari, hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar, bartaraf etilishi zarur bo'lgan kamchiliklarni ochishga harakat qildi. Albatta uning g'oyalari M.Behbudiy, A.Avloniy, M.Abdurashidxonov kabi ziyolilarning fikr-mulohazalari bilan hamohang edi. "Ma'lumki odamning vujudi ikki narsadan iborat moddiy ruhiy a'zolar...va ruh degan ma'naviy ikkinchi bir badan bor. Odam bolasi aql va fikri taraqqiy etmasa albatta hayvondan juz'iy farqli bo'lib ko'zg'a ko'rila turgon mavjudotdan boshqa har narsani inkor etmakni o'ziga lozim bilur. ...Inson olam va ruh tarbiyasi ilagina insondir. Ruh tarbiyasi ko'rmagan, ilm va maorif ila aql va fikrini orttirmagan kishining somon ichida yonub kun o'tkargan ila turli mavjudot ichida turgoni orasida hyech farq qolmaydir"<sup>60</sup>, – deb yozadi muallif.

Muzaffarzoda Turkiston madaniy hayotidagi turg'unlikni tabiat hodisasi sifatida talqin etishga harakat qildi: "Shamol tabiatning yer yuzidagi eng kuchli vositachisidir. Shamol bo'lmasa va ul vositachilik qilmasa edi, qavm, tuprog' va

---

<sup>58</sup> Ўша ерда. Б.36.

<sup>59</sup> Ўша ерда. Б.38.

<sup>60</sup> Музаффарзода Р. Тарбияга аҳамият бермабмиз // Садои Туркистон 1914 № 43. 7 октябрь.

havo hyech harakat qilmasdan va ko'chmasdan yolg'uz bir o'rindagina turur edilal. Suvlar va dengizlar harakatlanmas, fo'rtonolar hosil bo'lmas va alhosil yer yuzida tabiat qo'li ila yuvilmas va sirlamas edi. Buning natijasi o'laroq havo buzulib turli hashoratlar yer odam bolalarig'a miskin bo'lmaslik darajasida salohiyatsiz bo'lib qolar edi. Bir tarafdin qaraganda bizim hozirgi holimizni ham shul namunaga tamom miqyosa tatbiq mumkindir. Hozirda millatimiz manzara nuqtai nazaridan xuddi dengiz o'rtasida to'xtab, yordamdan mahrum qolgan shamol kemasig'a o'xshaydir. Havodan yordamsiz qolgan kemadek Turkiston millati ham charchab qolgan, atrofda foydali va matlub tarafg'a qarab yuradigan shamollar kelganin kutmaddadir"<sup>61</sup>. Bu yangi shamollar albatta milliy va madaniy islohotlar jarayoni bilan kelishi lozim. U yurtdoshlarini "madaniyat qanday bo'lg'onini ko'zimiz bilan ko'rib tursak ham, madaniy bo'lg'on ehtiyojlarimizdan ko'z yumamiz"<sup>62</sup>, deb ayblaydi. Uning "Madaniyat nardboni" (Madaniyat narvoni ) nomli katta maqolasida "madaniyat" iborasiga bir-ikki so'z bilan ta'rif berib bo'lmasligini ta'kidlaydi: "qorong'u go'shalarg'acha o'zining nurini tushurgan madaniyat oftobining ismi har daqiqada tillarda so'ylanub ko'zlarga ko'rilsa ham oning nima ekanligi, buning ilagina albatta bilunib bitmaydur."<sup>63</sup> Rauf Muzaffarzoda "dunyoda hyech bir millat butun yigirmanchi asr madaniyatidan birgina martaba qo'li ila hovuchlab olmagan, har biri tadrijiy taraqqiy etkan. Millatlarning taraqqiy va tamaddun davrlari o'nlabg'ina emas, yuzlab hisoblanadurlar"<sup>64</sup>, deb hisoblaydi. Uningcha, "dunyoning qorong'u ko'chalarida madaniyatdan ilm va urfondan bebahra qolg'onlarga madaniyat, ilm va maorif nima ekanini bildira oluvchilar ilm va madaniyat dunyosida eng oliy siymolardan sanaladurlar."<sup>65</sup>

Jadidlar harakati davomida ularning matbuoti shakllandi. Jadidlar Toshkentda 1905-1906 yillarda "Taraqqiy" (muharriri-Ismoil Obiliy), "Xurshid" (muharriri-Munavvarqori), 1907-1908 y.larda "Shuhrat" (muharriri-A. Avloniy),

---

<sup>61</sup> Музаффарзода Р. Миллат краби нима кутар?// Садои Туркистон 1914 № 52. 17 декабрь.

<sup>62</sup> Музаффарзода Р. Маданият ва биз//Садои Туркистон 19014.№14. 30 май.

<sup>63</sup> Музаффарзода Р. Маданият нардбони 1 қисм.// Садои Туркистон 1914 № 33. 5 август,

<sup>64</sup> Ўша ерда.

<sup>65</sup> Музаффарзода Р. Маданият нардбони 2 қисм.// Садои Туркистон 1914 № 35. 20 август.

"Osiyo" (muharriri-Ahmadjon Bektemirov), "Tujjor" (muharriri-Saidkarimboy Saidzimboy o'g'li), Buxoroda 1912 yillarda "Buxoroyi sharif" (muharriri-Mirzo Jalol Yusufzoda), "Turon" (muharriri-G'iyos maxsum Husayniy), Samarqandda 1913 yillarda "Samarqand" (muharriri-M. Behbudiy), Toshkentda "Sadoyi Turkiston" (muharriri-Ubaydulla Xo'jayev), Qo'qonda "Sadoyi Farg'ona" (muharriri-Obidjon Mahmudov) gaz.lari va Samarkandda 1913-1915 yillarda "Oyina" (muharriri-M. Behbudiy), Toshkentda 1915 y. "Al-isloh" (muharriri-Abdurahmon Sodiq o'g'li) jurnallarini nashr qilishdi. Shuningdek, 1917-1918 yillarda Toshkentda "Najot" (muharriri-Munavvarkrri), "Kengash" (muharrirlari-Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori), "Turon" (muharrirlari-M. Afandizoda, A. Avloniy), "Ulug' Turkiston" (muharriri-Kabir Bakirov), "Shuroy Islom" (muharriri-Abdulla Battol), "Turk so'zi" (muharriri-Temirbek Xudoyorxonov), "Turk yeli" (taxririya), Samarqandda "Hurriyat" (muharrirlari - Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat), Qo'qonda "Tirik so'z" (muharriri-Obidjon Mahmudov), "Yel bayrog'i" (muharriri-Bo'lat Soliyev) gazetalari va "Kengash" (muharriri-Hamza), "Yurt" (muharriri-Ashurali Zohiriy) jurnallari chop qilindi. Matbuot millat dilidagi gaplarni o'z saqifalariga ko'chirish bilan kifoyalanmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish masalasini o'rta qo'ydi. 1909 yillarda Toshkent yosh ziyolilari tomonidan "Jamiyati xayriya" tashkil yetildi. Mahalliy yoshlardan davlat mahkamalarida, sanoat, tijorat sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash, kambag'al musulmonlarga madaniy-ma'naviy yordam ko'rsatish masalasi qo'yildi. Bu millatning boshqa xalqlar ichiga singib ketmasligi yo'lida ko'rilgan tadbirlar yedi.

Jadidchilik harakati 1906- 1916 yillarda o'zining asosiy yo'lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar yekan, o'zligini anglab, uyushishga chaqirdi. O'lka moddiy va ma'naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi. Cho'lpon she'r va maqolalarida mustamlakachilarning asl qiyofalarini ochib tashladi. Mashhur advokat U. Xo'jayev oliy o'quv yurtini tashkil yetish, soliqlarni tartibga solish, bolalar tarbiyasiga jiddiy ye'tibor berish masalasini bayon qildi. Lev Tolstoy bilan

fikrlashish chog'ida mashhur yozuvchini yon berishga majbur yetgan U. Xo'jayev chor hukumati ma'murlarining poraxo'rliigi va zolimligini fosh yetib, ayrimlarini davlat ishidan chetlatishga yerishdi. Musulmon aholisiga amaliy tarzda yordam berib, mavjud hokimiyat qonun-qoidalarini tushuntira bordi.

Jadid matbuoti o'z vakillarining fikrlarini e'lon qilar yekan, xalqni "har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi" "millat ongining ochqichi" yekanligini namoyon yetish b-n birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda "Erk", "Turon", "O'qituvchilar jamiyati" kabi uyushmalar paydo bo'ldi. Munavvarqori aytganidek, "Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haququklarini ovrupoliklar b-n tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil yetishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan yedi".

Mahalliy gazetalarda reklama va e'lonlar ham berib borilgan. Asosan savdo kompaniyalari va magazinlar faoliyati reklama qilingan. Masalan, "Taraqqiy" gazetasida Muhammadsharif Musin kompaniyasining do'konlari joylashgan erlar, savdoga chiqariladigan mollar haqida ma'lumot berilgan. Bu davrda gazetalar obunadan tushgan mablag'dan tashqari, reklama va e'lonlardan ham daromad olib turgan.

1912 yilta kelib ma'rifarparvarlik harakati butun o'lkaga keng yoyilgan, madaniyat, maorif orqali milliy ozodlikka chiqish uchun kurash Buxoro, Samarqand va Qo'qon shaharlarida ochiq boshlanib ketgan edi. 1913 yilga kelib esa bu shaharlarda gazeta-jurnal chiqarish orqali tashviqot va targ'ibot ishlar olib borish imkoniyati tug'ildi. Turkistonda ham ishchilar harakati jonlanib qoldi, hukumatga muxolifotdagi matbuot nashrlari yana paydo bo'la boshladi. Bu davrda "Xurshid", "Shuxrat", "Tujjor", "Osiyo", "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", keyinchalik, "Najot", "Farg'ona sahifasi", "Sho'roi islom", "Turon", "Hurriyat", "Kengash", "El bayrog'i", "Turk eli", "Farg'ona nidosi" kabi bir nechta mahalliy nashrlar nashr qilindi.

Turkiston vaqtli matbuotining rivojlanishida mahalliy ziyolilarimizning o`rni nihoyatda kattadir. Biz ularni quyidagi ko`plab milliy ziyolilarimizning ish faoliyatlarida ko`rib o`tishimiz mumkin. Ulardan biri Munavvar qori Abdurashidxonovdir. Munavvar qori Abdurashidxonov 1878 yil Toshkentning Shayxontohur dahasi Darxon mahallasida tavallud topgan. Toshkentdagi Yunusxon madrasasida, so`ngra Buxoroda tahsil olgan. Munavvar qori Turkiston o`lkasida yangi usul maktabini birinchi bo`lib 1901 yilida o`z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida ochishga muvaffaq bo`ldi. Bu maktablar uchun “Adibi avval” va “Adibi soniy” deb nomlangan darsliklar yaratdi. “Taraqqiy”dan keyin milliy matbuotimiz namunasi bo`lgan “Xurshid” gazetasini nashr qildi. “Najot”, “Kengash”, “Osiyo”, “Hurriyat”, “Turon” gazetalarida bosh muharrir, “Sadoi Turkiston”da esa bo`lim muharriri bo`lib xizmat qilgan. 1931 yilda kommunizm qatag`onining qurboni bo`lgan. Masalan, “Xurshid” gazetasining nashr qilinishida Munavvar qori Abdurashidxonov xizmatlari nihoyatda kattadir. Yaqingacha biz “Xurshid” gazetasining birinchi soni qachon bosilgani to`g`risida ma`lumotga ega emas edik. endilikda buni aniqlash mumkin bo`ldi. “Xurshid” gazetasining birinchi soni “Turkiston viloyatining gazetasi” ro`znomasida chop etilgan (1906 yil, 21 sentyabr, 47-son) “Po povadu gazeta “Xurshid v Tashkente” sarlavhali maqoladan ayon bo`lishicha, 1906 yil 6 sentyabrda chiqqan<sup>66</sup>. Shu maqolada ko`rsatilshicha, birinchi son to`rt sahifadan iborat bo`lgan. Gazetaning Alisher Navoiy nomidagi respublika xalq kutubxonasining nodir nashrlar bo`limida “Xurshid”ning 2- va 3-sonlarigina saqlanib qolgan. 2-son 14 sentyabr chorshanba kuni, 3-son esa 21 sentyabr chorshanba kuni chop etilgan. 2-sonining birinchi sahifasida gazetaning chiqish muddati va mazmun yo`nalishini anglatuvchi quyidagi so`zlar yozilgan: “Hozir haftada bir marta, tezdin 2-3 bora chiqadurg`on ilmiy, adabiy, siyosiy, maishiy turkcha jaridadur”<sup>67</sup>. Mazkur sonlarning har ikkisi ham tosh bosma usuli bilan chop etilgan, Ziyosaidning ko`rsatishicha, “Xurshid”ning to`rtta soni tosh bosmada, qolgan sonlari mix

---

<sup>66</sup> Пидаев Т. Матбуот миллат чироғи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – Б. 14.

<sup>67</sup> Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 32.

bosmada chiqarilgan. 2-sonda gazeta chop etilgan bosmaxona, gazetaning sotilish narxi, taxririyaq manzilgoxi, muharrir va noshirning ism-sharifi haqida ma`lumotlar keltirilgan. Gazeta Toshkentda, V.M. Il`inga qarashli xususiy tipolitografiyada chop etilgan. Gazeta muharriri va noshiri Munavvarxon Abdurashidxonov deb ko`rsatilgan. “Xurshid” gazetasning mavjud sonlari uning sahifalarida yoritilgan, ko`llanilgan janrlarning xilma–xilligidan dalolat beradi.

Behbudiy Turkistonda bir nechta gazeta va jurnallar chop etilishiga ko`maklashdi va boshchilik qildi. Ana shunday nashrlardan biri “Samarqand” gazetasidir. “Samarqand” gazetasi Samarqand taraqqiyparvar ma`rifatchilarining to`ng`ich gazetasi bo`lib, u 1913 yil aprel` oyida Mahmudxo`ja Behbudiyning mas`ul muharrirligi ostida chiqqa boshlagan. Gazeta haftada 2 marta 2 sahifada (7-, 8-sonidan so`ng 4 betli) chiqqan. Shuningdek, u 400–600 nusxadan iborat bo`lgan. Tili sof o`zbekcha bo`lmagan, har bir sonida tojikcha she`r na maqolalar ham bosilib turgan. Biroq, “Samarqand” gazetasi moddiy tomondan qiynalib, 45-sonida to`xtashga majbur bo`lgan. Mirzohid Mirvohidov (Quqondan), Akobir Shomansurov (Samarqanddan), ikki yuz mushtariy 500 so`m iona to`plab, yana nashr qilinishini so`rab muharrirga telegramma bergan bo`lsalar ham, gazetani qayta nashr etish mumkin bo`lmagan<sup>68</sup>.

“Samarqand” gazetasining bosilish jarayonida unga 2 marta ruxsat olingan bo`lib, birinchisi 1913 yil 10 aprelda beriladi va shundan so`ng gazeta chiqqa boshlaydi. Shu bilan birga, Behbudiy negadir 1913 yil 23 may kuni Samarqand viloyati harbiy gubernatoridan “Yangi Samarqand” (“Samarqandi nav” – “Noviy Samarkand”)<sup>69</sup> nomli gazeta chiqarishga ruxsat berishini so`rab yana ariza yozadi. Bu haqda Avsharovaning “Russkaya periodicheskaya pechat` v Turkestane (1870–1917)” kitobida shunday deyiladi: “Mahmudxo`ja Behbudiy nashr etgan bu gazeta avval “Samarqand”, bir necha soni chiqqach esa –26-, 27-sonlaridan so`ng “Noviy Samarkand” nomi bilan chiqdi. Bu vaqtinchalik o`zgarish gazetadan axborot olishda har xillikka olib keldi. 28-sonidan boshlab

<sup>68</sup> Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи ( Генезис ва эволюция ). Биринчи жилд, – Т.: Шарк,2008. – Б. 148.

<sup>69</sup> Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар. Танланган асарлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б.42.

esa u yana o`z nomiga qaytdi”<sup>70</sup>. Bu murojaat gazetaning deyarli har sonida berilishiga qaramasdan, joylardan maqola va xabarlar ko`p kelmaydi. Behbudiy muharrirlik faoliyatining diqqatga sazovor tomoni yana shundaki, u gazeta-jurnalda biron-bir nashrdan ko`chirib yo tarjima qilib material bersa, uning ostida albatta “Idora” yoki “Samarqand” imzosi bilan o`sha material, maqola, sharhga izoh beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston jadidlarining asarlarida milliy madaniyat rivoji masalalari ham moddiy, ham ma’naviy zamin asosida yaratilishi zarur, degan fikr ustuvorlik qildi. Chunki ular o`z davrining kishisi sifatida ijtimoiy hayotdagi yechilishi lozim bo`lgan muammo va kamchiliklarni o`z ko`zlari bilan ko`rdilar, jamiyat tanazzulini his qildilar. Taraqqiyparvarlar ko`p hollarda o`z fikr-mulohazalarini xalqqa tanqidiy ruhda yetkazishga harakat qilganlar. Chunki jamiyat maishiy turmushida kamchiliklar shu qadar yetilgan ediki, ularni faqatgina tanqid qilish yo`li bilangina bartaraf etish mumkin edi. Mualliflar boshqa xalqlar bilan ijtimoiy munosabatga kirmay turib, jahon madaniyatiga, milliy taraqqiyotga erishib bo`lmaydi va o`zga millatlar turmush tarzining ibratli jihatlaridan foydalanishni madaniyatlik belgisi deb hisoblaganlar. Shuningdek ular taraqqiyotning moddiy asosini mustahkamlash, ya’ni eng avvalo, iqtisodiy madaniyatni yaratishga asosiy e’tiborni qaratgan holda, ma’naviy zaminni mustahkamlash masalasini bosh o`ringa olib chiqdilar. Ular tarixga murojaat orqali milliy madaniyatni qayta tiklash, yanada rivojlantirish, o`z davri talabiga moslashtirish kabi muammolarni ilgari surdilar va madaniyat rivojida tadrijiylik zaruriyati masalasiga alohida e’tibor qaratdilar. Zotan, ular madaniyat rivoji bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jabha ekanligini va bu sohadagi shoshma-shosharlik kutilgan natijalarga olib kelmasligini juda to’g’ri anglaganlar.

---

<sup>70</sup> Абдуазизова Н.А. Ўзбекистонда ижтимоий–сиёсий, адабий–бадий журналлар ва уларнинг тарихий–тадрижий таснифи масалалари ( XIX аср охири – XX аср бошлари ): Тарих фан.докт. ... дисс.– Т., 1997. – Б. 55.

## **II-bob. Turkiston jadidlari tafakkurida jamiyatni modernizatsiyalash masalasi.**

### **II.1. Jadidlar tafakkurida obod turmush g'oyalari.**

Jadidchilik oqim emas, xarakat. Ijtimoiy, siyosiy. ma'rifiy xarakat deya yuqorida takidlagan edik. Yakingacha xam u faqat ma'rifatchilik xarakati deb kelindi. Bu ataylab qilingan edi. Maqsad —jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik- kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Aslida esa:

1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi;

2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy xarakatning dastlabki natijasi edi;

3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.

Turkistondagi jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rossiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik xarakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda yuqorida nomini zikr etganimiz Ismoilbek Gaspralining «Tarjimon» gazetasi (1883) va u asos solgan «usuli jadid» (ikkinchi nomi «usuli savtiya») maktabi (1884) xal qiluvchi rol o'ynadi<sup>71</sup>. Shuningdek, bizdagi XIX asrning boshlaridagi eski maktab-madrasa tizimidan noroziliklar, taraqqiyotga to'siq bo'la boshlagan

«Jadid» atamasi Turkiyada XX asr boshidagi adabiyotga, uning xam birgina yo'nalishiga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, «Rusiya jadidchiligi» o'zimizda esa, «Buxoro jadidchiligi», «Turkiston jadidchiligi» degan atamalarni uchratamiz. Bizningcha, xarakat umumiy, ko'rinishlar konkret bo'lgani uchun farqli, mohiyat bitta — yangilanish. Bu turli joyda turlicha shaklda namoyon

---

<sup>71</sup> Мунавваркори Туркистои жадидларнинг янги мактаб борасидаги фикрлари асосан «Таржимон» орқали шаклланиганини алоҳида таъкидланди

bo'ldi. Masalan, Turkiyada 1839 yildagi mashxur Mustafó Rashit Posho tomonidan yozilib, Gulxona maydonida e'lon etilgan va tarixga «Gulxonai xatti Xumoyun» nomi bilan kirib, «Tanzimot»ni boshlab bergan davr xam, bizcha, yangilanishdir — jadidchilikdir.

Tug'ri, u asosan, g'arblashishni tamal qilib olgan edi. Shuning uchun xam ko'p o'tmay, bunga qarama-qarshi ravishda «turkchilik», «usmonchilik», «islomchilik», «turonchilik» kabi milliy g'oyalar o'rtaga tashlandi. Evropalashish bizda xam jadidchilikning muhim xususiyatlaridan bo'lgan. Chor xukumati bundan mahalliy xalqni Ruslashtirish yo'lida foydalandi xam. Lekin mezon mahalliy xalqning o'z dini va e'tiqodini daxlsiz qoldirish, Evropa ilm-fanini shularning muxofazasiga xizmat qildirish uchun bu yerda xam kurash ketdi. Turkchilik, islomchilik, maxalliy o'zbekchilik kabilarning bu asrda xam maydonga kelishi bejiz emas. Aslida, bizning jadidlarda fikr va g'oya juda kuchli.

Nixoyat, bizdagi jadidchilik Kavkaz, Volgabo'yi, Turkiyadagi jadidchilikka nisbatan an'analarga ko'proq bog'lanib qolgan, umumevropa ijtimoiy-madaniy jarayoniga tortilish darajasi qiyinroq kechgan jadidchilik. Bizda xar bir yangilikning kirib kelish jarayoni g'oyat og'ir kechgan. Mana shu xil asliy xususiyatlarimizni anglash va anglatishda ziyolilar zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklatilgan edi. Tarix shunchaki xabardor bo'lish uchun o'rganib qo'yilmaydi. U oyna, ibrat, tarbiya vositasi bo'lmog'i kerak edi. Lekin ularni oldin bilmoq, kerak, keyin qanday tiklash masalalarini o'ylamoq, lozim.

Ikkinchidan, birgina tarix bilan cheklanib bo'lmasdi. Undan kelib chiqqan xolda zamon extiyojiga javob bermoq lozim edi. Milliy mafkura konsepsiyasi millatning asliy xususiyatlaridan kelib chiqmog'i va uning tabiati, aqlu tafakkuri, extiyoj-zarurati, imkoniyati kabilarga mutanosib g'oyalar asosiga qurilmog'i lozim edi. Milliy ideallarimizni belgilash lozim edi. Unutilgan milliy qaxramonlarimizni, fan doxiylari, din doxiylari, xarb doxiylarini, mashhuri jaxon shoirlarimiz, ijodkorlarimizni tanish va tanitish kerak edi... Ular millatga xos aqlu zakovatini, sabru toqatni, g'ayrat-shijoatni, zavq-shavqini o'zlarida namoyon etgan

edilar. Qadriyatlar (din-diyonat, urf-udum, marosimlar), tarix va tarixiy shaxslar. Ular ko'targan adolat bayrog'i millatni bir va bor qiladigan asosiy omillar edi<sup>72</sup>.

Turkistonlilarning Rossiya va Turkiston doirasidagi milliy uyushma va xarakatlarga ishtiroki masalasiga qaytaylik. R. Abdullayevning «Islom dunyosidagi xamkorlik jarayoni va Turkiston jadidlari»<sup>73</sup> nomli qiziqarli maqolasi bosilib chiqdi. Rossiya qo'l ostidagi musulmonlarning aniqrog'i, turk (islom) xalqining o'zlikni anglash, til, din, urf-udum asosida o'zaro yaqinlashish va ularni muxofaza qilish uchun birgalikda kurashish, pirovard-oqibatda siyosiy mustaqillikka erishish yo'lidagi XIX asrning 80-yillarida boshlangan xarakatlari 1905 yil Rossiyadagi tarixiy shart-sharoitlar bilan amaliy tus oldi. Lekin Ismoilbek va Alimardonbek mazkur yig'in «xalqlarning afkor va maromlarini, idrok va darajotini mezona tortajak majlisi ibtidoiya» ekanligi, «sotsial demokratik emaslagini maydoni mushovaraya chiqarmoq munosib xol ko'rilmaligi» sababli ularga izn bermaydilar. Faqat ikki kishiga muzokaralarda qatnashmaslik sharti bilan «somiun» (tinglovchi) sifatida paroxodga chiqishga ruxsat etiladi. Vakillar xar viloyat, shaxardan 2-3 kishi bo'lib ular orasida Abdurashid Ibroximov, 2 kun oldin Fransiyadan yetib kelgan Yusuf Oqchura kabi dunyoga tanilgan kishilar bor edi. Tush vaqti majlis boshlanadi. Ismoilbek — rais, Alimardonbek bilan Abusaudmirzo muovinar qilib saylandilar. Asosiy masala «Rusiya musulmonlarining xuquqi siyosiy va ijtimoiy xuquqlarini... mudofaa etmak matlabi»ni ko'zda tutuvchi «Ittifoqi muslimin» jamiyati ta'sis etiladi. Uning taktikasi muxokama qilinib, «ruslarning eng a'lo bir firqasi-la muttافikan» ish ko'rmog'i maqsadga muvofiq topiladi. Ishni yo'lga qo'ymoq uchun barcha viloyat va mintaqalarda, shu jumladan, Turkistonda «Ittifoqi muslimin» sho'balarini ochishga kelishilib, munosib kishilar tayin etiladi. «Ittifoq»ning nizomini tuzish va II Shuroyi ummatga taqdim etish Alimardonbek To'pchiboshevga topshiriladi.

Lekin, afsuski, 1906 yilning 19-23 yanvarida Sankt-Peterburgda to'plangan 11-syezd ko'ngildagidek o'tmadi. Avvalo, bu syezd xam norasmiy,

---

<sup>72</sup> Бегали Қосимов «Миллий уйғониш» Т, «Шарқ» 2000 й, 25 бет.

<sup>73</sup> Қаранг: китобда: Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараккиёт учун кураш. Т. «Университет», 1999. 69—82-б

yashirin o'tkazildi. Ikkinchidan, shoshilinch chaqarilganligi pand berdi. Yetarli sharoit bo'lmadi, eng yomoni igvogarlar kirib qolgan, syezd yo'nalishini bo'zishga erishdilar. «Tarjimon»ning yozishiga qaraganda, syezdga 108 vakil qatnashgan. Majlis mitingga aylanadi. Uni boshqarayotgan Ismoilbek sotsialistlar xurujini ko'rib, rayosatni tark etadi va majlisdan chikib ketadi. Nizom «muvaqqat»ligicha qoladi<sup>74</sup>.

Shuning o'zi xam muxim edi. Chunonchi, 23 bandlik nizomda Rusiyada yashovchi musulmonlar joylashish o'rinlari, qavmiy xususiyatlari jixatidan 16 tumanga bo'lib chiqilgan, xar birining markazida kengashlar tuzilib, ularning a'zolari umumiy yig'ilishlarda saylangan vakillardan tashkil topar edi<sup>75</sup>. Buni Bexbudiy xam tasdiqlaydi: «Ushbu yil (1906 yil ko'zda tutiladi) avvalida, — deb yozgan u «Xayrul umuri avsatuxo» maqolasida, — Petrburgda g'ayrirasmiy yana bir majlis-syezd yasab, qarornoma nashr etdilar»<sup>76</sup>. 11-syezd 1906 yilning 16 avgustida Nijniy Novgorodda to'planib, 5 kun davom etdi. Oldingi xar ikkisidan farqli o'laroq majlisga ikki kun qolganda Ichki ishlar vazirligidan ruxsat olishga muvaffaq bo'lmadi. Lekin bu yig'in, xam «osoyishta» o'tmadi. To'g'rirog'i, o'tar-o'tmas, Davlat Dumasidagi musulmon fraksiyasiga chor rasmiy matbuoti xujum boshladi. Xujumning musulmon fraksiyasiga qaratilgani sababi shunda ediki, oldingi xar ikki anjuman singari buni xam Dumadagi Musulmon fraksiyasi vakillari, aniqrog'i, Ismoilbek Gasprinskiy, Alimardonbek To'pchiboshev, Abdurashid Ibroximov, Sadri Maqsudiylar uyushtirgan edilar.

Markaziy ko'mita a'zolari partiyaning yangi tayyorlangan 75 moddalik dasturini muxokama etdilar. Ikkinchidan, syezd Rusiyadagi barcha musulmonlarning milliy-maishiy xayotlariga oid zarur qarorlar qabul qilindi. Xususan, maktab-madrasalar ta'limini muvofiqlashtirishni ko'zda tutuvchi 23 moddalik g'oyat muhim bir dasturni tasdiqladi. Unda barcha ibtidoiy (boshlang'ich) va rushdiy (o'rta) maktablarda «ta'lim ona tilida bo'ladi» (3-modda), «8 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarning o'qishi majburiy»

---

<sup>74</sup> Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т. “Университет”, 1999. 71-6

<sup>75</sup> М.Бехбудний. Танланган асарлар. 2-нашри, Т., 1999, 149-6.

<sup>76</sup> О'sha joyda.

deb yozilgan edi. Diniy idoralarga imomlarga ajrnomalar yuborish topshirildi, qozi-muftilar bu ishni lozim darajada nazorat qilmasalar, ishdan olishgacha jazo qo'llashga qaror qilindi<sup>77</sup>. Shuningdek, «qarorda o'qish va ta'til muddatlari, barcha maktablarning dasturlarini bir-biriga yaqinlashtirish, ularni tuzish va muxokama qilish uchun 1907 yilning mayida bo'ladi. Bu partiya 31 kishini a'zoi markaziya saylab, ularga Bodi kubodagi (Boku ko'zda tutilmoqda) Alimardonbek To'pchiboshev janoblarini sadrnishin va Qozondagi Yusuf Afandi Okchurin janoblariiii mustashor sailabdurlar...» R. Abdullayev 15 ta deb keltiradi<sup>78</sup> «Tarjimon» gazetasida «Musulmonlar ittifoqi»ning idorai markaziga sayilanmish kishilarnng asosiysi» sifatida 15 kishining ro'yxati berilgan. Bular Abdurashid Ibroximov (Peterburg), Yusuf Okchurin (Qozon), Saidgaray Alkin (Qozon). Ismonlbek Gasprinskiy (Bog'charoy). Alimardonbek Tupchiboshev (Boku). Mullo Abdulla Apanayev (Qozon). Olimjoi al-Barudiy (Qozon), Sadridin Maksudov (Qozon). Xaydarmirzo Sirtlonov (Ufa), Muso Begnev (Peterburg). Abdulla Ne'matullin Bubiy (Vyatkii), Xodi Maqsudiy (Qozon), Mustafo Davidovich (Bog'charoy). Salimgaroy Jonturin (Ufa)<sup>79</sup>, «Saylaimish kishilarnng asosiisi» deyilishiga Qaraganda yana qo'shilgan tarkibda Turkistondan biror kishi yo'qligi xam buni ko'rsatib turibdi. Bexbudiy yuqoridagi maqolada yozadi: «Bu 31 nafar a'zolarina Rusiyadagi axli musulmonlardan bir necha a'zo intixob qilib olmoqqa qaror bermishlar. Ammo bu bobdagi jaroid va tasvidatga qaraganda bizni Turkistondai bir nafar a'zo iitixob qilmoqqa qaror bermishlar. -Lekin 6 millionlik Turknston musulmonlaridan bir a'zo ozdur. Besh oblustdan 30 nafar, xam Buxoro va Xeva va Turkistoni Chiniydagi musulmonlardan birtadan a'zo olmoq lozimdur. Bu komitet va a'zolar vaqt-bevaqt jamlanib, diniy va ilmiy maoshi tug'risinda mashvarat qilib musulmonlarni ilman va molan, dinan taraniy va taolilariga xizmat qiladurlar...»<sup>80</sup>

---

<sup>77</sup> Бехбудий. Танланган асарлар. 2-нашри. Т., 1999 йил, 149-бет.

<sup>78</sup> Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т. «Университет», 1999. 72-6

<sup>79</sup>Бегали Қосимов «Миллий уйғониш» Т, «Шарк» 2000 й, 53 бет. («Таржимон» г.. 1906 и., 4 сентябр, 99-сон).

<sup>80</sup> М.Бехбудий. Танланган асарлар. 2-нашри, Т., 1999, 149-6.

«Ittifoqi musulimin»ning bunyod bo'lishi va uch yig'ini shu yo'ldagi xarakatlardan edi. Bexbudiyning yaqinda Ismoilbek Gasprali arxividan topilib, taniqli tadqiqotchi Temirxo'ja tomonidan nusxasi va izoxlar bilan Gollandiyada nashr etilgan «Turkiston muxtoriyati loyixasi»<sup>81</sup> bunga yana bir karra ishontiradi. Bexbudiy 1907 yilda yozib, «Ittifoqi musulimin» muxokamasiga taqdim etgan ushbu loyixada juda katta jur'at va jasorat bilan Turkistonning ijtimoiy, siyosiy, madaniy qurilishi — davlat idorasi dasturi tuzib berilgan ediki, u xaqda tarixchi va xuquqshunoslarimiz o'z fikrlarini bildiradilar.

Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o'lkasi general-gubernatorlaridan biri A.N. Kuropatkinning o'z kundaliklarida, biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan chetda tutib turdik, degan so'zlari yaqqol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus taraqqiyparvar ziyolilari orqali rus va jahon ilm-fani va madaniyati xam chor ma'muriyati to'siqlari orasidan sizib kirar edi. Shu ijobiy ta'sir asta-sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi Uyg'onish davrini boshlab berdi. Maxalliy ziyolilar orasida o'z xalqini ozod ko'rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu Uyg'onish Yevropa ma'rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli bo'ldi. Shuningdek, o'rta asrlar o'rtaga tashlagan ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun xam endilikda amaliy shakllarda yangicha-ma'rifatchilik tarzida namoyon bo'lish imkoniyati yaratildi. Zero o'sha g'oyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan faoliyatli ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar.

Ma'rifatchilik asosan uch soxa orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmli-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ahloqiy darajasini yuksaltirish va

---

<sup>81</sup> Қаранг: Туркистонда янгилик ҳаракатлари ва ихтилофлар (1900—1924). Нашрга тайёрловчи Темурхўжа. Шарлем (Голландия). 2001 йил. 436-447-бетлар.

ana shu ikki jixatning uyg'unlashuvi natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi.

Turkiston ma'rifatparvarlari orasidagi yana bir mutafakkir ta'limshunos, pedagog va axloqshunos Abdulla Avloniydir (1887-1934). Uning XX asr boshlarida Turkistonda mashhur bo'lgan «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913) asari ahloqiy muammolarga jadidchilik nuqtai-nazaridan yondoshishi, ko'pchilikka tushunarli tilda yozilgani bilan ajralib turadi. Agar Anbar otinning «Qarolar falsafasi» risolasida dolzarb ahloqiy muammolarga majoziy-falsafiylik, ilmiy, nazariy xulosalar orqali yoritilsa, Avloniy asarida fazilatlar va illatlarga ko'proq tarif berish, ularni sharxlash yo'li bilan yondoshiladi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida an'anaviy-falsafiy yondoshuv bo'lmish antropologik nuqtai-nazar bo'rtib ko'zga tashlanadi. Ammo bu yondoshuvning yangilangan mohiyati shunda ediki, tadqiqot obyekti sifatida makon va zamondagi umumiy mavxumiy inson emas, balki, muayyan, XX asr boshlaridagi, milliy ozodlikka, yangicha xayot tarziga intilishni o'z oldiga niyat qilib qo'ygan Turkiston fuqarosi olinadi. Ana shu yangi inson tarbiyasi bosh masala tarzida o'rta tashlanadi.

Faylasuf pedagog, avvalo, millatni tarbiyalashni o'z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to'xtaladi: otalar – to'ychi, uloqchi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar – o'zlari tarbiyaga muxtoj, dorilmualliminni tugatishi kerak bo'lgan, mudarrislar esa – darslari beimtixon, isloh yaqiniga yo'lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviylashtirish, islox qilishga intilayotgan ziyolilar qo'lga olishi kerak. Avloniy Rossiya xukumati u yer-bu yerda yangicha maktablar ochgani – shunchaki jahon jamoatchiligini chalg'itish ekanini, ochiq bo'lmasa xam, quyidagi ishora bilan aytib o'tadi: «... xukumat xammaning otasidir. O'z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmak lozim. Shuning uchun bizning Rusiya xukumatimiz o'gay bo'lsa xam, xar yerda bizlar uchun maktablar ochub, bolalarimizni tekin o'qitur.» Avloniy ana shu «o'gay tarbiyadan» ko'ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni

afzal biladi va va o'z davrini «Tarbiyaning zamoni – tarbiyaning ayni vaqti deb ataydi. Uning bu boradagi qarashlari xanuz o'z kuchini yo'qotganmaganligini, tarbiya – hozir ham jamiyat uchun dolzarb muammo ekanini Prezidentimiz Islom Karimov mashhur nutqlaridan birida (1995 yil 23 fevral) Avloniydan mana bunday deb ko'chirma keltiradi: «Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, «Tarbiya bizlar uchun yo xayot – yo mamot, yo najot – yo xalokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».

Avloniy tarbiyani, qadimgilar va o'rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari an'analariga suyanib, uchga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga alohida urg'u berib, uni «insonlarga eng muxim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi» tarbiya deb baholaydi. Fazilatlarni faylasuf-pedagog yaxshi xulqlar, illatlarni esa – yomon xulqlar deb ataydi. Fatonat, diyonat, sharaf, xayo singari musulmon Sharqi uchun an'anaviy bulgan fazilatlar sharxi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni suymak singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar xaqida alohida to'xtaladi. Vatanni suymoq lozim bo'lsa, uning yo'lida jonini fido etmoq yuksak ahloqiy insonga xos fazilatdir. Inson Vatanni tanlamaydi. «Biz Turkistonliklar o'z Vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskamular Shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z Vatanlarini tashlab xijrat qilurlar edi». Vijdon esa Avloniy nazdida, inson niyatlari va qilmishlarini aks ettiruvchi eng musaffo ahloqiy ko'zgudir, «inson aqli va fikrining xaqiqiy mezon».

Shuningdek, jadid axloqshunosligining allomasi intizom, iqtisod, idrok singari o'sha davrlarda xali ko'p quloq o'rganmagan fazilatlarni xam aloxida e'tibor bilan nazariy-amaliy taxlildan o'tkazadi, o'quvchiga iloji boricha qisqa va lunda tarzda taqdim etishga intiladi.

Abdulla Avloniy « Turkiy guliston...» da «yomon xulqlar» ga – illatlar tahliliga katta o'rin ajratadi. Millat taraqqiyotiga eng kuchli to'siq bo'ladigan illatlardan biri sifatida alloma jaholatni keltiradi: «Jaholat insoniyatning eng zo'r

dushmani va yomon xulqlarning boshlig'idir». Avloniy g'azab, shahvat, hasad, hizb, tama' singari illatlarga xam atroflicha ta'rif beradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Abdulla Avloniy axloqshunoslik tushunchalarining faqat pedagogik emas, balki xam falsafiy, xam badiiy jixatdan talqinini beradi. Chunonchi, u muayyan axloqshunoslik tushunchasi yoki ahloqiy me'yorning sodda, lo'nda tarifini taqdim etar ekan, ba'zi xollarda Suqrot, Aflotun, Arastu, Ibn Sino singari xakimlarning fikrlarini isbot tarzida keltirsa, goho ularni nazmiy tizmalar bilan o'quvchiga yetkazishga xarakat qiladi. Umuman olganda, Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yohud axloq» risolasi XX asr Turkiston ahloqiy tafakkurida eng salmoqli o'rinni egallaydigan, xam nazariy, xam amaliy axloq muammoalirini falsafiy va pedagogik yondoshuv orqali xal etishga bag'ishlangan yirik asardir.

Turkiston ma'rifatchilari ahloqshunosligida tom ma'nodagi milliy qaxramonimiz Abdurauf Fitratning «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» (1914) kitobi alohida o'rin tutadi. Avvalo, shuni aytish kerakki, «Oila» o'zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Unda xam tanqidiy rux, xam da'vat ruxi kuchli Fitrat ona Turkistonni ozod qurishni istaydi, buning uchun xar bir Turkistonlik oila bilim, axloq, a'mol va erk o'chog'i bo'lmog'i lozim. Mutafakkir yangi oilani ana shu tartibda qurishga da'vat etadi. xar jihatdan sog'lom bo'lgan oila yetishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko'tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi: «Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor...» – deydi alam bilan Fitrat.

Vatanparvarlik, millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, muallif kitobning birinchi qismini, ma'lum ma'noda me'yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan xar bir yangi oila qurmoqchi bo'lgan Turkistonlik kichik xajmdagi ahloqiy-maishiy, gigiyenik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab,

buzilishigacha bo'lgan xolatlarning ahloqiy asoslari to'g'risida xam to'xtalib o'tadi.

Fitrat xam tarbiyani an'anaviy yunalishda talqin etadi: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va ahloqiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uyg'unligida xaqiqiy inson kamol topadi deb hisoblaydi. Fitrat, ma'lum ma'noda, o'ziga xos ahloqiy tarbiya nazariyasini taqdim qiladi. U ixtiyor erkinligi muammosini mayl tushunchasi orqali o'rta tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, aloqa mayli, boshqalarga mehr-muxabbat mayli va xokozo. Bularning hammasida xam insonni jamiyat a'zosi sifatida, xam ijtimoiy mavjudot sifatida olib qaraydi. Shuningdek, u izzat-nafs, ayniqsa, iroda masalasiga aloxida to'xtalib o'tadi. «Iroda va ixtiyor» sarlavxasi ostida Fitrat farzandni irodali qilib tarbiyalashga da'vat etadi, iroda tarbiyasining to'rt bandedan iborat qoida-bosqichlarini taklif etadi. Bolani irodali qilib tarbiyalashda ota-onaning zo'ri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muhim ekanini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, Fitratning «Oila» kitobida amaliy ahloq bilan ahloq nazariyasi muammolari uyg'unlashib ketgan. Lekin unda pedagogik-didaktik uslub emas, jangovor chorlov uslubi ustun. Fitrat uchun yuksak ahloqiylik, erk va erksevarlik bilan mustaxkam bog'liq; Turkiston va Turkistonlikni ozod qurish, ya'ni milliy mustakillik mafkurasi kitobning ruxiga singdirib yuborilgan. Uni o'qigan kishi na faqat ahloqiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga qanday erishish kerakligini, balki, milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima-yu, unga qanday qilib erishish mumkinligini anglab oladi. Shu bois mutafakkir-jadid Abdurauf Fitratning «Oila» asari Turkiston milliy uyg'onishida benixoya katta rol o'ynadi. Ayni paytda, u xozir xam o'z ahamiyatini yo'qotmagan ajoyib ahloqiy-ma'rifiy risola sifatida alohida e'tiborga molik.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmli, xar jixatdan yuksak ahloq-odob egasi bo'lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy xarakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi ya'ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar qo'lida ekani xammaga ayon bo'lib qoladi. Shu bois ilg'or, ziyoli ayollar nafaqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik qilish, balki ahloqiy-tarbiyaviy risolalar yozish

yo'li bilan xam bo'lajak ziyoli onalarni voyaga yetkazishga xissa qo'shadilar. Shu jihatdan Olimat ul-Banotning Sankt-Peterburgda 1898 va 1899 yillarda ikki marta nashr etilgan «Muosharat odobi» «(Turmush odobi)» asari uz vaqtida katta ahamiyatga ega bo'lgan. «Agar xotun o'qigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak-shubhasiz biladi. Bolalarini esa go'zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo'ladi va nixoyat Alloh Taolaning amriga muvofiq xayot kechiradi», – deydi risola muallifi. Unda ayollarning turmushdagi o'rni, oilaviy vazifalari, er-xotin orasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi uy tutish, nikox va muxabbat borasida fikrlar bildiriladi. Ayni paytda, uy xizmatchilariga munosabatda insof va adolat yuzasidan, ularning xam uy egalariga o'xshash inson ekanliklarini hisobga olib, ish ko'rish lozimligi ta'kidlanadi, turmushning oqilona uyushtirilishi uchun xizmat qiladigan ibratli maslahatlar beriladi. Boshqa bir tatar ziyoli ayoli Faxr ul-Banot Sibg'atulloh qizining sakson yetti saboqdan iborat «Oila saboqlari» (1913) risolasi esa tarbiyaning turli tomonlarini birvarakay o'z ichiga oladi. Axloqshunos olimi o'z risolasi mohiyatini quyidagicha belgilaydi: «Oila saboqlari xonimlarga, qizlar maktabi shogirdlariga oila vazifalari to'g'risida foydali ma'lumot bergani kabi o'quvda tamom yengillik va bir tarafdin asosli bir axloq sabog'i xamdir». U o'n ikkinchi saboqda tarbiyani «ilmli axloqning tani, negizi» deb ta'riflaydi. Asar falsafiy mushohadalardan ko'ra ko'proq amaliy ko'rsatmalardan iborat. Ayni paytda, unda xam ma'naviyatga, xam moddiyatga zamonaviy munosabat masalasi o'rtaga tashlanadi, yuksak axloqli bolani voyaga yetkazishda xar ikki yo'nalishdagi tarbiyaning muhimligi ta'kidlanadi.

XX asr boshlarida amaliy axloq muammolari jadid matbuotida keng o'rin oladi. «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston», «Ulug' Turkiston», «Turon», «Xurshid» singari gazetalarda e'lon qilingan xajviy-jurnalistik asarlarda usha davr bayonlarining qoloqligi, chor mamuriyatining turachiligi, paranjining yangi zamonga mos kelmayotgani, talabalarga 5 so'm iona qilish o'rniga, besh yuzlab so'mni fohishalarga sochayotgan axloqsiz sarmoyadorlar qattiq tanqid ostiga olinadi. Maxmudxuja Bexbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Xamza,

Ubaydullaxuja Asadullaxujayev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon kabi Uyg'onish davrining buyuk namoyandalari o'z badiiy asarlarda axloq muammolarini dadil ko'tarib chiqdilar va ana shu nashrlarda o'z publisistikasi bilan xam faol ishtirok etdilar. Jadid matbuoti butun kuchini ozodlikni, Vatanni jondan sevuvchi, ilgor, tushungan, xar tomonlama kamol topgan erkin Turkiston fuqarosini tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Afsuski, dastlabki fevral inqilobi bergan xurriyat uzoqqa cho'zilmadi. Bolsheviklarning 1917 yilning 25 oktyabrida amalga oshirgan davlat to'ntarishi tez orada uning yutuqlarini yo'qqa chiqardi, Lenin boshchiligida ishlab chiqilgan yangi mustamlakachilik rejasi asosida barcha taraqqiyparvar kuchlar qatag'on qilindi. Falsafiy fanlar, shu jumladan, axloqshunoslik xam taraqqiyotdan to'xtadi. Ular mafkuraga bo'ysundirilib, soxtalashtirildi; erkin fikr tag-tugi bilan qo'porib tashlandi. Shu sababli jadidchilik o'z oldiga qo'ygan vazifalarini to'la ado etolmadi. Lekin, shunga qaramasdan Turkistondagi bu ma'rifatchilik xarakati qisqa muddat ichida bo'lsa xam mazlum xalqlarni ma'lum ma'noda uyg'ota oldi.

Xulosa kilib aytadigan bo'lsak, jadidlar millatni qoloqlik xurofot botqog'idan olib chiqish, obod turmush uchun harakat qilar ekanlar, bunda shariatga qat'iy rioya qilish orqali maktab va madrasalarda ta'lim byerish tizimini dunyoviy ilmlarni byerish asosida isloh qilish g'oyasini ilgari surganlar va bu borada o'zlari amaliy harakat namunasini ko'rsatganlar. Turkistonda jadidchilik harakati madaniy – manaviy va marifiy xarakatdan islohatchilik va siyosiy harakat darajasiga ko'tarilib borgan.

Turkiston milliy taraqqiyparvarlari yo'l boshchisi sanalgan Mahmudxo'ja Behbudiy 1906 yilda nashr etilgan "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy"<sup>82</sup> asarida o'z davrining ilg'or ziyolisi sifatida madaniyat masalasiga alohida e'tibor beradi. Asarda geografik va tarixiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, juda sodda tarzda osmon jismlarining joylashuvi va harakati tushuntiriladi, astronomik jadvallarni ilova tarzida beriladi. Shu bilan birga, muallif insoniyat va jamiyat hayotini tahlil

---

<sup>82</sup> Асарнинг тўлиқ номи “Китоби мунтахаби жуғрофияи умумий ва намунаи жуғрофия” деб номланади. У 1905 йил 24 августда Санкт-Петербург цензурасидан рухсат олинди, 1906 йилда Г.И.Демуров матбаасида чоп этилган. Бу ҳақда тўлиқ қаранг: Бехбудий М. Танланган асарлар.Т. Маънавият, 1999. –Б. 20-27

qilib, vahshiylik, badaviylik, va madaniylik bosqichlarini sanab o'tadi, hamda mutamaddun, ya'ni madaniyatli jamiyat yaratish uchun ilm, hunar, din zarurligini uqtiradi. "Vahshoniyat jamiyatida, – deydi u, shakllari inson va barcha harakatdagi it-ko'ppakdan baddardurki, insonlarni bidoyat holi yoinki ilmu adabsizlik martabasidir"<sup>83</sup>. Ikkinchi xil guruh "badaviylardurki, vahshoniyatdan taraqqiy yoinki madaniyatdan tanazzul"<sup>84</sup>dir. "Bu toifani umrlari mol boqmoq, yemoq, yotmoq ila sarf bo'lub, jamiyati bashariyag'a keragicha yordamlari yetmaydur. Chunki ilmlari kamdur"<sup>84</sup>. Behbudiy uchinchi toifa kishilarni "madaniyat" tushunchasi ostiga olib, "madaniy" yoki "shahariy" deb ataydi va quyidagi ta'rifni beradi: "Bularni aksar ishlari tartib va tajriba, ilm va fan va qoida bo'yicha bo'ladur. Maktab, madrasa, masjid, mahkama, ruhoniy-ulamo, ibodatxona, amir, hukmron, podshohlari bordur"<sup>85</sup>.

Taraqqiyparvarlar Turkiston madaniy taraqqiyoti jarayonida bevosita va bilvosita ishtirok etar ekanlar, ham nazariy, ham amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Ular xalqning ongida tub burilish yasashni istardilar. Professor D.A.Alimova ta'kidlaganidek, "Jadidlar mafkurasida – dinning inson ma'naviy kamolotidagi o'rnini to'g'ri tushunish, o'lkada o'ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish kabi tarixiy vazifalar jamlangan edi. Bu vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlari bo'lib, islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan yutuqlari va ilg'or texnologiyani egallash muammolarini hal etish lozim edi"<sup>86</sup>. Darhaqiqat, ular islomning taraqqiyparvar ahamiyatini tushuntirish bilan ta'lim, iqtisod, madaniyat va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etish zaruratini to'g'ri anglaganlar.

Milliy madaniyat masalasini nazariy jihatdan asoslashga harakat qilgan mualliflardan biri bu – Rauf Muzaffarzodadir. U o'z davrining yetuk jurnalisti sifatida "Sadoi Turkiston" sahifalarida madaniyat muammolarini hal etishning turli-tuman yo'llarini izlashga harakat qilgan. Chunonchi uning, "Millat krabi

---

<sup>83</sup> Бехбудий М. Танланган асарлар.Т. Маънавият, 1999. –Б. 23

<sup>84</sup> Ўша ерда.

<sup>85</sup> Ўша ерда.

<sup>86</sup> Алимова Д.А. Жадидчилик харакатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури //Жадидчилик:ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т.,Университет, 1999. Б.37.

(kemasi ) nima kutar”, “Milliy hayot va Turkiston musulmonlari”, “Madaniyat va biz”, “Madaniy jarayon va milliy tariximiz”, uch qismdan iborat “Madaniyat nardboni”, “Din, millat milliyat ila qoyimdir”, “Til va imlo masalasi” va boshqa qator maqolalarida Turkiston musulmon madaniyatining taraqqiyoti yo’llari, hal qilinishi lozim bo’lgan muammolar, bartaraf etilishi zarur bo’lgan kamchiliklarni ochishga harakat qildi. Albatta uning g’oyalari M.Behbudiy, A.Avloniy, M.Abdurashidxonov kabi ziyolilarning fikr-mulohazalari bilan hamohang edi. “Ma’lumki odamning vujudi ikki narsadan iborat moddiy ruhiy a’zolar...va ruh degan ma’naviy ikkinchi bir badan bor. Odam bolasi ahloqiy va fikri taraqqiy etmasa albatta hayvondan juz’iy farqli bo’lib ko’zg’a ko’rila turgon mavjudotdan boshqa har narsani inkor etmakni o’ziga lozim bilur. ...Inson olam va ruh tarbiyasi ilagina insondir. Ruh tarbiyasi ko’rmagan, ilm va maorif ila ahloqiy va fikrini orttirmagan kishining somon ichida yonub kun o’tkargan ila turli mavjudot ichida turgoni orasida hyech farq qolmaydir”<sup>87</sup>, – deb yozadi muallif.

Jadid matbuoti va ularning asarlarini tahlil etish shuni ko’rsatadiki, jamiyatni modyernizasiyalashda lozim bo’lgan jihatlardan biri – bu maishiy turmush tarzidagi islohotlar zaruriyati edi. Xususan, M.Behbudiyning “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Ehtiyoji millat”, “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?”, “A’molimiz yoyinki murodimiz”, A.Avloniyning “Madaniyat to’lqunlari”, “Kayfim uchdi”, “Zakot”, “Kim nimani yaxshi ko’rar”, M.Abdurashidxonovning “Nikoh to’g’risida”, “Bizni jaholat – jahli murakkab”, R.Muzaffarzodaning “Qo’rqinchli natijalar”, “Tarbiyaga ahamiyat bermabmiz”, “Turkistonning sayohati”, “Xatoi e’tiqodlarimizdan biri” va boshqa ko’plab maqolalarda o’sha davrda maishiy hayotdagi mavjud kamchiliklar qattiq tanqid ostiga olindi. Eng avvalo, ular to’y va ma’rakalarga ketayotgan ortiqcha sarflar xususida so’z yuritar ekanlar, xalqning vaqti behudaga o’tmasligi darkor, deb hisoblaydilar. M.Behbudiy: “qo’ldaki bor nimarsamizni to’yu azog’a, behuda odatlarg’a sarf etarmiz. Ko’rpamizga qarab oyog’ uzatmaymiz. Qarz ila imorat, to’y, fisqu boylik qilarmiz, isrof qilarmiz. Oxiri “xusrud dunyo va oxira” bo’lurmiz. Bu sabab ila

---

<sup>87</sup> Музаффарзода Р. Тарбияга аҳамият бермабмиз // Садои Туркистон 1914 № 43. 7 октябрь.

faqirlik darajasiga tushurmiz. Bir karra diqqat qilinsun. Bir yahudiy, bir o'rus, bir armani hyech vaqt to'y degan balog'a besh ming so'm, hatto bir-ikki ming so'm sarf qilingani eshitilmaydur. Biz bo'lsa yigirma ming so'mlab sarf etarmiz" yoki "Har kuni sudda naqadar hovli, xona, bog' sotilur. Bu nimaning jazosi? To'y, ma'raka, ta'ziya, ko'pkari, bazm. Bir mahallada ahli savod yigirmadan bir yo'q. Imoni islomni dalillari ila bilaturg'onlarni nari qo'yduk. Erta qozilar barham bo'lsa, zamoncha qozi bo'laturg'on birgina kishi o'n milyo'n Turkistonda yo'q... ..to'y va ma'raka qilinsun. Ammo hozirgidek isrof etmasdan qilinsun. Va mumkin qadarincha kichik qilinsun. Va ortiqcha pul ila bolalarni musulmon va rusiy yaxshi o'qitulsun. To'yu ma'rakag'a sarf qilinaturg'on oqchani eski madrasa va mozoru masjid hamda maktablarni shikast rextlarig'a sarf qilinsun. ...Aqchalik otalar, albatta to'y va ma'rakag'a qizg'onmaganlaridek, bolani o'qutishg'a ham qizg'onmasalar kerakdur. Bolalar uchun tarbiyatxona (pansiyon) ochmoq kerak. Va bu tarbiyatxonalar zamoncha va ham milliy va diniy ruhda bo'lishi kerakdir",— degan fikrda edi. Uning "ma'lum bir shaharda yahudiylar ba'zan o'luklarini oqshom eltib ko'marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo'lsa, o'luk va to'y uchun haftalar, hatto oylar ila ishdan qolurmiz", deydi va bu odatlarning xatoligini Qur'on va Hadislar orqali isbotlab beradi. Eng achinarlisi xalqning bu urf-odatlarini bajarish yo'lida qarzga botishi va yillab bu og'ir yukdan xalos bo'la olmasligi edi.

Munavvarqorining noroziligiga sabab bo'lgan "millat devorig'a raxna solgan narsalar – bo'zaxo'rlik, qimorbozlik, bachchabozlik, bazm qilmoq va yallochi o'ynatmoq, zino qilmoq, shikoyat qilmoq va bir-birlarini haqorat qilmoq"<sup>88</sup> kabi illatlarni ko'rsatish joiz. Ayniqsa u "dunyog'a nima uchun kelgonini bilmay, ilm va maorifg'a aslo rag'bat qilmay, jonidin shirin bolalarini ko'cha ba ko'cha kezdirib, bechora mas'umning aziz umrini jaholat otashina yondirg'uvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur. Ko'p dindoshlarimizni ko'ramizki, o'z farzandlarini aslo maktabg'a bermay orqalaridin ergashtirib, ruslar eshigida o'zlari kabi xizmatchilikka o'rgatib, dunyo va

---

<sup>88</sup> Никох тўғрисида//Абдурашидхонов М. Танланган асарлар.Т. Маънавият.2003. Б.140.

oxiratning saodati o'lg'on ilm va maorifdin mahrum qo'ymoqdin hyech ibo qilmaslar"<sup>89</sup>, deb tashvishlanadi. U millat ichida hukm surayotgan jaholat tufayli "arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridan chiqorib, iste'dod va g'ayratlarini choyxona va pivaxonalarg'a sarf etmakdadir"<sup>90</sup>, deb kuyinib yozdi.

"Har bir millat maishat tarafidan taraqqiyga yuz qo'ymasa, ma'naviy tarafdan, ya'ni ma'rifat tarafidan ham taraqqiy qilolmas"<sup>91</sup>, deb hisoblaydi A. Avloniy. Har bir inson o'zining maishiy turmushida ham o'zgarishlar yasashi lozim. Chunki moddiy boyligi bo'lmagan, unga intilmagan xalqqa madaniyat, taraqqiyot haqida gapiraverish kutilgan natijani bermaydi. Eng avvalo iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish darkor. Zero, "hozirgi zamonda botirlik – boylikda, qaysi davlat va millatning davlati bo'lsa, shul ustun bo'lmakdadir. Chunki hukumat uchun xalq, xalq uchun hunar, hunar uchun ilm, ilm uchun aqcha lozimdur"<sup>92</sup>. Uning fikricha, "Bobolarimizning "bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar" zamonlari o'tub, o'rniga "bilgan bitar, bilmagan yitar" zamoni keldi. Amerikaliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq bug'doy olurlar, ovrupoliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo biz osiyolilar, xususan Turkistonlilar, dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berub, sut oshiyimiz, non o'rnig'a kesak tishlaymiz. So'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas sa'y, bitmas g'ayrat lozimdur"<sup>93</sup>. U eng avvalo topilgan moliyaviy boylikning qadriga yetishga va behuda isrof qilmaslikka chaqiradi.

Turkiston axolisining taraqqiyot va madaniyatga yetishmayotganligining bosh sababi "to'y deb minglarcha aqchalarni behuda isrof qilmak, ...to'y degan yerda Vatanini sotub, sarf qilmoqdan tortinmaydirgan "hoziram huzuram" deb istiqbolini o'ylamagan"ligidadir. "Buning davosi va chorasi uchun hyech bir tabibga muhtoj o'lmasdan, balki bir oz orqa-o'ngg'a qaramak, hamyonning og'zini

---

<sup>89</sup> Бизни жаҳолат – жаҳли мураккаб// Абдурашидхонов М. Танланган асарлар.Т. Маънавият.2003. Б.142-143.

<sup>90</sup> Ўша ерда. Б.146.

<sup>91</sup> Индамас. Маданият тўлкинлари//Садои Туркистон, 1914. №9. 11 май.

<sup>92</sup> Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ// Танланган асарлар. 2-жилд.Тошкент, Маънавият,1998. Б. 47

<sup>93</sup> Ўша ерда. Б. 62

mahkam qilmak, iqtisodni rioya qilmak, isrofdan sahloqiyannmak lozimdur”<sup>94</sup>. Abdulla Avloniy ham barcha taraqqiyparvarlar singari o’z xalqini boshqa madaniy millatlardan o’rnak olishga undaydi va qaramlik sababini shijoatsizlikda ko’radi. Bu borada uning quyidagi fikrlari ahamiyatli: “Sarvatli millatlar milliyatlarini yo’qotmas, rohat va saodatda yashar. Bu kunda madaniy millatlar urushlarini tijorat va sanoatga aylاندurdilar va bu soyada bir-birlariga g’alaba va raqobat qila boshladilar. SehrGAR va jodugarlik ila emas, tijorat va sanoatgarlik ila cholishkon Ovro’po Afriqo va Osiyoni o’ziga asir va musaxxar qilmakdadur”<sup>95</sup>.

Madaniyat to’lqinlari kirib kelayotgan XX asr boshlarida Turkiston axolisining isrof va bid’atga qarab orqaga ketayotganligidan qattiq kuyungan A.Avloniy “yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o’qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta’limg’a mohir olim va olima, adib va adibalar yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartiblik bo’lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar yetushub, zamong’a muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartiblik “Doru-l-yatim”-yetimxonalar, “Doru-l-ojizin”-kambag’alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkatlar barpo qilinsa, zamonag’a loyiq ulum va funundan boxabar ulamolarimiz ko’paysa, och va yalang’och kishilarimizning maishatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o’qutulsa, axloq va odob o’rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo’stonig’a yuzlang’on hamda madaniyat to’lqunlaridan qutulub, sohili salomatg’a chiqg’on bo’lur eduk”, degan takliflarini o’rtaga tashlaydi.

Turkiston musulmonlarining Islom dini rad etgan ichkilikbozlik, qimorbozlik, zino kabi zararli odatlarni qabul qilayotganliklari oqibatida millat “qo’rqinchli natijalar”ga duchor bo’lishini Rauf Muzaffarzoda ta’kidlaydi va “so’nggi tiyinlarigacha zahar sotub olayotgan”, bu illatlar “ila o’zlarinigina emas, butun nasllarini zaharlarlar, buning barobariga yana butun nasl va oilani halok etadurgon qo’rqinchli va nafratli kasallar keltirurlar. Uch pulg’a arzimask nafs orzularig’a asir bo’lg’on sifahot askarlari endi din va millatni ajal og’ulari ila

---

<sup>94</sup> Индамас. Маданият тўлкинлари//Садои Туркистон, 1914. №9. 11 май.

<sup>95</sup> Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ... Б. 47

zaharlaydilar”<sup>96</sup>, deb hisoblaydi. Bunday insonlarni u “millat miqro’blari” deb ataydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston jadidlarining axoli turmushini o’zgartirish, jamiyatni yangi g’oyalar bilan to’ldirib borish zarurligi, ham moddiy, ham ma’naviy zamin asosida yaratilishi zarur, degan fikr ustuvorlik qildi. Chunki ular o’z davrining kishisi sifatida ijtimoiy hayotdagi yechilishi lozim bo’lgan muammo va kamchiliklarni o’z ko’zlari bilan ko’rdilar, jamiyat tanazzulini his qildilar. Taraqqiyparvarlar ko’p hollarda o’z fikr-mulohazalarini xalqqa tanqidiy ruhda yetkazishga harakat qilganlar. Chunki jamiyat maishiy turmushida kamchiliklar shu qadar yetilgan ediki, ularni faqatgina tanqid qilish yo’li bilangina bartaraf etish mumkin edi. Mualliflar boshqa xalqlar bilan ijtimoiy munosabatga kirmay turib, jahon madaniyatiga, milliy taraqqiyotga erishib bo’lmaydi va o’zga millatlar turmush tarzining ibratli jihatlaridan foydalanishni madaniyatlik belgisi deb hisoblaganlar. Shuningdek ular taraqqiyotning moddiy asosini mustahkamlash, ya’ni eng avvalo, iqtisodiy madaniyatni yaratishga asosiy e’tiborni qaratgan holda, ma’naviy zaminni mustahkamlash masalasini bosh o’ringa olib chiqdilar. Ular tarixga murojaat orqali milliy madaniyatni qayta tiklash, yanada rivojlantirish, o’z davri talabiga moslashtirish kabi muammolarni ilgari surdilar va madaniyat rivojida tadrijiylik zaruriyati masalasiga alohida e’tibor qaratdilar. Zotan, ular madaniyat rivoji bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jabha ekanligini va bu sohadagi shoshma-shosharlik kutilgan natijalarga olib kelmasligini juda to’g’ri anglaganlar. Sovet hokimiyatining “madaniy inqilob”i yakunlari esa, ularning bu fikrlari haqiqat ekanligini yana bir karra isbotladi.

---

<sup>96</sup> Музаффарзода М. Қўркинчли натижалар// Садои Туркистон 1914. № 29. 22 июль

## **II.2. Turkiston jadidlari qarashlarining siyosiylashuvi va o'lka hayotiga ta'siri.**

Ma'lumki, XX asr boshlari Turkiston taraqqiyparvarlari bo'lgan jadidlar madaniyat va ma'rifatni ijtimoiy taraqqiyotning bosh omili deb hisobladilar. Chunki o'lka XX asrga mustamlaka, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlardan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongdagi turg'unlik kabi illatlar bilan qadam bosib kirgan edi. Mustamlaka sharoitida, hukmron siyosiy mafkura doirasida qoloqlikdan qutulishning yagona yo'li – madaniy yo'nalish orqali taraqqiy etish mumkinligini tushungan ziyolilar eng avvalo, madaniy va maishiy xayotdagi qoloqlikni tugatish, milliy ongni isloh etishda til, tarix, matbuot, an'anaviy madaniyatni dunyo madaniyati tizimida qayta ko'rib chiqish zaruriyatini olib chiqdilar. Millatning madaniy taraqqiyotini ziyolilar boshqa xalqlar taraqqiyoti bilan qiyoslashga harakat qilib, ularning yutuqlari sabablarini aniqlashga, namuna olishga da'vat etganlar.

Jadidlar fan-texnikasi bilan dunyoni xayratga solgan kapitalistik Ovruponi xam, jannat va'da etuvchi sosiastistik Ovruponi xam rad etadi. Xar ikkisida xam axloksizlik ko'radi. Buni atroflicha asoslaydi. Muallifning fikrlash mantigi kuyidagicha: XIX asr Ovrupo madaniyati kadim Rim madaniyati ustiga kurilgan, uning bevosita davomidir. Rim madaniyati esa g'ayri ahloqiyligi sababli ko'lagan edi. Ularning o'rniga kelgan «kapitalist»-chi? Bu xakda M. Bexbudiy fikrlari kuyidagicha, Masalan, «Turkiston obod bo'ldi. Ilgari boy kam edi, milyunner yo'k edi...» deyдилar. 6 mln Turkistonli orasida 3 millioner bor. Ularni ,xam millioner deb bularmikin?! Katta imoratlar xammasi yaxudiylarniki, ovrupolilarniki. Turkistonlilar sinmokda... vakflar ketgan, madrasalar xarob... Kelajagi yo'q.

«Rusiya mamlakatiga mundin bexrok xizb yo'kdur» deb biladi Bexbudiy Sosial-demokrat, sosial-revolysioner («ishtirokiyuni inkilobiyun»). Xar ikkisining o'z oldiga ko'ygan asosiy maksadi mavjud «barcha konun, mulkiyat koidalarini butun buzub, mol va yerlarni .xamma xaloyik o'rtasiga mushtarak kilmok», «boylik va kambag'allikni yo'k kilib, dunyo moli roxatidan xammani

barobar foydalanmakti...» Muallif fikricha, avvalo, bunga davr, mavjud sharoit imkon bermaydi. To'g'ri, u mazkur g'oya amalga oshishi mumkin emas, chunki u g'ayriilmiydir, g'ayriahloqiydir, binobarin, g'ayriinsoniydir, deb aytolmaydi, xamonki dunyo kutilmagan ishlar bilan to'da ekan, bu xam amalga oshib kolishi mumkin-ku degan xavotir ko'nglining bir chetida turadi. Shunga karamasdan, uni «xayoliy» deb baxolaydi va «bu toifaga ko'shilmok biz musulmonlar uchun nixoyatda zararlikdur», «prugramlari..., oila bobidagi fikrlari xam aslo-aslo tug'ri kelmayur...» deb xulosa chikaradi. «Rusiya musulmonlari ittifoki» muallif ta'kidlashicha, «partiya suratiga kirgoniga bir yil bulgan», binobarin yangi partiya. U ilman, molan, dinan musulmonlarning tarakkiy va taoliylariga xizmat kiladur». Siyosatan esa, biror partiyaga ko'shilib ish ko'radi. Va u, extimolki, kadetlar partiyasidir.

Bexbudiy, millat orasida chukur tomir otgan «g'araz, nafsoniy, xasad, baxs va munozarai shaxsiyalarni tark etmok»ka, «shu maslak va shu jamiyatga tobe' va xodim bulmok»ka chakiradi. Din va davlatga, Vatan va Millatga xizmat etmokni sharaf xisoblaydi. 1917 yilda esa, biz Abdurauf Fitratning Oktyabr vokeasi munosabati bilan, «Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi. Bolshevik balosi!...» degan keskin fikrini bilamiz. Sung 1919 yilda «kommunist» Abdulla Avloniy butun Turkistonni «fano va ayanch xol»ga solgan, «xar yerda ish boshinda o'lturg'on», «o'zlari oshalab, biz musulmonlarga yalatu» bilangina kifoyalangan «rus tovarishlarimiz» xakida yezdi... ularni ikeskin koralaydi. Xullas, jadidlarning ma'rifatparvar ziyolilari, fidoiylari millatni ilmi, siyosiy sergak bo'lishga, milliy jixatdan uyg'onishga chorlaydi.

1917 yilning mart - aprel oylari o'lkaning siyosiy uyg'onishida burilish davri bo'ldi. Turkiston jadidlari, milliy ziyolilar hamda islom ulamolarining etakchilari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919), Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li (1878-1931), Ubaydulla Xo'jaev (1882-1938), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Mustafu Cho'qaev (1890-1941) va boshqalar o'lkada yangi tashkil qilingan "Sho'roi Islomiya" (1917 yil, mart), "Sho'roi Ulamo" (1917 yil, iyun), "Turon" jamiyatlari va "Turk odami markaziyat firqasi"

(1917 yil, iyul), "Ittifoqi musulmin" (1917 yil, sentyabr) siyosiy partiyalarining tuzilishida muhim rol o'ynadilar.

Turkistonning bu ilg'or ziyolilari Turkistondagi idora usuli, boshqaruv shakllari, davlatchilik nazariyasi va amaliyoti bilan faol shug'ullandilar. Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar, «Sho'roi islomiya», «Sho'roi Ulamo», «Turon» va boshqa jamiyatlarning dasturlarida davlatchilik masalalariga alohida e'tibor berilgan edi.

Jadidchilik 1917 yilda ma'rifatchilik harakatidan allaqachon siyosiy harakat darajasiga ko'tarilib bo'lgan edi. O'sha 1917 yilning o'zida to'rt marta Butunturkiston musulmonlari qurultoyi o'tkazildi. 16-23 aprelda Toshkentda bo'lgan I qurultoyda demokratik Rossiya tarkibida Turkiston Muxtoriyatini tashkil etish g'oyasi olg'a surildi. Bu g'oya Turkiston xalqlarining o'z milliy davlatchiligini tiklash yo'lidagi dastlabki qadami edi. Butun Turkiston musulmonlar I qurultoyi majlisida Markaziy rahbar organ - Turkiston o'lka musulmonlar Kengashi (Kraymussovet) tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi. Uni tuzishdan asosiy maqsad milliy - ozodlik harakatiga tashkiliy va markazlashtirilgan xususiyat kasb etish uchun bir - biri bilan tarqoq aloqada bo'lgan jamiyat, qo'mita va ittifoqni birlashtirishdan iborat edi.

Shunday qilib, Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam tashlandi. Tarixda ilk marta Butunturkiston miqyosida musulmonlar qurultoyi chaqirilib, unda tub xalqlarning muxtoriyat tomon qat'iy intilishi, o'z an'analari, urf - odatlari va turmush tarzlarini izchil turib himoya qilishi aytili. Bu manfaatlarining ifodachisi bo'lgan Milliy Markaz - Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi tashkil etildi. Afsuski, birlashish jarayonlari har doim ham bir tekis rivojlanmadi. Asr boshidan buyon davom etib kelayotgan "Jadidi – qadim" nizolari demokratik harakat saflarida parchalanish yuz berishiga olib keldi. Yuqorida qayd qilingan "Sho'roi Islomiya" tashkiloti vakillari asosan jadidlardan iborat edi. 1917 yil iyun oyida bu tashkilotdan "Sho'roi Ulamo" ajralib chiqdi. Sherali Lapin uning Toshkent shobasiga asos soldi, ko'p o'tmay Qo'qonda ham "Sho'roi Ulamo" jamiyati tuzildi. Bu ikki jamiyat o'rtasida

g'oyaviy kelishmovchiliklar mavjud bo'lib, umumiy kurashga rahna solib turardi.

1917-yil 7-11-sentyabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi ochildi. Qurultoy hokimiyatni ishchi, soldat va dehqon deputatlari sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Faqat Milliy Markaz-Turkiston musulmonlari Markaziy Kengashi mintaqadagi tub erli aholi manfaatlarini himoya qilishi mumkin, degan fikr qat'iy qilib qo'yildi.

Shuningdek, 17-20-sentyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston va Qozog'iston musulmonlarining navbatdagi qurultoyida "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", "Turon" va boshqa siyosiy tashkilotlarni birlashtirib, Turkiston mintaqasi uchun umumiy bo'lgan "Ittifoqi musfimin" degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilindi.

Qurultoy ishidagi asosiy masala Turkiston o'lkasining bo'lajak ma'muriy - siyosiy tuzumini belgilash bo'lgan. Qurultoy bo'lajak davlatga «Turkiston Federativ Respublikasi» degan nomni qo'yib, parlament asosida boshqariladigan davlat tuzumining bosh tamoyil va me'yorlarini belgilab berdi. Shu tarzda Turkistonda Muxtoriyat xukumati yuzaga kelmasdan ancha oldin uning poydevorini yaratishga zamin hozirlangan.

1917 yil voqealari Turkistondagi evropalik siyosiy guruhlarining ham jonlanishiga sabab bo'ldi. Petrograddagi Rossiyaning Muvaqqat hukumati o'lkani boshqarish uchun Turkiston Komitetini tashkil qildi. Ikkinchi hokimiyat bo'lib ishchi-soldat sovetlari tuzildi, ularda rahbarlikni qo'lga olish uchun bolsheviklar kurash boshladilar. Lekin 1917 yil aprel oyi boshidan noyabrgacha Turkiston Komiteti hokimiyatni boshqarib turdi.

Shunday qilib, 1917 yilning oktyabr oylariga kelib Turkistonda hokimiyat masalasida ikki muqobil yo'nalish yuzaga keldi. Birinchisi-milliy yo'nalish, uni islom dini ulamolari va jadidlar boshqardilar. Mahalliy tub erli musulmonlar asosan shu yo'nalishga ergashdilar. Chunki musulmon ulamolari va jadidlar o'z oldiga Turkistonning milliy mustaqilligi, erk va ozodlik uchun mustamlakachilarga qarshi kurashni maqsad qilib qo'ygan edilar. Ikkinchisi-

nomilliy yo'nalish bo'lib, uning asosiy yo'naltiruvchi kuchlari Turkistonga chetdan kelgan Evropa xalqlarining vakillari edilar. Ularga rus sotsial-demokratlari, eserlar, kadetlar va shuning singari firqalarning Turkistondagi vakillari boshchilik qildilar.

1917-yil 25-26-okryabrda V.I.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar Petrogradda Muvaqqat hukumatni ag'darib tashlab, davlat to'ntarishini amalga oshirdilar. Bu haqdagi xabar Toshkentga 28 oktyabrda etib keldi. Turkiston bolsheviklari rahbarlik qilgan Toshkent soveti ishchi va soldatlarni qo'zg'olon ko'tarishga da'vat qildi. Lekin general Korovichenkoga sodiq qolgan qismlar bunga qarshilik ko'rsatdilar. 1917-yil 28-oktyabrda Toshkentning yangi shaharida qurolli to'qnashuvlar avj oldi. 1 noyabrda Toshkent harbiy qal'asi taslim bo'ldi, shu kuni qurolli qo'zg'olon g'alaba qozondi, deb e'lon qilindi. Qurolli qo'zg'olon natijasida Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi ag'darildi, yangi hokimiyatning o'lka organi esa darhol tuzilmadi. Uning vazifasini dastlabki paytlarda Toshkent Soveti bajarib turdi. U 1 noyabrda o'lkadagi barcha Sovetlarga telegramma yuborib, unda «Butun hokimiyatni sovetlar qabul qildi. Hokimiyatni o'z qo'lingizga olingiz» deyilgan edi.

12-15-noyabrda Toshkent shahrida Sherali Lapin raisligida butun Turkiston o'lka musulmon tashkilotlarining qo'shma majlisi bo'ldi. Unda Butunrossiya miqyosida hokimiyat tuzish masalasi hal qilinguncha «Turkiston hokimiyatini tashkil etish» muammosi muhokama qilindi. Mazkur anjumanda Mahalliy aholi manfaatlari bilan bir qatorda evropalik aholi manfaatiari ham kamsitilmadi. Anjumanda qabul qilingan rezolyutsiyada «Turkiston xukumati qo'mitasi» 12 kishidan iborat vakillardan tashkil topishi va uning organi bo'lgan «Turkiston o'lka kengashi»ni nazorat qilishi lozim edi. Hukumat tarkibiga ishchi va soldat deputatlari kengashlaridan 3 tadan, o'z-o'zini boshqarish idoralaridan 3 tadan, o'lka musulmon sezdidan 6 vakil kiritilishi ko'zda tutilgan. Mazkur rezolyutsiya mazmunini sovetlarning III sezdi delegatlari e'tiboriga etkazish Sherali Lapin boshchiligidagi komissiyaga yuklatildi.

Sovetlarning III sezdi 1917-yil 15-noyabrda o'z ishini boshladi, 18 noyabrda Sherali Lapin sovetlarning III o'lka sezdidagi musulmon tashkilotlari kengashining rezolyutsiyasini e'lon qildi. U aytdiki: «Musulmonlarning tutgan yo'li mustaqil yo'ldir, bu yo'lni ularga Qur'on va shariat qoidalariga ko'rsatib bergan. Shuning uchun ular rus siyosiy partiyalaridan birortasiga ham qo'shila olmaydilar, lekin barcha xalq tashkilotlariga tayanib, Ta'xis majlisiga olib keladigan hokimiyatni qo'llab-quvvatlaydilar... Musulmonlar rus inqilobining xalqlarni o'z taqdirini o'zi belgilashi to'g'risidagi va'dasiga ishonadilar». Shundan so'ng Sherali Lapin musulmonlar kengashi nomidan o'lkani idora qilishni tashkil etish haqidagi takliflarni ma'lum qiladi. Biroq Sovetlarning III o'lka sezdi bu taklifni butunlay rad etdi. Bunga sabab qilib «Sezdda mahalliy ishchilar va boshqa «mehnatkash aholi» qatlamlarining juda ozchilikni tashkil etganligi» deb ko'rsatdilar.

Shunga qaramasdan, sezdidagi ayrim fraktsiyalarning rahbarlari o'lkaning rahbar organlari tarkibiga mahalliy aholi vakillaridan ozroq miqdorda bo'lsa-da kiritish haqidagi takliflar bilan chiqdilar. Ammo bolsheviklar boshqa frantsiyalarning fikrini inobatga olmadilar. O'lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarning III qurultoyida "Xalq komissarlari soveti" deb nomlangan evropaliklardan iborat bo'lgan hukumat tashkil topdi. Unda 8 o'rin sol eserlarga, 7 o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Turkiston XKS raisi lavozimini kasbi chizmachi bo'lgan bolshevik F.Kolesov egalladi, harbiy komissar qilib aravakash Perfilev, boshqa komissarlik lavozimiga o'rtamiyona yurist va shunga o'xshaganlar tayinlandilar. Bu sezdda qonun chiqaruvchi organ Markaziy Ijroiya Qo'mita ham saylanmadi. Hukumat a'zolari qatoriga tub aholi vakillari kiritilmadi. Bolsheviklar Turkistonga muxtoriyat berish u yoqda tursin, o'zlarini musulmon aholiga mutlaqo ishonmaydigan, uning manfaatlari va orzu-umidlarini nazar-pisand qilmaydigan shovinistlar sifatida ko'rsatdilar.

Turkistondagi bu hukumat, birinchi galda bolsheviklar mohiyatan chorizm mustamlakachilik siyosati asosida ish boshladilar. Shu bilan birga, oktyabr to'ntarishidan keyin Rossiyada bo'lgani singari, Turkistonda ham

inqilobiy aqidalarga, eng avvalo sinfiylik tamoyillariga amal qilindi, Mulkdorlar - ekspluatator, ezuvchilar: milliy ziyolilar, o'qimishli, obro'-e'tiborli xalq vakillari-milliy burjuaziya ko'rchalonlari va malaylari: islom dini rahnamolari reaksion oqim deb, ularga qarshi ayovsiz kurash boshlab yuborildi. Rusiyzabon hukumat o'lkadagi harbiy qismlari, qurollangan ishchi gvardiyasiga tayanib ish ko'rdi. Bu hokimiyat faoliyati zo'rlikka, buzg'unchilikka, qon to'kishga qaratildi. Ong saviyasi past, ko'pincha jinoiy unsurlar bo'lgan soldatlar, ishchi gvardiyachilar erli aholi, ayniqsa, dehqonlarni shafqatsizlik bilan talay boshladilar. Erli aholi jamoatchiligining demokratik yo'nalishidagi sa'y-xarakatlari, milliy davlatchilikni joriy qilish sari tashlagan qadamlariga ashaddiy qarshilik ko'rsatildi.

Shu tariqa, bolsheviklar so'l eserlarning qo'llab - quvvatlashi bilan ko'p millionli mahalliy aholining amaliy ishtirokisiz, uning fikri va manfaatlarini hisobga olmasdan turib, Turkistonda oktyabr to'ntarishini amalga oshirdilar, sovet hokimiyatini e'lon qilib, bolsheviklar tuzumini o'rnatdilar. Lekin Turkistondagi milliy siyosiy tashkilotlar siyosiy kurashni to'xtatmadilar. 1917 yilning oxiriga kelib o'lkadagi mavjud ijtimoiy siyosiy vaziyat shundan dalolat berar ediki, Turkiston amaliy jihatdan muxtoriyatga erishish arafasida turgan edi.

Toshkentdagi Xalq Komissarlari Kengashi Turkiston musulmonlari vakolati sezding mamlakatni idora qilishni erli xalq qo'liga topshirish haqidagi qarorini rad etgandan so'ng, "Markaziy Sho'roi Islom" tashkiloti hokimiyat masalasini hal etish uchun mustaqil harakat boshlashga majbur bo'ldi.

1917-yil 26-28-noyabrda Qoqon shahrida Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi.

Turkistonni boshqarish shakli tog'risidagi masala qurultoyning diqqat markazida bo'lgan. Qurultoyda o'lkaning barcha mintaqalari va ko'pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakil hozir bo'ldi. Mandat komissiyasining a'zosi T.Norbotabekov qurultoy qatnashchilarining tarkibi haqida axborot berdi. Unga ko'ra qurultoyda Farg'onadan-100, Sirdaryodan-22, Samarqanddan-21, Buxorodan 4 va Kaspiyortidan 1 vakil: shuningdek, "Sho'roi

Islom", "Sho'roi Ulamo" musulmon harbiylari kengashi, o'lka yaxudiylar jamiyati, mahalliy yaxudiylar vakillari qatnashdilar. Ochiq ovoz bilan hay'at a'zoliciga quyidagilar: M.Cho'qaev, U. Xo'jaev, Yu. Agaev, S. Akaev, S. Gertsfeld, O. Mahmudov, A. Orazaev, I.Shoahmedov va boshqalar saylandilar. Qurultoyda 1917 yil 27 noyabr kuni qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: "Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topishi shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi". Qurultoy Turkistonda yashab turgan milliy o'zchilik huquqlarining muttasil himoya qilinishini e'lon qildi. Mazkur davlatning nomi Turkiston Muxtoriyati deb ataladigan bo'ldi. Ta'sis majlis chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Miilat) Majlisi qo'lida bo'lishi kerak, deb qaror qabul qildi. Xalq majlisi tarkibiga saylanadigan 54 o'rindan 18 o'rin o'lkadagi turli evropalik aholi tashkilotlarining vakillari uchun ajratildi, Bu esa uchdan bir o'rin evropalik aholi vakillariga tegishini bildirar edi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan 8 kishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi, yana 4 kishi evropalik aholi vakillari ichidan nomzodlar ko'rsatilgach, qayd qilinishi ko'zda tutildi. Hukumatning Bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib Muhammadjon Tanishboev saylandi. Islom Sulton o'g'li Shoahmedov - Bosh vazir o'rinbosari, Mustafo Choqaev-tashqi ishlar vaziri, Ubaydulla Xo'jaev harbiy vazir, Hidoyatbek Yurg'uli Agaev-er va suv boyliklari vaziri, Solomon Abramovich Gertsfeld-moliya vaziri lavozimlarini egallashdi. Hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o'zgarishlar yuz berib, M.Choqaev Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi. Vazirlardan uch kishi oliy ma'lumotli huquqshunos, ikki kishi o'rtacha malakali huquqshunos hamda agronom va muhandislardan iborat bo'lganligi Muxtoriyat hukumati a'zolari bilim darajasining naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Qurultoy tugagach, 1 dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumat a'zolari (8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnoma e'lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi. Oradan ko'p o'tmay, Millat Majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar e'lon qilindi, shuningdek, yangi hukumat mamlakat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi.

Turli tillarda gazetalar nashr qilina boshlandi. Muxtoriyat hukumati milliy qo'shini tashkil qilishga kirishdi. 1918 yil boshida harbiy vazir Ubaydulla Xo'jaev ishtirokida o'tkazilgan ko'rik - parad vaqtida askarlar soni 2000 kishiga etgan. Hukumat iqtisodiy sohada 30 million so'm miqdorida ichki zayom chiqarishni yo'lga qo'ydi va Turkiston aholisiga Orenburg orqali g'alla keltirish muammosini hal qilish uchun amaliy qadamlar tashlandi.

Yangi hukumat qisqa vaqt ichida omma o'rtasida e'tibor qozonib, butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub erli xalqlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Turkiston o'lkasining turli shahar va qishloqlarida muxtoriyatni olqishlab, ko'p ming kishilik namoyishlar bo'lib o'tdi.

Turkiston xalqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917 yil 13 dekabrda bo'lib o'tgan voqealar alohida o'rin tutadi. O'sha kuni Toshkentda eski shahar aholisi "Muxtor Turkiston uchun!" shiorlari ostida tinch bayram namoyishini o'tkazdilar. Ammo Toshkent sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan tartib o'rnatishga buyruq berdilar. Oqibatda tinch namoyish qatnashchilari pulemyotdan o'qqa tutildi, 16 kishi ana shu toqnashuv qurboni bo'ldi. Bolsheviklar rejimining bunday tazyiqlariga qaramay, Muxtoriyat hukumatini qo'llab - quvvatlash butun o'lka bo'ylab davom etaverdi.

Afsuski, ilk demokratik va xalqchil hukumat bo'lgan Turkiston Muxtoriyatining faoliyati uzoqqa cho'zilmadi. Muxtor hukumatning obro'-e'tibori va nufuzi bolsheviklarni jiddiy tashvishga solib qo'ydi. Natijada, 1918 yil 19-26 yanvarda Toshkentda bo'lgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarning favqulodda IV qurultoyida Turkiston Muxtoriyati

hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari holatda deb, hukumat a'zolarini qamoqqa olish to'g'risida qaror chiqardi. 30 yanvardan Turkiston XK.S Muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Buning uchun armanlarning "Dashnoqtsutyun" partiyasi a'zolaridan tuzilgan qurolli to'dalardan ham keng foydalanildi.

Shu kunlarda Muxtoriyat hukumati ichida ham ziddiyatlar kuchayib, 18 fevralda M.Choqaev hukumati ulamochilarning tazyiqi bilan iste'foga chiqdi. Shu kundan Qo'qon shahar mirshablari boshlig'i Ergash (kichik Ergash) amalda Muxtoriyat hukumatining rahbariga aylandi.

18 fevralda Turkiston o'lkasi harbiy komissari E.Perfilev boshchiligidagi piyoda, otliq va artileriya qismlaridan iborat 11 eshelon Qo'qonga keldi, Qizil askarlar shaharda bosqinlar uyushtirib, uni talon-taroj qilishga kirishdilar. Shahar ustiga uch kun davomida to'plardan yondiruvchi snaryadlar otildi. Muxtoriyat qo'shinining tirik qolgan qismi shahardan chiqib ketdi. Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari oqibatida ag'darib tashlandi. Qo'qon va uning atrofidagi tinch aholini talash, o'ldirish avjga chiqdi. Shahar butkul vayronaga aylantirildi. O'qqa tutilgan, o'ldirilgan, talangan va taxqirlangan Qoqonliklarning tirik qolgan qismi sovet hokimiyatini tan olishga majbur bo'ldi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko'rgan bo'lsa-da, u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqlol uchun kurashga da'vat etdi. Vatan tuyg'usidek muqaddas tuyg'u qalbining toridan joy olgan Turkiston munavvarlarining muxtoriyat uchun olib borgan kurashlari izsiz ketmadi. 1918 yil 20 aprel, 1 may kunlari Turkiston sovetlarining V qurultoyida Rossiya Federatsiyasi tarkibida Turkiston avtonom sovet respublikasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. TAsRning Markaziy Ijroiya komiteti (MIK) va XKS saylandi, bular tarkibiga oz bo'lsa-da, tub millatlar vakillari kiritildi. Qurultoyda, shuningdek, sanoat korxonalarini natsionalizatsiya qilish va ba'zi boshqa masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilindi.

1918 yil iyun oyida Turkiston Kompartiyasi ta'sis etildi.

1917 yil 9 dekabrda Turkiston XKS erni sotish va sotib olishni man qiluvchi, erni ijaraga berishrli cheklovchi qaror qabul qildi. Ammo u qog'ozda qolib ketdi, yirik dehqonlar er egaligini surunkali tugatishga qaratilgan harakatlar natija bermadi. Xususiy mulk yo'q qilinib, egasiz qolgan iqtisodiyot shiddat bilan talon-taroj bo'ldi. O'lkada savdo-sotiq buzildi, oziq-ovqat tanqisligi natijasida bozorlar yopildi, non bilan ta'minlash, g'alla davlat idoralari ixtiyorida markazlashtirildi.

1919 yil noyabr oyida Rossiya markazidan Turkistonga RSFSR MIK va xukumatining Turkiston ishlari bo'yicha komissiya-Turkkomissiya keldi. Uning raisi Sh.Eliava, a'zolari boshqa ko'zga ko'ringan bolsheviklar edi. Turkkomissiya bu erda favqulodda va cheklanmagan vakolatlarini amalga oshirdi. U Turkiston Kompartiyasi MK Turkiston MIK va XKS ustidan qattiq nazorat o'rnatdi, lozim topganda ularni tarqatib yubordi, tarkibini o'zgartirdi. Ichki va tashqi siyosat, iqtisodiyot, armiya, kadrlar masalasini o'z qo'liga olib markazlashtirdi. Vaqf mulklarining davlat ixtiyoriga olinishi e'lon qilindi va qoziliklar yopildi.

1919 yil iyunga kelib esa oziq-ovqat razvyortkasi joriy qilindi, ya'ni oziq-ovqatlar davlat tomonidan majburiy tortib olinadigan bo'ldi. Majburiy jismoniy mehnat joriy qilindi. Bu tadbirlar tarixda "harbiy kommunizm" siyosati nomini oldi. Bu siyosat xo;jalik faoliyatining moddiy manfaatdorlik tamoyilini yoqqa chiqardi.

Shu bilan birga, o'lkada milliy-etnik ajralish chuqurlashdi, boisheviklar qo;l ostidagi ishchi, soldat sovetlari aksariyat ruslar joylashgan erlarda ish ko;rdilar. Tub erli aholi bu sovetlarni tan olmas edi. Ko'pchilikni tashkil qilgan erli aholi urf-odatlarini, e'tiqodi, qadriyatlariga dushmanlik munosabati qat'iy noroziliklarni keltirib chiqardi,

Shunday qilib, Rossiyada bo;lgani kabi, Turkistonda ham mulkdorlarni tugatish avj oldirib yuborilgani, aholi, xususan dehqonlarga og'ir soliqlar solinishi, iqtisodiy va ma'naviy tahqirliklar bolsheviklar hukumatidan, ularning olib borgan siyosatidan xalqning norozi bo'lishiga olib keldi.

1918 yil fevralida «Turkiston Muxtoriyati»ning qonga botirilishi, sovetlar olib borgan noto'g'ri iqtisodiy va madaniy-ma'naviy siyosat Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha rejimga qarshi istiqloqlilik harakatining boshlanishiga sabab bo'ldi. Dastlabki guruhlarining tuzilishi Qo'qon atrofidagi Bachqir qishlog'idan bo'lgan kichik va katta Ergashlarning nomlari bilan bog'liq. 1918 yil 27 fevraldagi janglarning birida kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rniga katta Ergash Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik siyosatiga qarshi ozodlik bayrog'ini ko'tardi. Marg'ilonda esa militsiyaning sobiq boshlig'i Muhammad Aminbek Ahmadbek O'g'li Madaminbek (1892-1920) kurash boshladi.

Qarshilik ko'rsatish harakati Qo'qon fojealaridan keyin boshlangan bo'lishiga qaramay, uning ildizlari chor Rossiyasi tomonidan Turkiston bosib olingan XIX asrning 60-70 yillariga borib taqaladi. "Turkistonning mustaqilligi uchun kurash!", "Turkiston - turkistonliklar uchun!" degan shiorlar hech qachon kun tartibidan olib tashlanmagan. Faqat bu harakatning shakllari va taktikasi o'zgarib turgan. 1918 yil fevralida Turkiston xalqlarining milliy hukumati yo'q qilinganda ularning milliy g'ururi ham toptalgan edi. Turkistonda qarshilik ko'rsatish harakati vujudga kelishning bosh sababi sovet hokimiyatining o'lkada yuritgan mustamlakachilik va buyuk davlatchilik siyosati bo'ldi. Bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan, yuqorida qayd etib otilgan dastlabki sotsialistik tadbirlari, "harbiy kommunizm" siyosati hamda qizil armiya jangchilarining talonchilik va bosqinchiliklari harakatga alohida keskinlik va ko'lam bag'ishladi, uning tobora kengayishi va rivojlanishiga olib keldi.

Bu harakatning o'ziga xos milliy ko'rinishi va Turkistonga hos xususiyatlari bo'lgan. Harakatda ustuvor fikr butun Turkistonning milliy istiqloli va mustaqilligi g'oyasidir. Bu qarshilik ko'rsatuvchilarning "Yo'qolsin sovet hokimiyati!" va "Mustaqil bir musulmon davlati tuzamiz!" shiorlarida ham yaqqol ifodalanadi. Bu kurashning asosiy harakatlantiruvchi kuchlarini dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar tashkil qilgan. Ularning milliy tarkibi asosan tubjoy aholisi-o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq,

turkman, qoraqalpoq va uyg'urlardan iborat bo'lgan. Xalq harakatining uyushgan bir shaklida namoyon bo'lishida qorboshilar ko'rsatgan g'ayrat-shijoatni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Qorboshilar istiqlolchilarning harbiy rahbarlari bo'lib, ular o'z jangovarliklari bilan mashhur edilar. O'z vaqtida Farg'ona vodiysida Kichik va Katta Ergashlar, Madaminbek, Shermuhammadbek, Samarqand viloyatida Ochilbek, Bahrombeklar harakatga rahbarlik qildilar.

Buxoroda Ibrohimbek, Jabborbek, Doniyolbek va boshqalar, Xorazmda Junaidxon, G'ulomalixon, Qo'shmamedxon kabi qorboshilar milliy istiqlol tarixida o'z o'rinlariga ega bo'ldilar.

Qarshilik ko'rsatish harakatini tashkiliy jihatdan uyushtirishda Farg'ona vodiysi, Buxoro va Xorazmdagi qorboshilarning mazkur davrda bo'lib o'tgan o'ttizdan ortiq qurultoylarining ahamiyati katta bo'lgan. Ularda rahbarlar saylangan, qorboshilar yagona qo'mondonlik ostiga birlashtirilgan. Ammo bunga doim ham amal qilinmas edi. Turkistondagi qarshilik ko'rsatish harakatining g'oyaviy rahnamolari asosan jadid munavvarlari va islom ulamolari edi. Harakatga g'oyaviy rahbarlik qilish uchun jadidlar bilan ulamolar o'rtasida o'zaro raqobat mavjud bo'lgan. Zulm va istibdodga qarshi olib borilgan istiqlol janglari tafsilotlarini talabalarga 1991-2006 yillarda chop qilingan yangi tarixiy adabiyotlardan oqib o'rganib olishni tavsiya qilamiz.

Shunday qilib, 1918 yil bahorida Farg'ona vodiysida boshlangan. Sovet hokimiyatining siyosatiga qarshilik ko'rsatish harakati 1920 yilga kelib tashkiliy jihatdan shakllandi. U yirik harbiy kuchga aylanib, Farg'ona vodiysidagi bolsheviklar tuzumini larzaga keltirdi va qariyb ikki yil davomida Farg'onadagi vaziyatni boshqarib turdi. Bu va bundan keyingi davr ichida kurashchilar harbiy tashkiliy jihatdan birlashishga harakat qildilar. Biroq tor ma'nodagi birlashish amalga oshmadi. Qorboshilarning ko'pchiligi ongiga o'rnashib qolgan faqat o'zini o'ylash, manmansirashlik, shuhratparastlik illati ularni bir-biriga yon berishga qo'ymasdi. Bu holatdan esa bolsheviklar ustalik bilan foydalandi. Ular dabdabali shiorlari bilan qarshilik ko'rsatuvchilar qatoriga rahna solishga

muvaffaq bo'ldi. Bunga asosiy sabab, Farg'ona vodiysida harakat qilayotgan 150ga yaqin qorboshilar dastalarining maqsadlarini birlashtira oladigan yagona milliy dasturning yo'qligida edi.

Shuningdek, Farg'ona vodiysiga 1919 yilning oxirlarida tashlangan katta miqdordagi harbiylar kuchlar nisbatini sovetlar tomoniga burib yubordi. Shunga qaramasdan, Turkiston o'lkasida qarshilik ko'rsatayotgan guruhlar yomon qurollangan, harbiy tayyorgarlik ko'rmagan va katta talofat ko'rayotgan bo'lsalar-da, bosqinchi qizil armiya qismlariga qarshi kurashib turdilar. Ammo, tinimsiz davom etgan etti yillik kurashdan ular ham, Farg'ona xalqi ham charchagan edi. Shuning uchun qasoskorlarning ko'pchiligi 1924-yil davomida qarshilikni to'xtatib bordilar. Shu tariqa bu kurash Farg'ona vodiysida 1925 yilgacha davom etib, istiqloqlilik xarakatining birinchi davri yakunlandi. Xorazm va Buxoroda esa bu xarakat 1935 yillargacha davom etdi. Bu qarshilik ko'rsatish xarakatining ikkinchi davri bo'lib, o'zining xarakteri va kuchlar nisbati jihatidan birinchi davrdan farq qiladi. Xarakatning ikkinchi davrida Buxoro va Xorazmdagi qarshilik ko'rsatuvchi kuchlar sovetlar siyosatiga qarshilik ko'rsatish bilan birga eski boshqaruv va hokimiyatni tiklashni ko'zladilar. Holbuki, eskilikka qaytish xalq manfaatlari va demokratiyaga zid edi. Bu esa o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

O'rta Osiyoda jadidchilik xarakati o'lkaning barcha xududlarida bir vaqtda paydo bo'lgan bo'lsa-da, o'z oldiga qo'ygan kurash maqsadlari jihatidan ikki xil yo'nalish kasb etgan. Jumladan, Turkiston jadidlari o'z oldilariga bosh maqsad qilib Turkiston o'lkasini Rossiya mustamlakachilaridan ozod qilish va milliy mustaqil davlat tuzishni qo'ygan bo'lsalar, Buxoro va Xiva jadidlari amir va xon zulmiga qarshi kurashni bosh maqsad deb bildilar. Chunki ular mustamlakachilik zulmini o'z boshidan to'liq kechirmagan edilar. Xalq ommasi amir va xon o'rniga insofliroq va adolatliroq xukmdorga ega bo'lishni istar edilar. Xalqning bu istagini idrok eta olgan Buxoro va Xiva jadidlari amir va xonga qarshi kurashga otlandilar. Ular «Yosh turklar»ga taqlid etib, o'zlarini «Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar» deb atay boshladilar. Ular konstitutsiyaviy

monarxiya tuzumi doirasida islohotlar o'tkazish yo'li bilan adolatli va insonparvar jamiyat qurish mumkin, deb ishonidilar. 1917-1920 yillar davomida Xiva xonligi va Buxoro amirligida rivojlanib kelgan demokratik harakatlar kengaydi, islohotchilik talablari amaliyotda mujassamlashdi. Yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar avvalo yuqoridan turib demokratik islohotlar o'tkazish yo'li bilan xonliklarning ijtimoiy taraqqiyot yo'lida rivojlanishini ta'minlashga harakat qildilar.

«Yosh xivaliklar» xon oldiga bo'yilajak talablarni ishlab chiqdilar va bu manifest matni 1917 yil 5 aprelda e'lon qilindi. Xon Majlis chaqirishga va boshqa islohotlar qilishga rozilik bildirdi. Xon hokimiyati cheklab qo'yildi. Natijada, Xiva xonligida ahvol murakkablashdi, Asfandiyorxon Junaidxonga xonlikni birgalikda boshqarish va bolsheviklarga qarshi kurash olib borishni taklif etdi. Xon Junaidxonni qo'shinilar qomondoni qilib tayinladi va mamlakatdagi butun hokimiyatni unga topshirdi. Oradan ko'p o'tmay, Asfandiyorxon o'ldirildi va taxtga Said Abdullaxon o'tirdi. TASSR bilan Xiva xonligi o'rtasida qurolli to'qnashuv kuchayib bordi. Xorazmga qarshi fitna-xujumlarni to'xtatish uchun Junaidxon 1919 yil aprelda sovet hokimiyati vakillariga murojaat qildi. 9 aprelda Xiva yaqinidagi Taxtada bitim imzolandi. Unda, chunonchi, sovet xukumati (Rossiya) Xorazm axolisining mustaqilligini tan oladi, deyilgan edi. Ammo Xorazmga qarshi tajovuzkorliklar to'xtamadi, bolsheviklar Xorazm xalqi inqilob uchun etildi, deb yordamga shoshildilar. Oqibatda, 1919 yil 23 dekabrda sovet qo'shinarining xonlik hududiga bostirib kirishi boshlandi, 1920 yil fevralida Xivani oldilar va qizil askarlar qismlari hamda yosh xivaliklar tazyiqi ostida Said Abdullaxon taxtdan voz kechdi. Shu tariqa, qizil armiya qismlari yordamida Xivada davlat to'ntarishi amalga oshirilib, monarxiya tuzumi ag'darib tashlandi.

1920 yil aprelda Xivada bo'lib o'tgan xalq vakillarining I Butunxorazm qurultoyi Xiva xonligini bekor etilgan deb e'lon qildi va mamlakatni Xorazm Xalq Sovet Respublikasi deb e'lon qildi. Qurultoy sobiq yosh xivaliklar a'zosi bo'lgan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligida Xalq Nozirlari Kengashini sayladi. Hukumat sobiq yosh xivaliklar, turkman urug'lari rahbarlari va kommunistlardan tashkil topdi.

Buxoroning ichki siyosiy hayoti 1917 yil bahorida yangi pallaga kirdi. Islohotlar, o'zgarishlar zarurligi aniq bo'lib qoldi. Mamlakatda ikki oqim liberal-demokratik («Yosh buxoroliklar») va konservativ oqim xarakat boshladi. Natijada, 1917-yil 7-aprelda amir farmoni (manifesti) e'lon qilindi. Unda amaldorlar ustidan nazorat o'rnatish, soliqlar tizimini tartibga solish, davlat byudjetini joriy qilish, sanoat, tijorat, ma'rifat rivojlanishi uchun qayg'urish va'da qilingan edi. Ammo konservativ kuchlarning bosh ko'tarishi natijasida bu islohotlar amalga oshmadi.

1918-1920-yillarda «Yosh buxoroliklar» dasturlari, siyosiy qarashlari, taktikasida Buxoroda islohotlar o'tkazish uchun kuch, zo'rlik ishlatish zarur bo'lib qolgani tan olindi, ikkinchi tomondan, axolining diniy e'tiqodi e'tirof etildi. Shunga qaramay, ular bolsheviklarga yordam sorab murojaat qildilar.

Buxoro bilan Rossiya davlatlari o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib bordi. RSFSR hukumati Buxoroni o'z ta'sir doirasiga olish uchun barcha choratadbirlarni ko'ra boshladi. 1920 yil avgust oyi oxirlarida Turkiston fronti qomondoni Frunze buyrug'i bilan Buxoro xududlari chegaralarida katta harbiy kuchlar: zambaraklar, bronepoezd, aeroplan jangovor holatga keltirildi.

Endi bolsheviklarning "Sharqqa doir siyosati" ning rejasida Buxoro amirligini qulatish vazifasi turardi. 1920 yil 29 avgustda qizil askar qo'shinilari amirlikka bostirib kirdilar. Lekin bu erda bosqinchilar amir qoshinilarining va aholining qat'iy qarshiligiga duch keldilar. Turkfront qo'mondonligi buyrug'i bilan Eski Buxoro samolyotlardan bombardimon qilindi, to'plar va bronepoezdlardan turib qattiq o'qqa tutildi. Dahshatli janglardan so'ng 2 sentyabrda Buxoro mag'lub bo'ldi, amirlik ag'darildi.

6 oktyabrda amirning yozgi saroyi-Sitorai Mohi Xosada xalq vakillarining 1 Umumbuxoro qurultoyi ish boshladi. Qurultoy Buxoroni Xalq Sovet respublikasi deb e'lon qildi. Fayzulla Xo'jaev xalq Nozirlar Kengashining raisi bo'ldi. Buxoro respublikasining xo'jaligi sezilarli zarar ko'rib, ziddiyatli ahvolni boshdan kechirdi. Qizil qoshinilar qomondonligi mamlakatning turli joylarida, chunonchi, Xatirchi, Qarshi va Shahrisabzda katta boylik, mol - mulklarni qo'lga kiritdilar. Buxoro xazinasidagi oltin va javohirlar, boshqa qimmatbaho boyliklar vagonlarga

ortilib, Turkkomissiya buyrug'iga binoan Rossiyaga olib ketildi. Shu bilan birga, qizil qo'shinilarning respublikalarda qoldirilishi, rusiyzabon siyosatchilarning ekstremistik xatti - harakatlari ijtimoiy - siyosiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, 1920 yilda Buxoro amirligi va Xiva xonligida amalga oshirilgan harbiy to'ntarish Markaz va Toshkentda oldindan ishlab chiqilgan reja asosida sun'iy ravishda mavjud jamiyat taraqqiyotiga majburan kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirildi. O'rta Osiyo xonliklarida ro'y bergan bu to'ntarish bolsheviklarning "jahon inqilobi" deb nom olgan xayoliy va g'ayri ilmiy g'oyasini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Bu maqsadga erishish uchun bolsheviklar rejimi suveren Xiva va Buxoroning "qo'zg'olon ko'targan xalqi" ga yordam ko'rsatish bahonasi bilan ularga qurolli bosqinchilik qilishdan ham tap tortmadilar.

Qizil armiya qismlari yordamida amatga oshirilgan to'ntarish oqibatida bu mamlakatiar ijtimoiy rivojlanishning tabiiy evolyutsion jarayoni sun'iy ravishda uzib qo'yildi, dastlabki bosqichda xalq - demokratik ko'rinishda bo'lgan sovet tuzumi bu mamlakatiar xalqlariga majburan tiqishtirildi. Garchi BXSR va XXSR rasman suveren davlatlar bo'lsalar-da, haqiqatda esa ular avvalboshidanoq Sovet davlatiga qaram bo'lib qolgan edilar.

Xullas, 1917-1920-yillar Turkiston o'lkasi tarixida eng jiddiy burilish yuz bergan davrlardan biriga to'g'ri keldi. O'tgan o'n yilliklar mobaynida etilgan jarayonlar ijtimoiy hayot yuzasiga qalqib chiqdi, uning negizini qamrab olgan chuqur tanglikni ochib tashladi.

### **Xulosa**

Turkiston jadidchilik harakatidagi masalaralar hozirgi kunga qadar tarixiy vorisiylik va an'anaviylik asosida qonunchiligimizda o'z aksini topgan. Demakki, bu ta'limotdagi fiqxiy-xuquqiy munosabatlarni o'rganish zamon talabi. Zero, mazkur ta'limot milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasida<sup>97</sup> dolzarb ahamiyat

---

<sup>97</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида» 2006 йил 25 август.

kasb etadi. Ularda umumilliy va umumbashariy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirishda yukasak ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy. ma'rifiy harakat. Yaqingacha ham u faqat ma'rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ataylab kilingan edi. Maqsad —jadidchilikning doirasini toraytirish, sosialistik- kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Aslida esa:

1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi.
2. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi;
3. Mustaqillik uchun kurash olib bordi.
4. Ularning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;
5. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.

O'zbekiston mustakilligi sharoitida Turkiston Jadidchilik xarakati tarixi o'ta dolzarb ilmiy axamiyat kasb etadi. Binobarin, muxtaram Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganlaridek, “ modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruxiy kuvvat oladigan xalkni yengib bo'lmas ekan, biz xakkoniy tariximizni tiklashimiz, xalkimizni, millatimizni ana shu tarix bilan kurollantirishimiz zarur. Tarix bilan kurollantirish, yana bir bor kurollantirish zarur.”<sup>98</sup> Shuning bilan birga “Vatanimiz mustakillining ma'naviy asoslarini mustaxkamlash, milliy kadriyatlarimizni asrab-avaylash, yurtdoshlarimizni islom dini va falsafasi, aziz-avliyolarimizning ibratli xayoti, kutlug' kadamjolariga nisbatan xurmat extiromi” tuyg'ularini shakllantirishda axamiyati katta.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov “Turkiston” gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida shunday deydilar: “Asrimiz boshlarida jadidlarning o`z hisobidan maktablar, kutubxonalar, qiroatxonalar, teatrlar, ro`znomalar tashkil etganliklarini bir eslaylik. Nahotki bugun yurtimizda ana shunday saxovat buloqlari qurib qolgan bo`lsa!... Axir to`kib–sochib qilinayotgan

---

<sup>98</sup> И Каримов. “Тарихий хотирасиз келажак йўқ” Т., “Шарк”, 1998 йил, 24 бет.

to`rtta to`y o`rniga bitta maktab qursa bo`ladi–ku! Axir shu maktabda begona emas, o`zimizning farzandlarimiz, ertaga sizni bizning o`rnimizga keladigan, chirog`imizni yoqadigan, shu Vatanga egalik qiladigan o`g`il qizlarimiz o`qiydiku!”<sup>99</sup>. Bu so`zlar asr boshida yashagan, o`z millatining yorqin istiqboli xaqida qayg`urgan jadidlar hayoti va faoliyati biz uchun ibrat ekanligining, ular ilgari surgan g`oyalar bugungi kunda xam o`z dolzarbligini yo`qotmaganligini isbotidir.

Turkiston Jadidchilik harakatidagi masalalar xozirgi kunga kadar tarixiy vorisiylik va an`anaviylik asosida konunchiligimizda o`z aksini topgan. Hulusa shuki , bu ta`limotdagi fikxiiy-huquqiiy munosabatlarni o`rganish zamon talabi. Zero, mazkur ta`limot milliiy kadriyatlarimiz, an`ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalkimiz, ayniqsa, yosh avlod kalbi va ongiga ona yurtga muxabbat, istiklolga sadokat tuyg`ularini chukur singdirish masalasida dolzarb axamiyat kasb etadi. Ularda umumilliiy va umumbashariiy kadriyatlarga nisbatan xurmat xissini shakllantirishda yuksak axamiyat kasb etadi.

---

<sup>99</sup> Туркистон газетаси.1999.№12 – Б.2.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

### **Prezident asarlari.**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ Т., “Шарқ”, 1998 йи
2. Каримов И.А. Узбекистан, устремленный в XXI век. – Т.: Ўзбекистон. 1999.
3. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. Т.7. - Т.: Ўзбекистон. 1999.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср босмағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
5. Каримов И.А. Жамятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни миллат кишига ҳизмат ечин. - Т.:Ўзбекистон 1998.
6. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. Тарих. Маърифат. Маънавият. - Т.: Ўзбекистон, 1998.

### **Асосий адабиётлар.**

7. Авлоний А. Осон миллат. -Т.: Шарқ, 1993.
8. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ// Танланган асарлар. 2-жилд.Тошкент, Маънавият,1998.
9. Авлоний А. Таржимаи Ҳолим. // Танланган асарлар. Т. 2. - Т., 1998.
- 10.Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Т., 1992. Б. 23.
- 11.Авлоний А. Танланган асарлар. 2-жилд.Тошкент, Маънавият,1998.
- 12.Абдуазизова Н. Печать и строительство социализма. - Т., 1977;
- 13.Алиев А. Маҳмудхожа Беҳбудий. -Т.: Ёзувчи, 1994.
- 14.Агзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. -Т.: Фан, 1996.
- 15.А. Иброхимов, Х. Султонов, Н. Жўраев “Ватан туйғуси” Т. “Ўзбекистон” 1996 йил.
- 16.А. Азизхўжаев Давлатчилик ва маънавият Т. “Шарқ» 1997 йил.
- 17.Алимова Д.А. Жадидачилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидалар тафаккури//Жадидачилик:ислоҳот, янгилашиш, мустақиллик ва таракқиёт учун кураш. Т.,Университет, 1999.

- 18.Алимова Д., Рашидова Д. Махмудходжа Бехбудий его исторические воззрения. - Т., 1998.
- 19.Алимова Д. Джадидизм в Средней Азии. - Т.: Ўзбекистон. 2000. С. 5.
- 20.Алимова Д. Жаидчилилик харакатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жаидлар тафаккури. // Жаидчилилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. - Т., 1999. Б. 36.
- 21.Абдурашидхонов М. Никоҳ тўғрисида// Танланган асарлар.Т. Маънавият.2003.
- 22.Абдуллин Я.Г. Джадидизм, его социальная природа и эволюция. - Казань, 1988;
- 23.Абдурашидхонов М. Бизни жаҳолат – жаҳли мураккаб// Танланган асарлар.Т. Маънавият.2003.
- 24.Бехбудий. М. Танланган асарлар. 2-нашри, Т., 1999.
- 25.Б.Ешов “Ўзбекистон тарихи” Т. “Университет” 1999 йил.
- 26.Бегали Косимов «Миллий уйғониш» Т, “Шарқ” 2000 й.
- 27.Бегали Косимов. Жаидчилилик. // Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. - Т., 1993.
- 28.Вахабов М.Г. Ташкент в период трех революций. - Т., 1957;
- 29.Вахидов Х. Просветительская идеология в Туркестане (1870-1925). - Т., 1976;
- 30.Дадонов Н.К. Победа Октябрьской революции в Туркестане. - Т., 1958;
- 31.Долимов У. Ишоқхон Ибрат. - Т., 1994.
- 32.Жаидчилилик: ислохот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. -Т.: Унверситет, 1999.
- 33.Жўраев Н., Файзуллаев Т., Усмонов К. Ўзбекистон тарихи. Миллий истиқлол тарихи. -Т.: Шарқ, 1998.
- 34.Жалолов А., Ўзганбоев Ҳ. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг тараққиётида вақтли матбуотнинг ўрни. - Т.: Фан. 1993. Б. 8.
- 35.Житов К., Непомнин В. От колониального рабства к социализму. - Т., 1939;

36. Житов К. Победа Великой Октябрьской социалистической революции в Узбекистане. - Т., 1949;
37. Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. - Т.: Шарқ, 1998.
38. Иногамов Р. Узбекская интеллигенция. - Т., 1926.
39. Иброҳимов А. Бизким, Ўзбеклар. . . - Т.: Шарқ, 1999.
40. Инқилоб жангчилари. - Т.: Ўзбекистон, 1990.
41. Ишанов А.И. Создание Бухарской народной советской республики (1920-1921 гг.). - Т., 1953;
42. Иноятлов Х. Ўзбекистонда Октябрь революцияси. - Т., 1957;
43. Каримов Т.К. Ўзбек адабиёти тарихи. - Т., 1975;
44. Каримов Н. Абдулхамид Чўлпон. - Т.: Фан. 1991;
45. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан (жадидчилик тарихидан лавҳалар). - Т.: Шарқ, 2001.
46. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан (жадидчилик тарихидан лавҳалар). - Т.: Шарқ, 2001.
47. Маҳмудов М. Барҳаёт сиймолар. (қатағон қурбонлари ҳақида лавҳалар). - Т.: Ўзбекистон, 1991.
48. Нуруллоҳ Муҳаммад Рауфхон. Мунавварқори ва бошқалар. // Ўзбегим. - Т., 1992.
49. Победа советской власти в Туркестане. - Т., 1978;
50. Рахмонов М. Узбекский театр с древнейших времен до 1917 года. - Т., 1981
51. Ражабов К., М. Хайдаров “ Туркистон тарихи” Т. “Университет” 2002 йил.
52. Сафаров Г. Колониальная революция. - М., 1921.
53. Соловейчик Л. Басмачество в Бухаре: очерк возникновения и развития современного басмачества. - М., 1923;
54. Садриддин Айний Ҳаёти ва ижоди (тузувчи-муаллиф М. Ҳасаний). - Т.: Ўқитувчи. 1994. Б. 23.

55. Турдиев Ш. Международные связи туркестанских джадидов и политика правящих властей в 1910-1930 гг. // Марказий Осиё XX аср бошида: ислоҳотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш (жадидчилик, мухториятчилик, истиқлолчилик). Халқаро конф. материаллари. - Т., 2001.
56. Федоров Е. Очерки национально-освободительного движения в Средней Азии. - Т., 1925;
57. Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. - Т., 1926;
58. Ходжаев Ф. Джадиды. // Очерки революционного движения в Средней Азии. - М., 1926.
59. Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре и национального размежевания в Средней Азии. - Т., 1932.
60. Чўлпон ва Боту: империя курбонлари. // Ватан. 1994. 13-20 июль;

#### **Foydalanilgan gazeta va jurnallar.**

1. Айни С. Материалы по истории Бухарской революции. - М., 1926.
2. Авазов Н. Туркистонда ҳақ олинмади, берилди. // Ёшлик. 1991. № 10. Б. 38-44;
3. Алиев А. Маҳмудхўжа Беҳбудий. - Т., 1993; Жаидчилик, маърифат ва таълим-тарбия. // Маърифат. 1993. 24 ноябр;
4. Беҳбудий М. Самарқанд мактаби Ҳақинда. // Туркистон вилоятининг газетаси. 1908. 30 янв.
5. Беҳбудий. // Мулоқот. 1994. № 5. Б. 44-45;
6. Гаспринский И. Русское мусульманство. // Звезда Востока. 1991. № 4. С. 117.
7. Джадиды: либералы или демократы. // Звезда Востока. 1991. № 2. С. 126-131;
8. Зиё Саид. Танланган асарлар. - Т.: Адабиёт ва санъат. 1974. Б. 33.
9. Ергашев Б. К вопросу о младобухарцах. // История СССР. 1990. № 4. С. 58-71;

10. Жадидизмнинг социал моҳияти. // Ўзбекистон коммунисти. 1960. № 1. Б. 39-41;
11. Индамас. Маданият тўлқинлари // Садои Туркистон, 1914. №9. 11 май.
12. Карвонбоши. // ЙОшлик. 1990. № 7. Б. 71-79;
13. Каримов Н. Бехбудий ва жадид адабиёти. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1995. № 7. Б. 3-7;
14. Мирза-Ахмедова П., Рашидова Д. Джадиды: кто они? // Звезда Востока. 1990. № 9. С. 137-142;
15. Муйин Ҳ. Ёшларга мурожаат. // Самарқанд. 1913. 9 авг.
16. Музаффарзода Р. Тарбияга аҳамият бермабмиз // Садои Туркистон 1914 № 43. 7 октябрь., Миллат краби нима кутар? // Садои Туркистон 1914 № 52. 17 декабрь., Маданият ва биз // Садои Туркистон 1914. №14. 30 май., Маданият нардбони 1 қисм. // Садои Туркистон 1914 № 33. 5 август, Маданият нардбони 2 қисм. // Садои Туркистон 1914 № 35. 20 август, Қўрқинчли натижалар // Садои Туркистон 1914. № 29. 22 июль
17. О социальной природе средне-азиатского джадидизма и его эволюция в период Великой Октябрьской революции. // История СССР. 1963. № 2. С. 39-40;
18. Очилов Ш. Маҳмудхўжа Бехбудий. // Ёш ленинчи. 1990. 26 сент.;
19. Падаркуш воқеаси ҳақида. // Шарқ юлдузи. 1989. № 7. Б. 148-155;
20. Ризаев СҲ. Жадид драмаси. - Т., 1997; Миллий уйғониш даври сабоқлари. // Маърифат. 1996. 30 март;
21. Русский Туркестан. 1906. 11 май.
22. Сирожиддин Ахмад. Ҳақ йўлида сафарбар сиймо, «Тафаккур» ж., 2002 й., 2-сон.
23. Турдиев Ш. Истиклолимиз карвонбошиси. // Маърифат. 1993. 23 дек.;
24. Турдиев Ш. Маҳмудхўжа Бехбудий. // Фан ва турмуш. 1989. № 1. Б. 18-21;
25. Туземцы и просвещение. // Турк. голось. 1916. 2 ноябр.
26. Туркистон вилоятининг газетаси. 1914. 24 июнь.

- 27.Фитрат ва адабий алоқалар. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. № 4. Б. 10-15.
- 28.Холбоев С. Мунаввар Қори. // Фан ва турмуш. 1991. № 4. Б. 10-13 ва б.
- 29.Ҳамза ва жадидчилик. // Гулистон. 1994. № 5. Б. 54-57;
- 30.Ҳожи Муйин. Ўзбекча алифболар тарихи. // Маориф ва Ўқитувчи. 1929. № 2.
- 31.Чўлпон учун кишан: буюк кишилар ҳаётидан. // Фан ва турмуш. 1991. № 10. Б. 12-13, 20-21; № 11. Б. 8-9;
- 32.Қосимов С. Маърифат ёлқини. Маданий мерос. // Нафосат. 1993. № 7-8. Б. 26-28;
- 33.Қосимов Б. Жадидчилик. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1990. № 4. Б. 17;
- 34.Ғулом Зафарий. // Гулистон. 1996. № 4. Б. 54-56: